O'quv agentlari - bu o'tmish tajribasidan o'rganishi mumkin bo'lgan yoki o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan agent turi. U asosiy bilimlar bilan harakat qila boshlaydi va keyin o'rganish orqali avtomatik ravishda harakat qilish va moslashishga qodir.

Shunday qilib, o'quv agentlari o'rganish, ishlashni tahlil qilish va ishlashni yaxshilashning yangi usullarini izlash imkoniyatiga ega.



2.1.7-rasm. O'quv agentlariga asoslangan refleks agent strukturasi

Agent muhiti. Atrof-muhit-bu agentni o'rab turgan dunyodagi barcha narsalar hisoblanadi, lekin u agentning o'zi emas. Atrof-muhitni agent mavjud bo'lgan vaziyat deb ta'riflash mumkin. Atrof-muhit agent yashaydigan, faoliyat yuritadigan va agentga uni his qilish va unga amal qilish uchun biror ma'lumot beradigan joy.

Atrof-muhitning xususiyatlari. Russell va Norvigga fikriga ko'ra, atrof-muhit agenti turli xil xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin:

To'liq kuzatiladigan va qisman kuzatiladigan muhit. Agar agent sensori vaqtning har bir nuqtasida atrof-muhitning to'liq holatini sezsa yoki unga kira olsa, u **to'liq kuzatiladigan** muhitdir, aks holda u **qisman kuzatiladi**. To'liq kuzatiladigan muhit oson, chunki dunyo tarixini kuzatib borish uchun ichki holatni saqlashga hojat yo'q. Barcha muhitda sensori bo'lmagan agent muhiti **kuzatilmaydigan** deb ataladi.

Deterministik va stoxastik agent. Agar agentning hozirgi holati va tanlangan harakati atrof-muhitning keyingi holatini to'liq aniqlay olsa, unda bunday muhit deterministik muhit deb ataladi. Stoxastik muhit tabiatda tasodifiy bo'lib, uni agent tomonidan to'liq aniqlash mumkin emas. Deterministik, to'liq kuzatiladigan muhitda agent noaniqlik haqida tashvishlanishga hojat yo'q.

Diskret va uzluksiz. Agar muhitda uning ichida bajarilishi mumkin bo'lgan cheklangan miqdordagi hislar va harakatlar mavjud bo'lsa, unda bunday muhit diskret muhit deb ataladi, aks holda u uzluksiz muhit deb ataladi. Shaxmat o'yini diskret muhitga kiradi, chunki bajarilishi mumkin bo'lgan cheklangan sonli harakatlar mavjud. O'z-o'zini boshqaradigan mashina uzluksiz muhitga misol bo'la oladi.

Nazorat savollari

1. Sun'iy intellektda nechta agent turi mavjud?
2. Oddiy refleks agent turi qanday ma'no anglatadi?

3. Sun'iy intellektda dasturiy ta'minot agenti qanday ma'no anglatadi?

4. Statik va dinamik agent qanday ma'no anglatadi?

2.1-bo'lim bo'yicha amaliy qism

2.2-bo'lim bo'yicha amaliy qism quyidagi mavzular bo'yicha keltirilgan. Bunda keltirilgan havola yoki QR kodni skaner qilish orqali GitHubga to'g'ridan to'g'ri murojat qilish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

<https://github.com/TUITAI/>



2.2. Ma'lumotlarning intellektual tahlili

Ma'lumotlarning intellektual tahlili va (Data Mining) termini odatda ikki xil talqin qilinadi. Bu ikki jarayon ham katta hajmdagi ishlov berilmagan ma'lumotlarning keraklisini ajratib olish, tadqiq etish va izlab topish uchun qo'llaniladi. Ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish termini ba'zan ma'lumotlarni qazib chiqarish, ma'lumotlarni tortib chiqarish, ma'lumotlarni kovlab olish, ma'lumotlarni intellektual tahlili, qonuniyatlarni topish muhiti, bilimlarni kengaytirish, bilimlarni kovlab olish kabi tarjima qilinib Data Mining (DM) atamasi bilan sinonim deb ham hisoblash mumkin.

2.2.1. Ma'lumotlar intellektual tahlilning rivojlanish bosqichlari

Ma'lumotlarning intellektual tahlilining rivojlanishiga zamonaviy texnologiyalar va ilmiy taraqqiyot asosiy omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Bu sohada tarixan quyidagi bosqichlarni ko'rish mumkin.

Paydo bo'lishi (1950-1970 yillar):


Statistika usullari. Ma'lumotlarni tahlil qilish sohasidagi dastlabki usullar asosiy statistik tahlilga asoslangan bo'lib, ularni o'z ichiga regressiya va korrelyatsiya kabi algoritmlari kiradi. Bu davrda dastlabki kompyuterlarning vujudga kelishi va ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish muhim omil hisoblangan.

Rivojlanish davri (1980-1990 yillar):

Ekspert tizimlari va sun'iy intellekt. Ekspert tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalari ma'lumotlarni tahlil qilish va o'rganish uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi. Bundan tashqari ma'lumotlar bazasi texnologiyalarining rivojlanishi ma'lumotlarni samarali saqlash va ajratib olishga imkon berdi. Bu ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish sohasining yangi bosqichga chiqishiga katta yordam berdi.

Data Mining (DM) sohasining paydo bo'lishi (1990-2000 yillar).

1990-yillarda “data mining” (ma'lumot qazib olish) atamasi paydo bo'ldi, hamda ma'lumotlar tahlili va intellektual tahlil uchun yangi metodologiyalar va usullarni o'zida mujassamlashtirdi. Ma'lumotlar hajmi oshib borishi bilan ma'lumot qazib olish (DM) usullari katta ma'lumotlar (big data) bilan ishlash imkoniyatini oshirib bordi. Bugungi kunga kelib ma'lumotlarni yig'ish va saqlash, qolaversa ularni tahlil qilish orqali sohalarni rivojlanishida foydalanish muhim omil hisoblanib va ular hajmining keskin oshishiga sabab bo'lmoqda.



2.2.1-rasm. Katta xajmli ma'lumotlarning sohalarda qo'llanilishi

Mashinali o'qitish va chuqur o'qitish usullarining rivojlanishi (2000 yildan keyin).


Mashinali o'qitish. Bu davrda mashinali o'qitish texnologiyalari taraqqiy etib, klassifikatsiya, regressiya, klasterlash va boshqa usullar bilan ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish imkoniyatini yaratdi.

Chuqur o'qitish. Sun'iy neyron tarmoqlar (ANN) va chuqur o'qitish (deep learning) sohalari 2010-yillardan boshlab keng tarqaldi va ma'lumotlarni intellektual tahlil qilishda innovatsion usullarni taklif etdi.

Bugungi kunda. *Katta hajimli ma'lumotlar va real vaqt rejimidagi tahlil.* Hozirgi davrda katta hajimli ma'lumotlar (big data) va real vaqtli tahlil (real-time analysis) ma'lumotlarni intellektual tahlil qilishda muhim o'rin egallamoqda. Bugungi kunga kelib ma'lumotlarning intellektual tahlili biznes, marketing, tibbiyot, moliya va boshqa ko'plab sohalarda qo'llanilishi sohaning rivojlanish tendensiyasini yangi bosqichga olib chiqdi.

Ma'lumotlarni dastlabki qayta ishlash (Data processing)

Ma'lumotlarni dastlabki qayta ishlash-bu ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish uchun tayyorlash jarayonidir. Ushbu jarayon ma'lumotlar sifatini oshirish, noaniqliklarni bartaraf etish va tahlil natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Bundan tashqari ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish asosida bilim hosil qilinadi. Bilimlarni hosil qilish-bu qazib olingan ma'lumotlarni foydalanuvchiga taqdim etish uchun eng kerakli ma'lumotlarni aniq va tushunarli tarzda ifodalash jarayonidir. Ma'lumotlarni dastlabki qayta ishlash mashinali o'qitish(ML) usullari uchun muhim hisoblanadi, chunki u ML modellarini yaratish va o'qitishda foydalanish uchun kerakli ma'lumotlarni tayyorlaydi. Ma'lumotlarni qayta ishlashning maqsadi ma'lumotlarni tozalash, o'zgartirish va modellashtirish uchun mos formatga keltirishdir.



2.2.2-rasm. Ma'lumotlar intellektual tahlil (Data Mining) jarayoni bosqichlari

Ma'lumotlarni dastlabki qayta ishlash jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Ma'lumotlarni tushunish;
- Ma'lumotlarni tayyorlash
- Ma'lumotlarni tozalash

Ma'lumotlarni tushunish (data understanding)

Ma'lumotlarni tushunish ma'lumotlar tahlilining asosiy bosqichlaridan biridir. Bu bosqichda ma'lumotlar to'plamini tanib olish, uning xususiyatlarini ajratib olish, ma'lumotlar tuzilishini tahlil qilish uchun ularni qanday tayyorlash kerakligi to'g'risida tahlillar olib boriladi. Ma'lumotlar ustida tahlil olib borish va tushunish uchun ularning turlari to'g'risida ham yetarlicha ma'lumotga ega bo'lishimiz zarur. Ma'lumotlar to'plamining quyidagi turlari mavjud:

Yozib olingan ma'lumotlar - ma'lumotlar matritsasi, hujjat ma'lumotlari va tranzaksiya ma'lumotlariga bo'linadi.

Ma'lumotlar matritsasi. Agar ma'lumotlar obyektlari bir xil raqamli atributlar to'plamiga ega bo'lsa, u holda ma'lumotlar obyektlarini ko'p o'lchovli fazodagi nuqtalar sifatida ko'rish mumkin, har bir o'lchov boshqa atributni ifodalaydi. Bunday ma'lumotlar to'plami m dan n gacha bo'lgan m qatorli, har bir obyekt uchun bittadan va har bir atribut uchun bittadan n ta ustunli matritsa bilan ifodalanishi mumkin.

Hujjat ma'lumotlari. Har bir hujjat "termin" vektoriga aylanadi. Har bir atama vektorning komponenti (atributi) hisoblanadi. Har bir komponentning qiymati tegishli atamaning hujjatda necha marta paydo bo'lishidir.

Tranzaksiya ma'lumotlari. Yozuv ma'lumotlarining maxsus turi, bu yerda har bir yozuv (tranzaksiya) bir qator elementlarni o'z ichiga oladi. Misol uchun, oziq-ovqat do'konini ko'rib chiqaylik. Xaridor tomonidan bitta xarid safari davomida sotib olingan mahsulotlar to'plami tranzaksiyani tashkil qiladi, sotib olingan alohida mahsulotlar esa tovarlardir.

Maxsus belgilangan ma'lumotlar. Fazoviy ma'lumotlar. Vaqtinchalik ma'lumotlar. Ketma-ket ma'lumotlar. Genetik ketma-ketlik ma'lumotlari.

Atributlar. Atributlarning har xil turlari mavjud. Nominal/kategorik cheklangan sohadagi atributlarning qiymatlari, toifalar, "narsalar nomlari". Ikkilik-faqat ikkita holatga ega nominal atribut (0 va 1). Simmetrik ikkilik-ikkala natija ham bir xil darajada muhim (masalan, jins). Asimmetrik ikkilik-natijalar bir xil darajada muhim emas. (masalan, ijobiy yoki salbiy tibbiy test).

Yuqoridagi ma'lumot turlarini o'rganish natijasida ma'lumotlarning (data understanding) tushunarli bo'lishi uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz.

Misol: datasetdagi atributlardan foydalanib, ma'lumotlarni vizuallashtirish, jadval ko'rinishga keltirish, bir biriga bog'liq ma'lumotlar grafigini chizish va statistik tahlil o'tqazish jarayonini amalga oshiramiz. Buning uchun *kaggle.com* saytidan avtomobillar datasetini(*cars.csv*) yuklab olamiz.

2.1-jadval. Ma'lumotlar to'plami

| Car ID | Brand | Model | Yil | Yurgan yo'li | Yozg'li turi | Uzatmalar turi | Egesi turi | Mileage | Dvigatal | Ot kuchi | O'ringdqlar | Nisad |
|--------|------------|-----------|------|--------------|--------------|----------------|------------|---------|----------|----------|-------------|---------|
| 1 | Toyota | Corolla | 2018 | 50000 | Petrol | Manual | First | 15 | 1498 | 108 | 5 | 800000 |
| 2 | Honda | Civic | 2019 | 40000 | Petrol | Automatic | Second | 17 | 1597 | 140 | 5 | 1000000 |
| 3 | Ford | Mustang | 2017 | 20000 | Petrol | Automatic | First | 10 | 4951 | 395 | 4 | 2500000 |
| 4 | Maruti | Swift | 2020 | 30000 | Diesel | Manual | Third | 23 | 1248 | 74 | 5 | 600000 |
| 5 | Hyundai | Sonata | 2016 | 60000 | Diesel | Automatic | Second | 18 | 1999 | 194 | 5 | 850000 |
| 6 | Tata | Nexon | 2019 | 35000 | Petrol | Manual | First | 17 | 1198 | 108 | 5 | 750000 |
| 7 | Mahindra | Scorpio | 2018 | 45000 | Diesel | Automatic | Second | 15 | 2179 | 140 | 7 | 900000 |
| 8 | Volkswagen | Polo | 2020 | 25000 | Petrol | Automatic | First | 18 | 999 | 76 | 5 | 650000 |
| 9 | Audi | A4 | 2017 | 30000 | Diesel | Automatic | First | 18 | 1968 | 187 | 5 | 2200000 |
| 10 | BMW | X1 | 2019 | 20000 | Diesel | Automatic | Second | 20 | 1995 | 190 | 5 | 2700000 |
| 11 | Mercedes | C-Class | 2018 | 28000 | Petrol | Automatic | First | 16 | 1991 | 181 | 5 | 2300000 |
| 12 | Ford | Endeavour | 2017 | 35000 | Diesel | Automatic | Second | 12 | 2198 | 158 | 7 | 2000000 |
| 13 | Hyundai | Creta | 2019 | 27000 | Petrol | Manual | Third | 16 | 1497 | 113 | 5 | 850000 |
| 14 | Tata | Harrier | 2018 | 40000 | Diesel | Automatic | First | 17 | 1956 | 167 | 5 | 1600000 |
| 15 | Maruti | Ertiga | 2020 | 18000 | Petrol | Manual | First | 19 | 1462 | 103 | 7 | 850000 |
| 16 | Honda | City | 2017 | 42000 | Diesel | Manual | Second | 25 | 1498 | 98 | 5 | 650000 |
| 17 | Volkswagen | Tiguan | 2018 | 32000 | Diesel | Automatic | First | 17 | 1968 | 141 | 5 | 1800000 |
| 18 | Audi | Q3 | 2016 | 38000 | Petrol | Automatic | Second | 15 | 1395 | 148 | 5 | 1900000 |
| 19 | BMW | 5 Series | 2019 | 24000 | Diesel | Automatic | First | 18 | 1995 | 187 | 5 | 3000000 |
| 20 | Mercedes | GLC | 2017 | 26000 | Petrol | Automatic | Second | 12 | 1991 | 241 | 5 | 2500000 |

Bu dataset yordamida har bir avtomobil modeli yurgan yo'lining statistik ma'lumotini aniqlab jadval ko'rinishida ifoda etamiz.

```
import pandas as pd
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt

# Ma'lumotlar to'plamini yuklang ("cars.csv" xuddi shu katalogda mavjud bo'lsa)
df = pd.read_csv('cars.csv')
# DataFrame-da "Model" va "Yurgan yo'li" ustunlari mavjudligini tekshiring

if 'Model' in df.columns and 'Yurgan yo'li' in df.columns:
    # "Yurgan yo'li" raqamli ustun ekanligiga ishonch hosil qiling
```

```

df['Yurgan yo`li'] = pd.to_numeric(df['Yurgan yo`li'],
errors='coerce')
# "Yurgan yo`li" ustunida qiymatlari etishmayotgan
qatorlarni tashlang
df.dropna(subset=['Yurgan yo`li'], inplace=True)


# DataFrame-ni "Yurgan yo`li" bo'yicha tartiblang
df.sort_values('Yurgan yo`li', inplace=True)
models = df['Model']
kilometers_driven = df['Yurgan yo`li']

# Diagramma yaratish
fig, ax = plt.subplots(figsize=(10, 8))
y_pos = np.arange(len(models))
bars = ax.barh(y_pos, kilometers_driven, align='center',
color='skyblue', edgecolor='black')
ax.set_yticks(y_pos)
ax.set_yticklabels(models)
ax.invert_yaxis() # Y tengligini o'zgartirish (yuqoridan
pastga qarab)
ax.set_xlabel('Yurgan yo`li')
ax.set_title('Mashina modelining yurgan yo`li
diagrammasi')

# Har bir bar uchun qiymatlarni text shaklida qo'shish
for bar, km in zip(bars, kilometers_driven):
    ax.text(bar.get_width(), bar.get_y() +
bar.get_height()/2, f'{km}', va='center', ha='left',
fontsize=10, color='black')

plt.show()
else:
print("Ma'lumotlar to'plamida \"Model\" yoki \"Yurgan
yo`li\" ustuni mavjud emas.")

```




2.2.3-rasm. Avtomobillar yurgan yo'lining statistik ma'lumotlarining diagrammasi

Yuqoridagi diagrammada avtomobillar modellarning yurgan yo'llari ketma-ket holatda joylashgan ma'lumotlari vizual ko'rinishda ifodalangan. Bunda aralash kelgan ma'lumotlarni tushunarli holatga o'tkazish jarayoni keltirib o'tilgan.

Ma'lumotlarni tayyorlash (data preparation)

Ma'lumotlarni tayyorlash (data preparation) yoki ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va modellashtirish uchun moslashtirish jarayonidir. Ma'lumotlarni tayyorlash muhim bosqich bo'lib, u ma'lumotlar to'plamini toza, barqaror va ishonchli qilishga yordam beradi.



2.2.4-rasm. Ma'lumotlarni tayyorlash jarayoni

Ma'lumotlarni tayyorlash turlari:

- Birlashtirish
- Ma'lumotlarni qisqartirish (o'quv tanlanma)
- O'lchamlarni qisqartirish
- Xususiyatlar to'plamini tanlash
- Xususiyatlar yaratish
- Diskretlashtirish va Binarizatsiya
- Atributlarni o'zgartirish

Birlashtirish. Ikki yoki undan ortiq atributlarni (yoki obyektlarni) bitta atributga (yoki obyektga) birlashtirish.

Ma'lumotlarni qisqartirish. Ma'lumotlar hajmini kamaytirish.

- Yozuvlar sonini kamaytirish
 - Ma'lumotlardan tanlanma olish
 - Klasterlash
- Ustunlar (atributlar) sonini kamaytirish
 - Atributlar to'plami
 - Yangi (kichikroq) atributlar to'plamini yaratish.
- Tanlanmalarni ajratib olish
 - Tanlanma olish ma'lumotlarni qisqartirish uchun

qo'llaniladigan asosiy texnikadir

Tanlanma olish odatda Data Miningda qo'llaniladi, chunki kerakli ma'lumotlarning butun to'plamini qayta ishlash juda qimmat yoki ko'p vaqt talab qiladi.

Kerakli tanlanma olishning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- Namunadan foydalanish, agar namuna vakili bo'lsa, deyarli butun ma'lumotlar to'plamidan foydalangandek ishlaydi.
- Agar namuna dastlabki ma'lumotlar to'plami bilan taxminan bir xil mos bo'lsa, namuna vakili hisoblanadi.

Misol uchun: Katta o'lchamdagi tasvir ma'lumotlarni qisqartirishni ko'rib chiqamiz.

```
import numpy as np
from PIL import Image
import matplotlib.pyplot as plt

class TasvirSiqish:
    def init(self, file_path):
        self.image = Image.open(file_path).convert('L')
        self.image_array = np.array(self.image)
    def average_pooling(self, block_size):
        h, w = self.image_array.shape
        new_h = h // block_size
        new_w = w // block_size
        reduced_image = np.zeros((new_h, new_w),
            dtype=np.float32)
        for i in range(new_h):
            for j in range(new_w):
                block =
                    self.image_array[i*block_size:(i+1)*block_si
                        ze, j*block_size:(j+1)*block_size]
                reduced_image[i, j] = np.mean(block)
        return reduced_image
    def tasvir_korish(self, block_sizes):
        fig, axes = plt.subplots(1, len(block_sizes) + 1,
            figsize=(15, 5))
        # Dastlabki tasvirni ko'rish
        axes[0].imshow(self.image_array, cmap='gray')
        axes[0].set_title('Dastlabki holatdagi
            tasvir(1024x1024)')
        axes[0].axis('off')
        # Siqilgan tasvirlarni ko'rish
        for i, block_size in enumerate(block_sizes):
            compressed_image =
                self.average_pooling(block_size)
            axes[i+1].imshow(compressed_image, cmap='gray')
            axes[i+1].set_title(f'{block_size} marta
                qisqartirilgan holat
                ({int(1024/block_size)}x{int(1024/block_size)})')
            axes[i+1].axis('off')
        plt.show()
# File path of the image
file_path = 'image1.jpg'
# Tasvirni siqish o'lchami.
block_sizes = [8, 16]
siqish = TasvirSiqish(file_path)
# Tasvirning dastlabki va qisqargandan keyingi holatni ko'rish'
siqish.tasvir_korish(block_sizes)
```

Yuqoridagi dasturiy algoritm yordamida tasvirni quyidagicha qisqartirish jarayonini ko'rib chiqamiz:

Dastlabki holtdagi tasvir (1024x1024)



8 marta qisqartirilgan holat (128x128)



16 marta qisqartirilgan holat (64x64)



2.2.5-rasm. Tasvirni qisqartirish

Tasvir piksellar soni 1024x1024 matritsa ko'rinishidan, 64x64 matritsa ko'rinishiga keltirib olindi. Bunda pythonning tayyor kutubxonalari yordamida tasvirni siqish va bu orqali esa ma'lumotlar hajmini kamaytirish amalga oshirildi.

O'lchamlarni qisqartirish- bu imkon qadar kichik va ma'lumotlarni tahlil qilish uchun yetarli bo'lgan atributlar to'plamini tanlashdir. Bundan tashqari ahamiyatsiz xususiyatlarni (ko'p yoki kamroq) olib tashlash ham deyiladi. Misol: do'kondagi tovarlarning kunlik sotilish hajmi statistikasini baholash uchun, ta'minotchi korxonaning nomi ahamiyatsiz. Bu misolni quyidagicha tahlil qilib chiqamiz.

Ma'lumotlar to'plamini hosil qilib olish.

```
import pandas as pd
from datetime import datetime
data = {
    'ID': [0, 1, 2, 3, 4, 5],
    'Nomi': ['Pepsi', 'Fanta', 'Sprite', 'CocaCola',
            'Lipton', 'FuseTea'],
    'Shartnoma_nomer': [3434, 5322, 2434, 2133, 6432,
                        3210],
    'Taminotchi_korxonasi': ['Pepsi MCHJ', 'CocaCola
                              MCHJ', 'Pepsi MCHJ', 'CocaCola MCHJ', 'CocaCola
                              MCHJ', 'Pepsi MCHJ'],
    'Narxi': [15000, 14000, 16000, 15000, 10000,
              9000],
```

```

        'Kelgan_Mahsulot_soni': [240, 180, 120, 240, 60,
60],
        'Sotilgan_Mahsulot_soni': [85, 50, 40, 105, 15,
20],
        'Kelgan_sana': ['2024, 5, 19', '2024, 5, 18',
'2024, 5, 18', '2024, 5, 17', '2024, 5, 15',
'2024, 5, 10'],
        'Muddati_oy': [12, 12, 12, 12, 12, 12])
df = pd.DataFrame(data)
print(df)
def save_to_excel(dataframe, file_name):
    dataframe.to_excel(file_name, index=False)
    print(f"Data saved to {file_name}")
# DataSet-ni Excel fayliga saqlang
save_to_excel(df, 'guruhlangan_data.xlsx')

```

2.2-jadval. Dataset

| ID | Nomi | Shartnoma nomer | Taminotchi korxonasi | Narxi | Kelgan Mahsulot soni | Sotilgan Mahsulot soni | Kelgan sana | Muddati oy |
|----|----------|-----------------|----------------------|-------|----------------------|------------------------|-------------|------------|
| 0 | Pepsi | 3434 | Pepsi MCHJ | 15000 | 240 | 85 | 2024, 5, 19 | 12 |
| 1 | Fanta | 5322 | CocaCola MCHJ | 14000 | 180 | 50 | 2024, 5, 18 | 12 |
| 2 | Sprite | 2434 | Pepsi MCHJ | 16000 | 120 | 40 | 2024, 5, 18 | 12 |
| 3 | CocaCola | 2133 | CocaCola MCHJ | 15000 | 240 | 105 | 2024, 5, 17 | 12 |
| 4 | Lipton | 6432 | CocaCola MCHJ | 10000 | 60 | 15 | 2024, 5, 15 | 12 |
| 5 | FuseTea | 3210 | Pepsi MCHJ | 9000 | 60 | 20 | 2024, 5, 10 | 12 |

Yuqoridagi datasetdan bizga kerak bo'lmagan ma'lumotlarni olib tashlaymiz. Buning uchun yuqoridagi dasturiy algoritmnini davom ettiramiz.

```

columns_needed = ['Narxi', 'Kelgan_Mahsulot_soni',
'Sotilgan_Mahsulot_soni', 'Kelgan_sana', 'Muddati_oy']
data2 = df[columns_needed]
print(data2)
def save_to_excel(dataframe, file_name):
    dataframe.to_excel(file_name, index=False)
    print(f"Data saved to {file_name}")
# DataSet-ni Excel fayliga saqlang
save_to_excel(df, 'guruhlangan_data2.xlsx')

```

2.3-jadval. O'Ichamlari qisqartirilgan ma'lumotlar to'plami

| Nomi | Narx | Kelgan Mahsulot soni | Sotilgan Mahsulot soni | Kelgan sana | Muddati oy |
|----------|-------|----------------------|------------------------|-------------|------------|
| Pepsi | 15000 | 240 | 85 | 2024, 5, 19 | 12 |
| Fanta | 14000 | 180 | 50 | 2024, 5, 18 | 12 |
| Sprite | 16000 | 120 | 40 | 2024, 5, 18 | 12 |
| CocaCola | 15000 | 240 | 105 | 2024, 5, 17 | 12 |
| Lipton | 10000 | 60 | 15 | 2024, 5, 15 | 12 |
| FuseTea | 9000 | 60 | 20 | 2024, 5, 10 | 12 |

Dasturiy algoritm yordamida bizga kerakli datasetni hosil qilib olindi.

Xususiyat yaratish. Ma'lumotlar to'plamidagi muhim ma'lumotlarni asl atributlarga qaraganda ancha samaraliroq qamrab oladigan yangi atributlarni yaratish hisoblanadi. Masalan: zichlik atributini olish uchun massani hajmga bo'lish.

2.4-jadval. Dataset

| ID | Nomi | Shartnoma nomer | Taminotchi korxonasi | Narx | Kelgan Mahsulot soni | Sotilgan Mahsulot soni | Kelgan sana | Muddati oy |
|----|----------|-----------------|----------------------|-------|----------------------|------------------------|-------------|------------|
| 0 | Pepsi | 3434 | Pepsi MCHJ | 15000 | 240 | 85 | 2024, 5, 19 | 12 |
| 1 | Fanta | 5322 | CocaCola MCHJ | 14000 | 180 | 50 | 2024, 5, 18 | 12 |
| 2 | Sprite | 2434 | Pepsi MCHJ | 16000 | 120 | 40 | 2024, 5, 18 | 12 |
| 3 | CocaCola | 2133 | CocaCola MCHJ | 15000 | 240 | 105 | 2024, 5, 17 | 12 |
| 4 | Lipton | 6432 | CocaCola MCHJ | 10000 | 60 | 15 | 2024, 5, 15 | 12 |
| 5 | FuseTea | 3210 | Pepsi MCHJ | 9000 | 60 | 20 | 2024, 5, 10 | 12 |

Yuqoridagi dataset yordamida yangi xususiyatlarni yaratish jarayonini ko'rib chiqamiz. Bunda bizga kerakli xususiyatlarni jadvalga qo'shimcha ustun shaklida qo'shib olamiz.

```
current_date = datetime.now()
df['Kelgan_sana'] = pd.to_datetime(df['Kelgan_sana'],
format='%Y, %m, %d')
```

```

df['Qolgan_Mahsulotlar_soni'] = df['Kelgan_Mahsulot_soni'] -
df['Sotilgan_Mahsulot_soni']
df['Sotilgan_mahsulotlar_narxi']
df['Sotilgan_Mahsulot_soni'] * df['Narxi']
df['Mahsulot_kelganiga_qancha_vaqt'] = (current_date -
df['Kelgan_sana']).dt.days
print(df)
def save_to_excel(dataframe, file_name):
    dataframe.to_excel(file_name, index=False)
    print(f"Data saved to {file_name}")
# Farazdagi birinchi faylga saqlash
save_to_excel(df, 'guruhlangan_data3.xlsx')


```

2.5-jadval. Yangi xususiyat hosil qilingan dataset

| ID | Nomi | Shartnoma nomer | Taminotchi korxonasi | Narxi | Kelgan mahsulot soni | Sotilgan mahsulot soni | Muddati oy | Qolgan mahsulotlar soni | Sotilgan mahsulotlar narxi | Mahsulot kelganiga qancha vaqt |
|----|----------|-----------------|----------------------|-------|----------------------|------------------------|------------|-------------------------|----------------------------|--------------------------------|
| 0 | Pepsi | 3434 | Pepsi MCHJ | 15000 | 240 | 85 | 12 | 155 | 1275000 | 0 |
| 1 | Fanta | 5322 | CocaCo a MCHJ | 14000 | 180 | 50 | 12 | 130 | 700000 | 1 |
| 2 | Sprite | 2434 | Pepsi MCHJ | 16000 | 120 | 40 | 12 | 80 | 640000 | 1 |
| 3 | CocaCola | 2133 | CocaCola MCHJ | 15000 | 240 | 105 | 12 | 135 | 1575000 | 2 |
| 4 | Lipton | 6432 | CocaCola MCHJ | 10000 | 60 | 15 | 12 | 45 | 150000 | 4 |
| 5 | FuseTea | 3210 | Pepsi MCHJ | 9000 | 60 | 20 | 12 | 40 | 180000 | 9 |

Yuqoridagi jadvalda bizga kerakli uchta yangi xususiyatni hosil qilib oldik.

Klasterlash. Guruhdagi obyektlar bir-biriga o'xshash (bog'langan) va boshqa guruhlardagi obyektlardan farqli (bog'liq bo'lmagan) ekanligini bildiruvchi kattalik yoki alohida belgilar orqali obyektlar guruhlarini topish. Klasterlash usuli yordamida bir nechta sinflarga ajratib olish mumkin. Misol: aralash turdagi mevalarni (olma, behi va o'rik) alohida qutilarga joylashtirish kerak bo'lsa, bunda har bir meva turini sinflarga ajratib ularni alohida qutilarga joylashtirish imkoniyatini beradi.



2.2.6-rasm. Klasterlash

Ma'lumotlarni tozalash (Data cleaning)

Ma'lumotlarni tozalash yoki ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash (data cleaning) - bu ma'lumotlar to'plamini tahlil va modellashtirish uchun toza va ishonchli holatga keltirish jarayonidir. Ushbu jarayon ma'lumotlarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan xatolar, bo'sh qiymatlar va boshqa muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

Elatma: u raqamli qiymatlarning asl taqsimotiga ta'sir qilishi mumkin.

Yo'qolgan qiymatlarni boshqarish. Qiymatlarni almashtirish.

– O'rtacha/median rejimdan foydalanish.

– Mavjud qiymatlarning ehtimollik taqsimotidan foydalanib, yetishmayotgan qiymatlarni hisoblash.

– Ma'lumotlarni segmentatsiyalash va har bir segmentning o'rtacha/median rejimidan foydalanish.

– Ma'lumotlarni segmentatsiyalash va segment ichida ehtimollik taqsimotidan foydalanish.

– Yetishmayotgan qiymatlarni hisoblash uchun tasniflash/regressiya modelini yaratish.

Misol: ma'lumotlar to'plamidagi, yo'q ma'lumotlarni hosil qilishni ko'rib chiqamiz. Bunda birinchi navbatda dataset hosil qilib olamiz.

```
import pandas as pd
import numpy as np
data = {
```

```

'Gruh_ID': [101, 102, np.nan, 103],
'Ism': ['Jasur', 'Fayzullo', 'Sunnatillo',
'Xurshid'],
'Fan': ['Matematika', 'Ingliz_tili', 'Fizika',
'Rus_tili'],
'Modeli': [np.nan, 95, 80, 88],
'Reytingi': [2, 1, 4, 3],
'Baho': ['A', 'C', 'B', 'D'] }
df = pd.DataFrame(data)
print("Ma'lumotlar")
print(df)

```

```

Gruh_ID    Ism    Fan    Modeli    Reytingi    Baho
0    101.0    Jasur    Ingliz_tili    80.0    4    A
1    102.0    Fayzullo    Ingliz_tili    95.0    1    C
2    103.0    Xurshid    Rus_tili    88.0    3    B
3    104.0    Sunnatillo    Rus_tili    88.0    4    D

```

Ma'lumotlarni tozalash yordamida kerakli dataset hosil qilib olinadi.

```

df_cleaned = df.dropna()
print("\n Qiymatlari yo'q bo'lgan qatorlarni olib
tashlaganingindan so'ng DataFrame:")
print(df_cleaned)

Qiymatlari yo'q bo'lgan qatorlarni olib tashlagachin keyingi
dataset

```

```

   Gruh_ID    Ism    Fan    Modeli    Reytingi    Baho
0    102.0    Fayzullo    Ingliz_tili    95.0    1    C
1    103.0    Xurshid    Rus_tili    88.0    3    B

```

Ma'lumotlarni to'ldirishda - hosil qilingan datasetdagi yetishmayotgan qiymatlarni o'rtacha qiymat bilan to'ldirib amalga oshiriladi. Bunda datasetdagi barcha qiymatlar yig'indisi hisoblanib, soniga bo'lib o'rtacha qiymat hosil qilib olinadi.

```

mean_imputation =
df['Gruh_ID'].fillna(df['Gruh_ID'].mean())
mean_imputation2 =
df['Modeli'].fillna(df['Modeli'].mean())
print("\nO'rtacha yordamida Gruh_Id hisoblash:")
print(mean_imputation)
print("\nO'rtacha yordamida Modeli hisoblash:")
print(mean_imputation2)

```

```

O'rtacha qiymat topish yordamida Gruh_Id sini hisoblash:
0 101.0
1 102.0
2 102.0
3 103.0
O'rtacha qiymat yordamida Modeli hisoblash:
0 87.666667
1 95.000000
2 80.000000
3 88.000000

```

Keyingi holatda datasetdagi yetishmayotgan qiymatlarni median usuli yordamida hisoblashlarni amalga oshiramiz . Bunda dataset soniga nisbatan qaraladi. Agar dataset soni toq bo'lsa [np.nan, 95, 80, 88], o'sish tartibida joylashtirib olamiz [np.nan, 95, 88, 80] va o'rtacha qiymatini topib np.nan o'rniga to'ldiramiz [88, 95, 80, 88].

```

median_imputation =
df['Gruh_ID'].fillna(df['Gruh_ID'].median())
median_imputation2 =
df['Modeli'].fillna(df['Modeli'].median())
print("\nMedian yordamida Gruh_id hisoblash:")
print(median_imputation)
print("\nMedian yordamida Modeli hisoblash:")
print(median_imputation2)
Median yordamida Gruh_id hisoblash:
0 101.0
1 102.0
2 102.0
3 103.0
Median yordamida Modeli hisoblash:
0 88.0
1 95.0
2 80.0
3 88.0

```

Keltirilgan misollar yordamida datasetdagi nol ya'ni bo'sh ma'lumot joylarini o'rtacha va median qiymatlarni hisoblash natijasida to'ldirib olish jarayonini ko'rib chiqdik. Qaysi hisoblash usulidan foydalanish obyektidagi muammodan kelib chiqib tanlanadi.

Qiymatlarni diskretlashtirish. Diskretlashtirish - uzluksiz atributni tartibli atributga aylantirish jarayoni hisoblanadi va quyidagi hollarda qo'llaniladi.

Potensial cheksiz sonli qiymatlar oz sonli toifalarga ajratiladi.

Tasniflashda diskretizatsiya qo'llaniladi.

Ko'pgina tasniflash algoritmlari, agar mustaqil va bog'liq o'zgaruvchilar bir nechta qiymatlarga ega bo'lsa, diskretlash samarali hisoblanadi.

Miqdoriy atributlarni diskretlash. Har bir qiymat o'zi tegishli bo'lgan interval bilan almashtiriladi. Quyida miqdoriy atributlarni diskretlashni amalga oshiramiz.

```
data = {
    'yoshi': [12, 50, 20, 36, 14, 21, 45, 60],
    'vazni': [38, 62, 60, 85, 40, 56, 75, 80],
    'daromadi': [50000, 15000000, 9000000, 28000000, 500000, 18000000,
                24000000, 31000000] }

import pandas as pd
import numpy as np
# DataSet ma'lumotlar bilan DataSet yaratish
data = {
    'yoshi': [12, 50, 20, 36, 14, 21, 45, 60],
    'vazni': [38, 62, 60, 85, 40, 56, 75, 80],
    'daromadi': [50000, 15000000, 9000000, 28000000, 500000,
                18000000, 24000000, 31000000] ;
df = pd.DataFrame(data)
# Balandlik uchun sinf va teglarni belgilash
yosh_bins = [0, 16, 36, 70, np.inf]
yosh_labels = ['0-16', '17-36', '37-70', '>70']
df['Yosh Guruhlari'] = pd.cut(df['yoshi'], bins=yosh_bins,
                              labels=yosh_labels)
# Oq'irlik uchun sinflar va teglarni belgilash
vazn_bins = [0, 40, 60, 80, np.inf]
vazn_labels = ['0-40kg', '41-60kg', '61-80kg', '>80kg']
df['Vazn Guruhlari'] = pd.cut(df['vazni'], bins=vazn_bins,
                              labels=vazn_labels)
# Daromad uchun sinflar va teglarni belgilash
daromad_bins = [0, 10000000, 20000000, 25000000, 30000000,
                np.inf]
daromad_labels = ['0-10mln', '11-20mln', '21-25mln', '26-
30mln', '>30mln']
df['Daromad Guruhlari'] = pd.cut(df['daromadi'],
                                 bins=daromad_bins, labels=daromad_labels)
print(df)
# DataSet-ni Excelga saqlash funksiyasi
def save_to_excel(dataframe, file_name):
```

```

dataframe.to_excel(file_name, index=False)
print(f"Data saved to {file_name}")
# Datasetni Excel fayliga saqlash
save_to_excel(df, 'guruhlangan_data.xlsx')

```

2.6-jadval. Datasetni diskretlash

| yoshi | vazni | daromadi | Yosh Guruhlari | Vazn Guruhlari | Daromad Guruhlari |
|-------|-------|----------|----------------|----------------|-------------------|
| 12 | 38 | 50000 | 0-16 | 0-40kg | 0-10mln |
| 50 | 62 | 15000000 | 37-70 | 61-80kg | 11-20mln |
| 20 | 60 | 9000000 | 17-36 | 41-60kg | 0-10mln |
| 36 | 85 | 28000000 | 17-36 | >80kg | 26-30mln |
| 14 | 40 | 500000 | 0-16 | 0-40kg | 0-10mln |
| 21 | 56 | 18000000 | 17-36 | 41-60kg | 11-20mln |
| 45 | 75 | 24000000 | 37-70 | 61-80kg | 21-25mln |
| 60 | 80 | 31000000 | 37-70 | 61-80kg | >30mln |

Dasturiy algoritm asosida guruhlangan diskret ma'lumot hosil bo'ladi.

Qiymatlarni tabiiy bog'lash (Data binning) - bu kichik kuzatuv xatolarining ta'sirini kamaytirish va katta ma'lumotlar to'plamlarini tahlil qilishni soddalashtirish uchun ishlatiladigan kerakli ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash usuli. Boshqacha qilib aytganda qiymatlarni tartiblash, qiymatlar diapazonini bir xil o'lchamdagi k-sinflarga bo'lish. Ma'lumotlarning asl qiymatlari sinflar deb nomlanuvchi kichik intervallarga bo'linadi va keyin ular o'sha sinf uchun hisoblangan umumiy qiyamat bilan almashtiriladi. Bu kiritilgan ma'lumotlarga ortiqcha ta'sir qiluvchi tebranishlarni kamaytiradi va kichik ma'lumotlar to'plamining moslashish ehtimolini oldini oladi.

Ma'lumotlarni sinflarga bo'lishning 2 usuli mavjud:

1. **Teng chastotali bog'lash (Binning):** ajratilgan sinflar teng chastotaga ega. Misol uchun bizga quyidagicha ma'lumot berilgan bo'lsin. Bunda k-sinflar sonini ixtiyoriy tanlaymiz: $k = 4$

$X = [1, 8, 23, 40, 61, 66, 75, 90, 100, 123, 156, 190, 220, 250, 276, 290]$

$$\sigma = \frac{N}{k}$$


N – kiruvchi ma'lumot uzunligi, k – sinflar soni, σ – xosil qilingan sinf chastotasi.

```

# Teng chastotali bog'lash
def tengchastota(arr1, k):
    N = len(arr1)
    sigma = int(N/k)
    for i in range(0, k):
        arr = []
        for j in range(i * sigma, (i + 1) * sigma):
            if j >= N:
                break
            arr = arr + [arr1[j]]
        print(arr)
# data to be binned
data = [1, 8, 23, 40, 61, 66, 75, 90, 100, 123, 156, 190, 220, 250, 276, 290]
# sinf
k = 4
print("tengchastotali bog'lanish")
tengchastota(data, k)

```

Yuqoridagi dastur orqali olingan natija quyidagicha:



2.2.7-rasm. Teng chastotali bog'lash

2. Teng masshtabda joylashtirish. Bunda sinflarning masshtabi bir-biriga teng bo'ladi.

$$x_j \in [x_{min} + i\delta, x_{min} + (i+1)\delta)$$

δ – sinf masshtabi, x_j - sinf elementi.

$$\delta = \frac{x_{max} - x_{min}}{k}$$

```

# tengmasshtab
def tengmasshtab(arr1, k):
    a = len(arr1)
    delta = int((max(arr1) - min(arr1)) / k)
    min1 = min(arr1)

```

```

arr = []
for i in range(0, k + 1):
    arr = arr + [min1 + delta * i]
arri=[]

for i in range(0, k):
    temp = []
    for j in arri:
        if j >= arr[i] and j <= arr[i+1]:
            temp += [j]
    arri += [temp]
print(arri)
# kiruvchi ma'lumot
data = [1, 8, 23, 40, 61, 66, 75, 90, 100, 123, 156, 190, 220, 250, 276, 290]
# sinf
k = 4
print("teng masshtabli bog'lanish")
tengmashtab(data, k)


```

Yuqoridagi dastur orqali olingan natija quyidagicha:

```

teng masshtabli bog'lanish
[[1, 8, 23, 40, 61, 66], [75, 90, 100, 123], [156, 190], [220, 250, 276]]

```



2.2.8-rasm. Teng masshtabli bog'lash

Ma'lumotlarni siqish (data compression)

Ma'lumotlarni siqish (data compression) – ma'lumot hajmini kamaytirish uchun ishlatiladigan jarayon bo'lib, bu jarayon ma'lumotlarni samarali saqlash, uzatish va qayta ishlashga yordam beradi. Ma'lumotlarni siqish ko'pincha disk maydoni yoki tarmoqli kenglikni

tejjash, uzatish va saqlash xarajatlarini kamaytirish uchun qo'llaniladi. Ma'lumotlarni siqish ikki asosiy turga bo'linadi: yo'qotishli (lossy) va yo'qotishsiz (lossless) siqish.

Yo'qotishli siqish (Lossy Compression):

Yo'qotishli siqish usullari ma'lumotlar hajmini katta miqdorda kamaytirishga imkon beradi, lekin ma'lumotlarning ba'zi qismini yo'qotadi. Bu turdagi siqish, masalan, rasmlar (JPG), videolar va audio (MP3) fayllar kabi multimediyaga ma'lumotlarida keng qo'llaniladi.

- Bu usullar ba'zi ma'lumotlarni yo'qotadi, lekin ko'pincha inson ko'zi va quloqlari uchun bu yo'qotish sezilmaydi.

Yo'qotishsiz siqish (Lossless Compression):

Yo'qotishsiz siqish usullari ma'lumotlarni hajmini kamaytiradi, lekin asl ma'lumotlarni butunlay qayta tiklash imkonini beradi. Bu turdagi siqish matnli ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar uchun keng qo'llaniladi.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun ma'lumotlarni siqish yoki kichik hajmga keltirib olish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mashinali o'qitishning bir nechta usullari, ayniqsa k-means clustering algoritmlari xususiyatini saqlab qolgan holda ma'lumotlarni siqishda keng foydalanilmoqda. Neyron tarmoqlarni o'qitishda esa CNN-larning konvolyutsion qatlami ma'lumotlarni siqishni amalga oshiradi. Bundan tashqari tasvirlarni siqishda hozirda veyvlet usullari keng qo'llanilmoqda.

Ma'lumotlarni almashinish jarayonlarida esa ma'lumotlarni siqishda quyidagilardan foydalaniladi:

- ZIP va RAR: Foydalanuvchi fayllarini siqish uchun mashhur formatlar. Ushbu formatlar ma'lumotlarni yo'qotishsiz siqadi.


- Huffman kodlash: Ushbu algoritm ma'lumotlar ichida takrorlanadigan elementlarni kodlash uchun foydalaniladi.

2.2.2 Ma'lumotlarni qidirish algoritmlari (Data search)

Qidiruv algoritmlari sun'iy intellektning eng muhim sohalaridan biridir. Sun'iy intellektda qidiruv algoritmlari muammoni hal qilishning universal usullaridir. Ratsional agentlar yoki sun'iy intellektdagi muammolarni hal qiluvchi agentlar asosan ma'lum bir muammoni hal qilish va eng yaxshi natijani ta'minlash uchun ushbu qidiruv strategiyalari yoki algoritmlaridan foydalanadi. Qidiruv algoritmlari tushunarli bo'lishi uchun birinchi navbatda chiziqli qidiruv algoritmini keltirib o'tamiz.

Chiziqli qidiruv-berilgan ma'lumotlarning bir chetidan boshlanadigan va kerakli element topilgunga qadar ro'yxatning har bir elementi bo'ylab o'tadigan ketma-ket qidiruv algoritmi sifatida aniqlanadi, aks holda qidiruv ma'lumotlar to'plamining oxirigacha davom etadi. Har bir element kalit uchun potentsial moslik sifatida qaraladi va bir xilligi tekshiriladi. Agar kalitga teng element topilsa, qidiruv muvaffaqiyatli bo'ladi va ushbu elementning indeksi qaytariladi. Agar kalitga teng bo'lgan element topilmasa, qidiruv "Hech qanday moslik topilmadi" deb javob qaytaradi.

Elementni qidirish




2.2.9-rasm. Chiziqli qidiruv algoritmi


Masalan: $arr[] = \{10, 50, 30, 70, 80, 20, 90, 40\}$ va kalit = 30 massivni ko'rib chiqamiz.

1-qadam: Birinchi elementdan boshlang (indeks 0) va massivni har bir element bilan solishtiramiz ($arr[i]$).


Massiv $arr[0]$ birinchi elementi bilan solishtirish. Teng bo'lmagani uchun iterator potentsial moslik sifatida keyingi elementga o'tadi.



Massiv keyingi element bilan solishtirish arr[1]. Teng bo‘lmagani uchun iterator potentsial moslik sifatida keyingi elementga o‘tadi.



2-qadam: Endi arr [2] ni arr[1] bilan solishtirganda qiymat mos keladi.




2.2.10-rasm. Chiziqli qidiruv algoritmi asosida kerakli qiymatni topish

Shunday qilib, chiziqli qidiruv algoritmi massivning qiymatini to‘g‘ri topgani aniq bo‘ladi va massiv topilganda element indeksini saqlab qoladi.

Axborotsiz va axborotli qidiruv algoritmlari

Ma'lumotlarning xususiyatlari va muammolari asosida qidiruv algoritmlarining axborotsiz va axborotli turlari mavjud.



2.2.11-rasm. Axborotsiz va axborotli qidiruv algoritmlari strukturasi

Axborotsiz qidiruv – o'zining maydoni haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan holda qidirishni amalga oshiradi, shuning uchun u ko'r-ko'rona qidiruv deb ham ataladi. U maqsad tuguniga erishgunga qadar daraxtning har bir tugunini tekshiradi. Uni quyidagi asosiy turga bo'lish mumkin:

Kenglik-birinchi qidiruv(*Breadth First Search*)

Chuqurlik birinchi qidiruv(*Depth first search*)


Chuqurlik bilan cheklangan qidiruv(*Depth-limited search*)

Takroriy chuqurlashtirish chuqurlik - birinchi qidiruv(*Iterative deepening depth-first Search*)

Yagona xatolik qidiruv(*Uniform Cost Search*)

Ikki tomonlama qidiruv (*Bidirectional Search*)


Kenglik-birinchi qidiruv (*Breadth First Search* yoki *BFS*) – bu qidiruv daraxt yoki grafikni kesib o'tish uchun eng keng tarqalgan qidiruv strategiyasi. Ushbu algoritm daraxt yoki grafikda kenglik bo'yicha qidiradi, shuning uchun u kenglik bo'yicha birinchi qidiruv deb ataladi. BFS algoritmi daraxtning ildiz tugunidan qidirishni boshlaydi va keyingi darajadagi tugunlarga o'tishdan oldin joriy darajadagi barcha voris tugunni kengaytiradi. Agar yechim ildiz tugunidan uzoqda bo'lsa kenglik birinchi qidiruv ko'p vaqt talab qiladi. Quyidagi daraxt tuzilmasida biz daraxtning BFS algoritmi yordamida S ildiz tugunidan maqsad tuguniga K o'tishini ko'rib o'tamiz. BFS qidiruv algoritmi qatlamlar bo'ylab o'tadi, shuning uchun u nuqtali strelka bilan ko'rsatilgan yo'ldan boradi va bosib o'tgan yo'l quyidagicha bo'ladi:



2.2.12-rasm. Kenglik-birinchi qidiruv strukturasi

Chuqurlikdagi birinchi qidiruv (*Depth first search* yoki *DFS*) - bu daraxt yoki grafik ma'lumotlar strukturasi kesib o'tish uchun rekursiv algoritm. U chuqurlikdagi birinchi qidiruv deb ataladi, chunki u ildiz tugunidan boshlanadi va keyingi yo'lga o'tishdan oldin har bir yo'lni eng katta chuqurlik tuguniga qidirib boradi. DFS uni amalga oshirish uchun stek

ma'lumotlar strukturasiidan foydalanadi. DFS algoritmining jarayoni BFS algoritmiga o'xshaydi.




2.2.13-rasm. Chuqurlikdagi birinchi qidiruv

Chuqurlik bilan cheklangan qidiruv (*Depth-limited search*) - algoritmi oldindan belgilangan chegara bilan chuqurlikdagi birinchi qidiruvga o'xshaydi. Chuqurlik bilan cheklangan qidiruv, birinchi uchragan chuqurlikdagi yo'lning kamchiliklarini hal qilishi mumkin. Ushbu algoritmda chuqurlik chegarasidagi tugunga ishlov beriladi, chunki uning keyingi tugunlari yo'q. Chuqurlik bilan cheklangan qidiruv ikkita muvaffaqiyatsizlik holati bilan tugatilishi mumkin:

Standart nosozlik qiymati: bu muammoning yechimi yo'qligini ko'rsatadi.

Chiqib ketish nosozlik qiymati: u berilgan chuqurlik chegarasida muammoning yechimini aniqlamaydi.



2.2.14-rasm. Chuqurlik bilan cheklangan qidiruv


Agar yechim chuqurlik chegarasidan yuqori bo'lsa, DLS qidiruv algoritmi to'liq hisoblanadi.

DLS algoritmining vaqt murakkabligi $O(b^l)$.

DLS algoritmining fazoviy murakkabligi $O(b \times l)$ dir.


Chuqurlik bilan cheklangan qidiruvni DFSning alohida holati sifatida ko'rish mumkin va $u \leq d$ bo'lsa ham optimal emas.

Takroriy chuqurlashtirish chuqurlik-birinchi qidiruv. (*Iterative deepening depth-first Search*) Iterativ chuqurlashtirish algoritmi DFS va BFS algoritmlarining birikmasidir. Ushbu qidiruv algoritmi eng yaxshi chuqurlik chegarasini topadi va maqsadga erishmaguncha ittaratsiyani bosqichma-bosqich oshirish orqali amalga oshiradi. Ushbu algoritm ma'lum bir "Chuqurlik chegarasi" gacha chuqurlikdan birinchi bo'lib qidirishni amalga oshiradi va maqsad tugun topilmaguncha, har bir iteratsiyadan keyin chuqurlik chegarasini oshirishda davom etadi. Ushbu qidiruv algoritmi kenglik-birinchi qidiruvning tezkor qidiruvi va chuqurlik-birinchi qidiruvning xotira samaradorligi afzalliklarini birlashtiradi. Takroriy qidiruv algoritmi qidiruv maydoni katta bo'lsa va maqsad tugunining chuqurligi noma'lum bo'lsa, axborotsiz qidiruv uchun foydalidir.




2.2.15-rasm. Chuqurlik bo'yicha qidiruv

Yagona xatolikni qidirish (*Uniform Cost Search* yoki *UCS*) - bu vaznli daraxt yoki grafikni kesib o'tish uchun ishlatiladigan qidiruv algoritmi. Ushbu algoritm har bir chekka qidiruv uchun har xil xatolik mavjud bo'lganda kuchga kiradi. Yagona xatolikni qidirishning asosiy maqsadi eng kam umumiy xatolikka ega bo'lgan maqsad tuguniga yo'l topishdir. Yagona xatolik qidiruvi tugunlarini ildiz tugunini tashkil etadigan yo'l xatoliklariga qarab kengaytiradi. U optimal xatolik talab qilinadigan har qanday graf ma'lumotlar tuzilmasini hal qilish uchun ishlatilishi mumkin. Bu qidiruvda qancha qadamlar borligiga ahamiyat bermaydi va faqat xatolikni kamaytirishga intiladi. Shu sababli, bu algoritm cheksiz siklga aylanib qolishi mumkin.



2.2.16-rasm. Yagona xatolikni qidirish strukturasi

Ikki tomonlama qidiruv (*Bidirectional Search*). Bir vaqtning o'zida ikkita qidiruvni amalga oshiradi, birinchisi shaklning boshlang'ich holati oldinga qidiruv deb ataladi, ikkinchisi esa maqsad tugunini topish uchun orqaga qidiruv deb ataladi. Ikki tomonlama qidiruv bitta qidiruv grafigini ikkita kichik pastki grafik bilan almashtiradi, ulardan biri qidiruvni boshlang'ich cho'qqidan, ikkinchisi esa maqsad cho'qqisidan boshlanadi. Ushbu ikki grafik bir-birini kesib o'tganda qidiruv to'xtaydi. Ikki tomonlama qidiruv BFS, DFS, DLS va boshqalar kabi qidiruv usullaridan foydalanishi mumkin.



2.2.17-rasm. Ikki yo'nalishli qidiruv algoritmalmas

Quyidagi qidiruv daraxtida ikki tomonlama qidiruv algoritmi qo'llaniladi. Bu algoritm bitta graf ma'lumotlar tuzilmasini, ikkita kichik grafga ajratadi. U 1-tugundan oldinga yo'nalishda o'tishni boshlaydi va orqaga yo'nalishda 16-tugundan boshlanadi. Algoritm ikkita qidiruv uchrashadigan 9-tugunda tugaydi.

Axborotlashtirilgan qidiruv algoritmlari

Axborotli qidiruv algoritmi katta qidiruv maydoni uchun foydaliroqdir. Axborotlashtirilgan qidiruv algoritmi evristik g'oyadan foydalanadi, shuning uchun uni evristik qidiruv deb ham ataladi.

Evristik qidiruv - bu axborotlashtirilgan qidiruvda qo'llaniladigan algoritm bo'lib, u eng yaqin qidiruv yo'lni topadi. U agentning joriy holatini kirish sifatida qabul qiladi va agentning maqsadga qanchalik yaqin

ekanligi haqidagi taxmini ishlab chiqadi. Biroq, evristik usul har doim ham eng yaxshi yechimni bermasligi mumkin, ammo u kam vaqt ichida yaxshi yechim topishni amalga oshiradi. Evristik qidiruvda, evristik funksiya holatning maqsadga qanchalik yaqinligini baholaydi. Evristik funksiyaning qiymati har doim ijobiy bo'ladi.

Evristik funksiya quyidagicha ifodalanadi.

$$h(n) \leq h^*(n)$$

Bu yerda $h(n)$ evristik qidiruv qiymati, $h^*(n)$ esa taxminiy qiymat. Demak, evristik qiymat taxminiy qiymatidan kichik yoki unga teng bo'lishi kerak.

Sof evristik qidiruv - evristik qidiruv algoritmlarining eng oddiy shaklidir. U $h(n)$ evristik qiymati asosida tugunlarni kengaytiradi. U ikkita ro'yxatni o'z ichiga oladi. OCHIQ va YOPIQ ro'yxat. OCHIQ ro'yxatida kengaytirilgan tugunlarni va YOPIQ ro'yxatida hali kengaytirilmagan tugunlarni joylashtiradi. Har bir iteratsiyada eng past evristik qiymatga ega har bir n tugun kengaytiriladi va uning barcha vorislarini hosil qiladi va n yopiq ro'yxatga joylashtiriladi. Axborotli qidiruvda biz quyida keltirilgan ikkita asosiy algoritmi o'rganib chiqamiz:

Eng yaxshi birinchi qidiruv algoritmi

A* Qidiruv algoritmi

Eng yaxshi birinchi qidiruv algoritmi:

1-qadam. Boshlang'ich tugun OCHIQ ro'yxatga joylashtiriladi.

2-qadam. Agar OCHIQ ro'yxati bo'sh bo'lsa to'xtatadi va ortga qaytaradi.

3-qadam. $h(n)$ ning eng past qiymatiga ega bo'lgan OCHIQ ro'yxatidan n tugunini olib tashlanadi va uni YOPIQ ro'yxatiga joylashtiriladi.

4-qadam. n tugunini kengaytiradi va n tugunining vorislarini yaratadi.

5-qadam. n tugunining har bir davomchisini tekshiradi va har qanday tugun maqsad tugunmi yoki yo'qligini aniqlaydi. Agar biron bir voris tugun maqsad tugun bo'lsa natijaga erishadi va qidiruvni to'xtatadi, aks holda 6-bosqichga o'tadi.

6-qadam. Har bir voris tugun uchun algoritm $f(n)$ baholash funksiyasini tekshiradi, so'ngra tugun OCHIQ yoki YOPIQ ro'yxatda bo'lganligini tekshiradi. Agar tugun ikkala ro'yxatda bo'lmagan bo'lsa, uni OCHIQ ro'yxatiga qo'shadi.

2) **A* Qidiruv algoritmi.** A* qidiruvi eng yaxshi birinchi qidiruvning keng tarqalgan ko'rinishidir. U $h(n)$ evristik funksiyasidan va $g(n)$ boshlang'ich holatidan n tuguniga yetib borish qiymatidan foydalanadi. U UCS va chuqurlik eng yaxshi birinchi qidiruv xususiyatlarini birlashtirgan bo'lib, ular yordamida muammoni samarali hal qiladi. A* qidiruv algoritmi evristik funksiyadan foydalangan holda qidiruv maydoni bo'ylab eng qisqa yo'lni topadi. Ushbu qidiruv algoritmi kamroq qidiruv daraxtini kengaytiradi va optimal natijani tezroq beradi. A* algoritmi UCS ga o'xshaydi, faqat u $g(n)$ o'rniga $g(n)+h(n)$ dan foydalanadi.

A* qidiruv algoritmidan biz qidiruv evristikasidan hamda tugunga yetib borish algoritmidan foydalanamiz. Shunday qilib, biz ikkala xatolikni quyidagi tarzda birlashtira olamiz va bu summa fitnes raqami deb ataladi.

A* qidiruv algoritmi:

OCHIQ ro'yxatiga boshlang'ich tugunni joylashtiradi.

OCHIQ ro'yxati bo'sh yoki yo'qligini tekshiradi, agar ro'yxat bo'sh bo'lsa, natijaga erishmaydi va to'xtaydi.

OCHIQ ro'yxatidan baholash funksiyasining eng kichik qiymatiga $(g+h)$ ega bo'lgan tugun tanlanadi, agar n tugun maqsad tugun bo'lsa, natijaga erishadi va itteratsiya to'xtaydi, aks holda N tuguni kengaytirilib va uning barcha vorislari yaratiladi hamda n yopiq ro'yxatga kiritiladi. Har bir n vorisi uchun, n ning OCHIQ yoki YOPIQ ro'yxatida ekanligi

tekshiriladi, agar bo'lmasa, n uchun baholash funksiyasi hisoblanadi va OCHIQ ro'yxatga joylashtiriladi. Aks holda, agar n tugun OCHIQ va YOPIQ bo'lsa, u eng past $g(n)$ qiymatini aks ettiruvchi ko'rsatkichga birlashtirishni talab etadi.

Nazorat savollari

1. Axborotsiz qidiruv qanday algoritim?
2. Axborotli qidiruv qanday algoritim?
3. Sof evristik qidiruv qanday algoritim?

2.1-bo'lim bo'yicha amaliy qism

2.1-bo'lim bo'yicha amaliy qism quyidagi mavzular bo'yicha keltirilgan. Bunda keltirilgan havola yoki QR kodni skaner qilish orqali GitHubga murojat qilib dasturiy koddan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

<https://github.com/TUITAI/>



2.3. Bilimlar bazasi

Bilim - axborot yoki ma'lumotlar obyektlari o'rtasidagi aniq funksional aloqadir. Ma'lumotlar, axborotlar va bilimlar bir-biriga bog'liq tushunchalar bo'lib, faktlar va kuzatishlarni tushunish va izohlash jarayonining turli bosqichlarini ifodalaydi. Ayniqsa ular bilimlar bazasini shakllantirishda bir-biriga uzviy bog'liq holda qo'llaniladi.

Axborot - bu ma'no va kontekstni beradigan tarzda tashkil etilgan, tuzilgan yoki qayta ishlangan ma'lumotlar. Axborot - bu aniq savollarga javob berish yoki tushuncha berish uchun talqin qilingan ma'lumotlar.


Misol uchun, kunlik haroratlar ro'yxatidan hisoblangan o'rtacha harorat axborotdir. Xuddi shunday, sotib olish xatti-harakatlaridagi xususiyatlarni ochib beradigan mijozlar xaridlarining qisqacha mazmuni axborotdir.

Ma'lumotlar - bu xom, qayta ishlanmagan faktlar yoki kuzatishlarni anglatadi. Bu axborot va bilimlar quriladigan poydevordir. Ma'lumotlar sifatli yoki miqdoriy bo'lishi mumkin va foydali bo'lishi uchun tartibga solinishi va qayta ishlanishi kerak bo'lgan raqamlar, xususiyatlar, belgilar, tasvirlar, tovushlar yoki boshqa kiritish shakllarini o'z ichiga olishi mumkin.

Ma'lumotga misol: ma'lum vaqt davomida qayd etilgan haroratlar ro'yxati, mijozlar xaridlari yozuvlari yoki kameradan olingan tasvirlar to'plami.

Bilim - bu inson tushunchasi, talqini va tajribasini o'zida mujassamlashtirgan holda axborotdan tashqariga chiqadi. Bilim ko'pincha ma'lum sohalar, fanlar yoki tajribalar kontekstida sintez qilingan va tushunilgan ma'lumotlar to'plami sifatida ko'riladi. Bu ma'lum bir sohada muammolarni hal qilish, qarorlar qabul qilish va tushunchalarni shakllantirish uchun ma'lumot va axborotlarni samarali qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Masalan, meteorolog ob-havoni bashorat qilish va ogohlantirishlar berish uchun ob-havo sharoitlari va turli manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalanadi.



2.3.1-rasm. Ma'lumot, Axborot, Bilim

Ma'lumot, axborot va bilimga quyidagicha misol keltiramiz.

| | |
|---------------------------------------------------------------------|-----------|
| 5°C | ma'lumot. |
| Tashqari sovuq | axborot. |
| Tashqarida sovuq va sovuq bo'lsa, siz issiq palto kiyishingiz kerak | bilim. |

Xulosa qilib aytganda, ma'lumotlar xomashyo, axborot ma'no va kontekstni ta'minlash uchun qayta ishlanadigan ma'lumotlar, bilim esa tushunish, o'rganish va qaror qabul qilish uchun ma'lumotlarni sintez qilish va qo'llashdir. Ma'lumotlardan bilimga o'tish ko'pincha ma'lumotlar va ma'lumotlarning turli qismlarini tajriba bilan izohlash, tahlil qilish va birlashtirishni o'z ichiga oladi.

Bilim uchta turga bo'linadi:

- *Deklarativ bilim*: bizga narsalar haqida faktlarni aytib beradi.

Misol uchun, "Lampochka porlashi uchun elektr tokini talab qiladi" degan gap haqiqatan ham to'g'ri.

- *Protsessual bilim*: bilim olish uchun faktlardan foydalanishga asoslangan muqobil harakatlarni ta'minlaydi. Misol uchun, odam odatda

choynakni yoqishdan oldin ichidagi suv miqdorini tekshiradi; agar choynakda suv yetarli bo'lmasa, unda ko'proq qo'shiladi.

- *Meta-bilim*: bilim haqidagi bilimdir. Bu bizga mutaxassislar qaror qabul qilish uchun bilimlardan qanday foydalanishini tushunishga yordam beradi. Masalan, samolyotlar va poezdlar haqidagi bilim uzoq sayohatni rejalashtirishda foydali bo'lishi mumkin, piyodalar va velosipedlar haqidagi bilim esa qisqa sayohatni rejalashtirishda foydali bo'lishi mumkin.

Bilimga asoslangan tizimlar - bu ma'lum bilim sohalari bo'yicha mutaxassislarning ishiga taqlid qilish uchun mo'ljallangan kompyuter dasturlari.

Bilimlarga asoslangan tizimlar (BAT)ning oltita asosiy turi mavjud:

1. *Ekspert tizimlari*. Ekspert tizimlari miyaning yuqori darajadagi kognitiv funksiyalarini modellashtiradi. Ular inson mutaxassislarining qaror qabul qilish jarayoniga taqlid qilish uchun ishlatilishi mumkin. Ekspert tizimlari odatda insonning qaror qabul qilish jarayonini modellashtirish uchun ishlatiladi. Ekspert tizimlarida algoritmlar mavjud bo'lsa-da, bu algoritmlarning ko'pchiligi statik bo'ladi, ya'ni ular vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi. Bu tizim qanday ishlashiga ishonch hosil qilsada, bu ekspert tizimi tajribadan o'rganish uchun mo'ljallanmaganligini bildiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ekspert tizimlari ko'pincha BAT bilan sinonim sifatida tilga olinadi. Biroq, ekspert tizimlari shunchaki BAT toifasidir.

2. *Neyron tarmoqlar*. Neyron tarmoqlar esa miyani biologik darajada modellashtiradi. Miya ko'rish va nutqni aniqlash kabi belgilarni aniqlab olish vazifalarini bajarishga imkon beradi.

3. *Genetik algoritmlar*. Genetik algoritmlar murakkab masalalarning yechimlarini ishlab chiqish usulidir. Misol uchun, bunday usul millionlab mumkin bo'lgan yechimlar orasidan imtihonlarni rejalashtirish (xonalar,

talabalar, nazoratchilar va hatto jihozlar) muammosiga ko'plab yaxshi yechimlardan birini topish uchun ishlatilishi mumkin.

“Genetik” atamasi algoritmlarning xatti-harakatlarini anglatadi. Bunday vaziyatda xatti-harakatlar evolyutsiyada ishtirok etadigan biologik jarayonlarga juda o'xshaydi.

4. *Intellektual agentlar*. Aqlli agent, odatda uning maqsadi yoki umumiy vazifasi ko'rsatilgan ba'zi qarorlarni qabul qiladigan dasturdir.

Aksariyat agentlar orqa fonda ishlaydi (ya'ni ularni foydalanuvchi ko'rmaydi) va faqat o'z topilmalari haqida xabar berish uchun paydo bo'ladi. Agentlar ko'pincha o'rganish va o'z foydalanuvchilari nomidan tobora murakkab qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega. Eng oddiy agentlar shunchaki ma'lumotni olishadi, eng murakkablari esa qaror qabul qilish uchun deduktiv fikrlashni o'rganadilar va foydalanadilar.

5. *Data mining*. Data mining - bu ma'lumotlardagi ilgari noma'lum munosabatlarni aniqlash orqali bilimlarni kashf qilishni tavsiflash uchun ishlatiladigan atama. Data miningning klassik misollaridan biri supermarketlar ichidagi sotuvlarni tahlil qilish bilan bog'liq.

6. *Intellektual o'rgatuvchi tizimlari*. Kompyuterga asoslangan o'quv muhitiga qiziqish arzon narxlarda yuqori sifatli ta'limga bo'lgan talab bilan ortadi. Shu bilan birga, kompyuterlar arzonroq, kuchliroq va foydalanuvchilarga qulayroq bo'ladi. Ta'lim strategiyasini ma'lum bir talaba/foydalanuvchining o'ziga xos o'rganish uslubiga moslashtirish uchun murakkab uslubda javob beradigan muhit yaratish murakkab hisoblanadi. Repetitorlik tizimi aqlli bo'lishi uchun u talabning o'rganishiga ko'ra doimiy ravishda reaksiyaga kirishishi (o'rgatishi) kerak.

2.3.1. Bilimlarni ajratib olish

Bilimlarni ajratib olish - bu tartiblangan (relyatsion ma'lumotlar bazalari, XML) va tartiblanmagan (matn, hujjatlar, tasvirlar) manbalardan bilim yaratish. Olingan bilimlar mashinada o'qiladigan va mashina tomonidan talqin qilinadigan formatda bo'lishi kerak va bilimlarni xulosa chiqarishni osonlashtiradigan tarzda ifodalashi kerak. U uslubiy jihatdan axborotni ajratib olish (NLP) va ETL (ma'lumotlar ombori) ga o'xshash bo'lsa-da, asosiy mezon - ekstraksiya natijasi tuzilgan ma'lumotni yaratish yoki relyatsion sxemaga aylantirishdan tashqariga chiqadi. Bu mavjud rasmiy bilimlardan qayta foydalanishni (identifikatorlar yoki ontologiyalarni qayta ishlatish) yoki manba ma'lumotlariga asoslangan sxemani yaratishni talab qiladi. Bilimlarni ajratib olishning yana bir mashhur misoli Vikipediyaning tuzilgan ma'lumotlarga aylantirish, shuningdek, mavjud bilimlarni xaritalashdir. Bilimlarni ajratib olish va ma'lumotlarni amaliy bilimga aylantirish uchun turli usullardan foydalaniladi. Ushbu usullar mashinali o'qitish, tabiiy tilni qayta ishlash va boshqa ma'lumotlarni tahlil qilish usullarini o'z ichiga olishi mumkin. Bilimlarni ajratib olishning ba'zi umumiy usullarini keltirib o'tamiz:

Data mining usuli:

Data mining shakllar, munosabatlar yoki tushunchalarni aniqlash uchun katta ma'lumotlar to'plamini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Texnikalari - klasterlash, tasniflash, assotsiatsiya qoidalarini ajratib olish va anomalialarni aniqlash kiradi.

Misol: Talabalarning ikkita fanining umumiy o'zlashtirishini baholash.

```
Talaba = [  
  {"name": "Xurshid", "matematika": 92, "fizika": 94},  
  {"name": "Fayzullo", "matematika": 85, "fizika": 75},  
  {"name": "Jasur", "matematika": 50, "fizika": 70},  
  {"name": "Sunnatillo", "matematika": 60, "fizika": 85},  
  {"name": "Jahongir", "matematika": 75, "fizika": 65},]
```

```

def classify(matematika, fizika):
    if matematika >= 90 or fizika >= 90:
        return "1"
    elif matematika >= 70 and fizika >= 70:
        return "2"
    elif matematika >= 60 and fizika >= 60:
        return "3"
    else:
        return "Yiqildi"

results = []
for talaba in Talaba:
    name = talaba["name"]
    math = talaba["matematika"]
    fizika = talaba["fizika"]
    result = classify(math, fizika)
    talaba_result = {
        "name": name,
        "matematika": math,
        "fizika": fizika,
        "natija": result }
    results.append(talaba_result)
for result in results:
    print(f"Talaba: {result['name']}, Matematika: {result['matematika']}, Fizika: {result['fizika']}, Natija: {result['natija']}")

```

2.7-jadval. Data mining usulida ajratib olingan bilimlar jadvali

| Talaba | Matematika | Fizika | Natija |
|------------|------------|--------|---------|
| Xurshid | 92 | 94 | 5 |
| Fayzullo | 85 | 75 | 4 |
| Jasur | 50 | 70 | Yiqildi |
| Sunnatillo | 80 | 85 | 4 |
| Jahongir | 75 | 65 | 3 |

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) usuli:

NLP - bu AI sohasi bo'lib, u kompyuterlarga inson tilini tushunish va qayta ishlash imkonini beradi.

Texnikalari - nomini tanib olish, hissiyotlarni tahlil qilish, mavzuni modellashtirish va matnni umumlashtirishni o'z ichiga oladi.

Misol: Umumiy mavzular va his-tuyg'ularni aniqlash uchun mijozlar sharhlarini tahlil qilish.

Mashinali o'qitish usuli: mashinali o'qitish algoritmlari bashorat qilish, ma'lumotlarni tasniflash yoki xususiyatlarni aniqlash uchun ma'lumotlarga o'rgatilgan bo'lishi mumkin.

Texnikalari – o'qituvchili o'qitish (tasniflash va regressiya), o'qituvchisiz o'qitish (klasterlash va o'lchovlarni kamaytirish) va mustahkamlovchi o'qitish kiradi.

Misol: Tarixiy ma'lumotlarga asoslanib, mijozlarning ishlamay qolishini bashorat qilish uchun mashinali o'qitish modelidan foydalanish.

Ontologiya muhandisligi usuli: ontologiya muhandisligi ma'lum bir sohada bilimlarni ifodalash uchun tuzilgan tizimlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Texnikalari - sohadagi bilimlarini modellashtiruvchi ontologiyalarni yaratish uchun tushunchalar, munosabatlar va ierarxiyalarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

Misol: tibbiy tashxis va davolash usullarini ifodalash uchun ontologiyani yaratish.

Bilim grafiklari usuli: bilim grafiklari - bu obyektlar va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi ma'lumotlar tuzilmalari.

Texnikalari - ma'lumotlar manbalariga asoslangan grafiklarni qurish va tushunchalarni olish uchun grafik algoritmlaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Misol: Axborotni qidirishni osonlashtirish uchun kompaniyaning ichki bilimlar bazasi uchun bilimlar grafigini yaratish.

Qoidalarga asoslangan tizimlar usuli:

Qoidalarga asoslangan tizimlar qaror qabul qilish yoki ma'lumotlardan bilim olish uchun oldindan belgilangan qoidalardan foydalanadi.

Qoidalar odatda shartlar va harakatlarni ko'rsatib, "agar-u holda" formatida ifodalanadi.

Misol: noodatiy tarmoq faolligi kabi ma'lumotlardagi muayyan shartlarga asoslangan ogohlantirishlarni ishga tushiradigan tizim.

Matn tahlili: matn tahlili matnli ma'lumotlardan ma'lumotlarni tahlil qilish va ajratib olishni o'z ichiga oladi.

Texnikalari - kalit so'zlarni ajratib olish, hujjatlarni tasniflash va nomli obyektни tanib olishni o'z ichiga oladi.

Misol: huquqiy hujjatlar yoki yangiliklar maqolalaridan tegishli ma'lumotlarni olish.

Vizual tahlil: vizual tahlil foydalanuvchilarga murakkab ma'lumotlarni tushunishga yordam berish uchun ma'lumotlar vizualizatsiyasini tahliliy usullar bilan birlashtiradi.

Texnikalari - interaktiv vizualizatsiya, issiqlik xaritalari va asboblari paneli kiradi.

Misol: Savdo ma'lumotlaridagi tendentsiyalar va o'zgarishlarni aniqlash uchun vizualizatsiyadan foydalanish.

Ushbu usullar birlashtirilishi va muayyan sohalarga moslashtirilishi va ma'lumotlardan bilimlarni samarali ajratib olish uchun holatlardan foydalanishi mumkin. Usulni tanlash ma'lumotlar turiga, sohaga va bilim olish jarayonining maqsadlariga bog'liq.

2.3.2. Bilimlarni taqdim etish modellari

Bilimlarni taqdim etish modellari, bilimlarni aqlli tizimlar tomonidan tushunish, qayta ishlash va ulardan foydalanish uchun tizimlashtirish va ifodalash usullaridir. Turli xil modellar turli maqsadlarga xizmat qiladi va ularning har biri bilim va qo'llash turiga qarab o'zining kuchli va zaif tomonlariga ega. Bu yerda bilimlarni taqdim etishning to'rtta asosiy modeli keltirib o'tilgan:

freym model:

freymlar - stereotipli vaziyatlar, hodisalar yoki obyektlarni aks ettirish uchun ishlatiladigan ma'lumotlar tuzilmalari.

Freym haqida aniq ma'lumotni saqlaydigan yacheykalardan va shu slotlar uchun qiymatlarni ta'minlovchi to'ldirgichlardan iborat.

Freymlar meros mexanizmlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Misol: "Avtomobil" freymida "g'ildiraklar", "dvigatel turi" va "o'tirish hajmi" uchun bo'shliqlar bo'lishi mumkin, to'ldirgichlar har bir atribut uchun qiymatlarni belgilaydi.

| Slot nomi | Slot qiymati | Slot qiymatining turi |
|----------------|----------------------|-----------------------|
| Ism | Valiyev. V. V. | Belgilar qatori |
| Tug'ulgan yili | 01.01.1965 | Sana |
| Mutaxassislik | Huquqshunos. advokat | Belgilar qatori |
| yoshi | 59 | Protsedura |
| Bo'lim | Kadrlar bo'limi | Belgilar qatori |
| Ish haqi | 8000 | Raqam |
| Manzil | Uy manzili | freym |

2.3.1-rasm. Freym model


Produksion model:

Ishlab chiqarish tizimlari bilimlarni ifodalash uchun odatda "agar - keyin" iboralari ko'rinishidagi qoidalar to'plamidan foydalanadi.

"Agar" qismi bajarilishi kerak bo'lgan shartlarni, "keyin" qismi esa shartlar bajarilganda bajarilishi kerak bo'lgan harakatlarni belgilaydi.

Ishlab chiqarish tizimlari qaror qabul qilish va avtomatlashtirilgan fikrlash uchun foydalidir.

Misol: Tibbiy diagnostika bo'yicha ekspert tizimida "Agar bemorda yuqori isitma va toshmalar bo'lsa, qizamiq tashxisini qo'ying" degan qoida bo'lishi mumkin.



2.3.2-rasm. *Produksion model.*

Mantiqiy (logic) model: mantiqiy modellar bilimlarni ifodalash uchun rasmiy mantiqdan foydalanadi, masalan, taklif mantiqi yoki predikat mantiqi.

Ushbu modellar faktlar, munosabatlar va xulosalarni aniq ifodalash imkonini beradi.

Mantiqiy modellar ko'pincha bilim bazalari va ma'lumotlar bazalarida qo'llaniladi, bu ma'lumotlar bo'yicha so'rov va mulohaza yuritish imkonini beradi.


Misol: "Sokrat - inson" va "Barcha odamlar o'lgan" kabi mavjudotlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalash uchun predikat mantiqidan foydalanish "Sokrat - o'limli" kabi mantiqiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Semantik model. Semantik modellar sohadagi tushunchalar o'rtasidagi ma'no va munosabatlarni ifodalashga qaratilgan.

Bu semantik tarmoqlar, ontologiyalar yoki bilim grafiklarini o'z ichiga olishi mumkin.

Semantik modellar ierarxik tuzilmalar va RDF va OWL kabi rasmiy tillardan foydalangan holda tushunchalarning munosabatlari va ma'nolarini qo'lga kiritish va kodlash uchun mo'ljallangan.

Misol: Tibbiy sohaning ontologiyasi kasalliklar, simptomlar, davolash usullari va dorilar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashi mumkin.



2.3.3-rasm. Semantik model

Ushbu modellarning har biri o'zining afzalliklariga ega va turli xil bilimlarni namoyish qilish va ilovalar uchun mos keladi. Masalan, freymga asoslangan modellar obyektlar va ularning xususiyatlari to'g'risida tuzilgan ma'lumotlarni taqdim etishda samarali hisoblanadi. Mantiqiy modellar esa fikrlash va rasmiy xulosa chiqarish uchun juda mos keladi. Ishlab chiqarish tizimlari qaror qabul qilish qoidalarini ifodalash uchun foydalidir va semantik modellar tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Amalda, bu modellar birlashtirilishi yoki muayyan foydalanish holatlariga moslashtirilishi mumkin.

2.3.3. Noravshan bilim modellari

Noravshan to'plamlar murakkab nochiqli, noaniq obyektlarni modellashtirish va funksiyalarni approksimatsiyalashda keng qo'llaniladi. Noravshan modellashtirish g'oyasi shundan iboratki, obyekt parametrlari o'rtasidagi matematik bog'lanish odatda lingvistik qoidalarning atamalari bilan ifodalanuvchi sifatli munosabatlar bilan almashtirishdir.

Ehtimoliy fikrlash - bu bilimlarni ifodalash usuli bo'lib, bilimdagi noaniqlikni ko'rsatish uchun ehtimollik tushunchasini qo'llashdir. Ehtimoliy fikrlashda noaniqlikni hal qilish uchun ehtimollik nazariyasini mantiq bilan birlashtiriladi. Ehtimoliy fikrlashga quyidagi misollarni keltirish mumkin. Real vaqtda "Bugun yomg'ir yog'adi" va "Ikki jamoa yoki ikkita o'yinchi o'rtasidagi o'yin" kabi biror hodisani oldindan natijasini bashorat qilish. Bunda natijalar oldindan aniq emas shuning uchun ehtimollik asoslaridan foydalaniladi.

Ehtimollik - bu noaniq voqea sodir bo'lish ehtimoli sifatida belgilanishi mumkin. Bu voqea sodir bo'lish ehtimolining raqamli o'lchovidir. Ehtimollik qiymati har doim 0 dan 1 gacha bo'lib, bu ideal noaniqliklarni ifodalaydi.

1. $0 \leq P(A) \leq 1$, bu yerda $P(A)$ A hodisaning ehtimoli.
2. $P(A) = 0$, A hodisasida umumiy noaniqlikni ko'rsatadi.
3. $P(A) = 1$, A hodisasida to'liq aniqlikni ko'rsatadi.

Noaniq hodisa yuzaga kelish ehtimolligini quyidagi formuladan foydalanib topishimiz mumkin.

$$\text{Probability of occurrence} = \frac{\text{Number of desired outcomes}}{\text{Total number of outcomes}}$$

Number of desired outcomes - ehtimoliy natijalar soni.

Probability of occurrence - hodisa ehtimoli.

Total number of outcomes - Natijalarning umumiy soni.


Shartli ehtimollik - bu boshqa hodisa sodir bo'lgan paytda sodir bo'lish ehtimoli. Aytaylik, biz B hodisasi sodir bo'lgan A hodisasini hisoblamoqchimiz, “B shartlari bo'yicha A ehtimoli”, uni quyidagicha yozish mumkin:

$$P(A|B) = \frac{P(A \wedge B)}{P(B)} \quad (2.3.1)$$

Bu yerda $P(A \wedge B)$ = A va B ning birgalikdagi ehtimoli $P(B)$ = B ning chegaraviy ehtimoli. Agar A ning ehtimolligi berilgan bo'lsa va biz B ning ehtimolligini topishimiz kerak bo'lsa, u quyidagicha hisoblanadi

$$P(B|A) = \frac{P(A \wedge B)}{P(A)} \quad (2.3.2)$$

Buni quyidagi Venn diagrammasi yordamida ham aniqlash mumkin.



2.3.4-rasm. Venn diagrammasi

Misol: Bir sinfda ingliz tilini yaxshi biladigan o'quvchilar 65 foiz, ingliz tili va matematikani yaxshi biladigan o'quvchilar 35 foizi bor, ingliz tilini yaxshi biladigan o'quvchilarning necha foizi matematikani yaxshi biladi?

Yechim: A – talabaga matematikani yaxshi bilish hodisa.

B – talaba ingliz tilini yaxshi bilish hodisasi.

$$P(B|A) = \frac{P(A \wedge B)}{P(A)} = \frac{0.35}{0.65} = 0.54\%$$

Shunday qilib, 54% ingliz tilini yaxshi biladigan o'quvchilar matematikani ham yaxshi biladi.

Bayes teoremasi ingliz matematigi Tomas Bayes sharafiga nomlangan. Bayes xulosasi Bayes teoremasining qo'llanilishi bo'lib, u Bayes statistikasi uchun asos hisoblanadi. Bayes teoremasi, shuningdek, Bayes qoidasi, Bayes qonuni yoki Bayes fikrlash deb nomlanadi. Bu noaniq bilimga ega bo'lgan hodisaning ehtimolini belgilaydi. Ehtimollar nazariyasida u ikkita tasodifiy hodisaning shartli ehtimolligi va chegaraviy ehtimolliklarini bog'laydi. Bu $P(A|B)$ ni bilish bilan $P(B|A)$ qiymatini hisoblash usulidir. Bayes teoremasi real vaqtda yangi ma'lumotlarini kuzatish orqali hodisaning ehtimollik bashoratini yangilash imkonini beradi.

Misol: Agar saraton kasalligi odamning yoshiga nisbatan qaralsa, Bayes teoremasidan foydalanib, biz saraton kasalligi ehtimolini yoshga qarab aniqroq aniqlashimiz mumkin. Bayes teoremasi mahsulot qoidasi va ma'lum B hodisasi bo'lgan A hodisasining shartli ehtimolligi yordamida olinishi mumkin:

Mahsulot qoidasiga ko'ra biz quyidagilarni yozishimiz mumkin:

$$P(A \wedge B) = P(A|B) \cdot P(B) \text{ yoki} \quad (2.3.3)$$

Xuddi shunday, ma'lum A hodisasi bilan B hodisasining ehtimoli:

$$P(A \wedge B) = P(B|A) \cdot P(A) \quad (2.3.4)$$

Ikkala tenglamaning o'ng tomonini tenglashtirib, quyidagi tenglikni hosil qilamiz.

$$P(B|A) = \frac{P(B|A) \cdot P(A)}{P(A)} \quad (2.3.4)$$

Yuqoridagi (2.3.4) tenglama Bayes qoidasi yoki Bayes teoremasi deb ataladi. Ushbu tenglama ehtimollik xulosasi uchun zamonaviy sun'iy intellekt tizimlarining asosiy qismidir. U qo'shma va shartli ehtimollar orasidagi oddiy munosabatni ko'rsatadi. Bu yerga, $P(A|B)$ biz hisoblashimiz kerak bo'lgan posterior deb nomlanadi va biz B dalilini yuzaga keltirganimizda u A gipoteza ehtimoli deb o'qiladi. $P(B|A)$ ehtimollik deb ataladi, bunda biz gipotezani to'g'ri deb hisoblaymiz, keyin dalilning ehtimolligini hisoblaymiz. $P(A)$ dalilni ko'rib chiqishdan oldin oldingi ehtimollik, gipoteza ehtimoli deb ataladi. $P(B)$ marginal ehtimollik deb ataladi.

(a) tenglamada umuman $P(B) = P(A) \cdot P(B|A_i)$ ni yozishimiz mumkin, shuning uchun Bayes qoidasini quyidagicha yozish mumkin:

$$P(B|A_i) = \frac{P(A_i) \cdot P(B|A_i)}{\sum_{i=1}^k P(A_i) \cdot P(B|A_i)} \quad (2.3.5)$$

Bu yerda $A_1, A_2, A_3, \dots, A_n$ bir-birini istisno qiluvchi va to'liq bo'ladigan hodisalar to'plamidir.

Bayes qoidasini qo'llanilishi. Bayes qoidasi $P(B|A)$ yagona atamasini $P(A|B)$, $P(B)$ va $P(A)$ ko'rinishida hisoblash imkonini beradi. Bu uchta shartning ehtimoli yuqori bo'lgan va to'rtinчисini aniqlamoqchi bo'lgan holatlarda juda foydali. Aytaylik, biz noma'lum sababning ta'sirini sezmoqchimiz va bu sababni hisoblamoqchi bo'lsak, Bayes qoidasi quyidagicha bo'ladi:

$$P(\text{cause}|\text{effect}) = \frac{P(\text{effect}|\text{cause}) \cdot P(\text{cause})}{P(\text{effect})} \quad (2.3.6)$$

1-misol: Bemorda bo'yin qotib qoladigan meningit kasalliklari bo'lish ehtimoli qanday?

Berilgan ma'lumotlar: Shifokor meningit kasalligi bemorda bo'yinning qotib qolishiga olib kelishini biladi va bu 80% hollarda sodir bo'ladi. Shuningdek, u yana bir qancha faktlardan xabardor bo'lib, ular quyidagicha keltirilgan:

- o Bemorda meningit kasalligi bo'lishining ma'lum ehtimoli 1/30 000 ni tashkil qiladi.
- o Bemorning bo'yni qotib qolishining ma'lum ehtimoli 2% ni tashkil qiladi.

Bemorning bo'yni qotib qolganligi haqidagi taklif a, bemorda meningit borligi haqidagi taklif b bo'lsin, shuning uchun biz quyidagilarni hisoblashimiz mumkin:

$$P(a|b) = 0,8$$

$$P(b) = 1/30000$$

$$P(a) = 0.02$$

$$P(b|a) = \frac{P(a|b)P(b)}{P(a)} = \frac{0.8 \cdot \left(\frac{1}{30000}\right)}{0.02} = 0.0013333$$

Demak, 750 nafar bemordan 1 nafarida bo'yin qotishi bilan meningit kasalligi bor deb taxmin qilishimiz mumkin.

2.3-bo'lim bo'yicha amaliy qism

2.3-bo'lim bo'yicha amaliy qism quyidagi mavzular bo'yicha keltirilgan. Bunda keltirilgan havola yoki QR kodni skaner qilish orqali GitHubga to'g'ridan to'g'ri murojat qilish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

<https://github.com/TUITAI/>




2.4. Ekspert tizimlari

Ekspert tizimi - bu murakkab muammolarni hal qilish va inson mutaxassisi kabi qaror qabul qilish qobiliyatini ta'minlash uchun mo'ljallangan kompyuter dasturi. U buni foydalanuvchi so'rovlariga muvofiq fikrlash va xulosa chiqarish qoidalaridan foydalangan holda bilim bazasidan bilim olish orqali amalga oshiradi.

Ekspert tizimi sun'iy intellektning bir qismidir va birinchi ET 1970-yilda ishlab chiqilgan bo'lib, bu sun'iy intellektning birinchi muvaffaqiyatli yondashuvi edi. U o'zining bilim bazasida saqlangan bilimlarni ajratib olish orqali mutaxassis sifatida eng murakkab masalani hal qiladi. Tizim inson mutaxassisi kabi faktlar va evristik usullardan foydalangan holda murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradi. U ma'lum bir soha bo'yicha ekspert bilimlarini o'z ichiga olganligi va ushbu aniq sohaning har qanday murakkab muammosini hal qilishi mumkinligi sababli shunday nomlanadi. Ushbu tizimlar tibbiyot, fan va boshqalar kabi ma'lum bir soha uchun mo'ljallangan.

Ekspert tizimining ishlashi uning bilimlar bazasida saqlanadigan ekspert bilimlariga asoslanadi. Bilimlar bazasida qancha ko'p bilim saqlansa, bu tizim uning ish faoliyatini yaxshilaydi. Ekspert tizimlarining keng tarqalgan misollaridan biri bu Google qidiruv maydoniga yozishda imlo xatolarining taklifidir.

Quyida ekspert tizimining ishlashini aks ettiruvchi blok diagrammasi keltirilgan:



3.4.1-rasm. Expert tizimlari strukturasi

Quyida Ekspert tizimining ba'zi bir misollaridan keltirib o'tamiz.

DENDRAL - bu kimyoviy tahlil ekspert tizimi sifatida yaratilgan sun'iy intellekt loyihasi edi. U organik kimyoda noma'lum organik molekullarni ularning massa spektrlari va kimyo bilimlari bazasi yordamida aniqlash uchun ishlatilgan.

MYCIN - bu bakteriemiya va meningit kabi infeksiyalarni keltirib chiqaradigan bakteriyalarni topish uchun mo'ljallangan eng qadimgi ortga qaytish zanjirli ekspert tizimlaridan biri edi. Shuningdek, u antibiotiklarni tavsiya qilish va qon ivish kasalliklarini tashxislash uchun ishlatilgan.

PXDES - bu o'pka saratoni turi va darajasini aniqlash uchun ishlatiladigan ekspert tizimi. Kasallikni aniqlash uchun u tananing yuqori qismidan soyaga o'xshash rasmni oladi. Bu soya zararning turi va darajasini aniqlaydi.

CaDeT-CaDet ekspert tizimi saratonni erta bosqichlarda aniqlay oladigan diagnostik yordam tizimidir.

Ekspert tizimining xususiyatlari

Yuqori samaradorlik- ekspert tizimi ma'lum bir sohadagi har qanday turdagi murakkab muammolarni yuqori samaradorlik va aniqlik bilan hal qilish uchun yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Tushunarlilik-foydalanuvchi tomonidan oson tushuniladigan tarzda javob beradi. U inson tilida kirishni qabul qilishi va xuddi shu tarzda chiqishni ta'minlashi mumkin.

Ishonchlilik-samarali va aniq chiqishni yaratish uchun juda ishonchli.


Yuqori sezgirlik- Ekspert tizimlari qisqa vaqt ichida har qanday murakkab so'rovlar uchun natija beradi.

Ekspert tizimining komponentlari asosan uchta komponentdan iborat:

Foydalanuvchi interfeysi

Xulosa qilish mexanizmi

Bilimlar bazasi



3.4.2-rasm.Foydalanuvchi interfeysi grafigi

Foydalanuvchi interfeysi - yordamida ekspert tizimi foydalanuvchi bilan o'zaro aloqada bo'ladi, so'rovlarni o'qilishi mumkin bo'lgan formatda kirish sifatida qabul qiladi va uni xulosa qilish mexanizmiga uzatadi. Xulosa qilish mexanizmidan javob olgandan so'ng, u foydalanuvchiga chiqishni ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, bu mutaxassis bo'lmagan foydalanuvchiga yechim topish uchun ekspert tizimi bilan bog'lanishga yordam beradigan interfeysdir .

Inference Engine - Xulosa qilish mexanizmi ekspert tizimining miyasi sifatida tanilgan, chunki u tizimning asosiy ishlov berish birligidir. U xulosa chiqarish yoki yangi ma'lumotlarni chiqarish uchun bilimlar bazasiga xulosa chiqarish qoidalarini qo'llaydi. Bu foydalanuvchi tomonidan so'raladigan so'rovlarning xatosiz yechimini topishga yordam beradi. Xulosa qilish mexanizmi yordamida tizim bilimlar bazasidan bilimlarni chiqaradi. Xulosa qilish mexanizmining ikki turi mavjud:

Deterministik xulosa mexanizmi- xulosalar mexanizmidan olingan xulosalar to'g'ri deb hisoblanadi. Bu faktlar va qoidalarga asoslanadi .

Ehtimoliy xulosa mexanizmi-xulosa chiqarish mexanizmi xulosalarda noaniqlikni o'z ichiga oladi va ehtimollikka asoslangan.

Xulosa qilish mexanizmi yechimlarni olish uchun quyidagi rejimlardan foydalanadi:

Oldinga siljish - u ma'lum faktlar va qoidalardan boshlanadi va ma'lum faktlarga o'z xulosasini qo'shish uchun xulosa qoidalarini qo'llaydi.

Orqaga siljish - bu maqsaddan boshlanadigan va ma'lum faktlarni isbotlash uchun orqaga qarab ishlaydigan orqaga fikrlash usuli.

Bilimlar bazasi - ma'lum bir sohaning turli mutaxassislaridan olingan bilimlarni saqlash turidir. Bu bilimlarning katta ombori hisoblanadi. Bilimlar bazasi qanchalik ko'p bo'lsa, ekspert tizimi shunchalik aniq bo'ladi. Ma'lum bir soha yoki mavzuning ma'lumotlari va qoidalarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasiga o'xshaydi. Bilimlar bazasini obyektlar va ularning atributlari to'plami sifatida ham ko'rish mumkin. Masalan, Arslon obyektlar va uning atributlari - bu sutemizuvchi, u uy hayvoni emas va hokazo.

Bilimlar bazasining tarkibiy qismlari. Bilim-faktlarga asoslangan va bilim muhandislari tomonidan qabul qilingan bilimlar faktik bilimga kiradi. Evristik bilimlar - bu bilimlar amaliyotga, taxmin qilish qobiliyatiga, baholashga va tajribaga asoslangan. Bilimlarni ifodalash If - else qoidalari yordamida bilimlar bazasida saqlangan bilimlarni rasmiylashtirish uchun foydalaniladi. Bilimlarni o'zlashtirishda sohaga oid bilimlarni olish, tartibga solish va tizimlashtirish, turli mutaxassislardan bilimlarni olish qoidalarini belgilash va bu bilimlarni bilimlar bazasida saqlash jarayoni.

Ekspert tizimini ishlab chiqish - bu yerda MYCIN misolida ekspert tizimining ishlashini ko'rib chiqamiz. Quyida MYCIN yaratish uchun bir necha qadamlar keltirilgan:

Birinchiidan, ekspert tizimlari mutaxassis bilimlari bilan to'ldirilishi kerak. MYCIN holatida bakterial infektsiyaning tibbiyot sohasida

ixtisoslashgan inson mutaxassislari ushbu sohadagi sabablar, alomatlar va boshqa bilimlar haqida ma'lumot beradi. MYCIN tekshirish uchun shifokor unga yangi muammo beradi. Muammo bemorning alomatlari, hozirgi holati va tibbiy tarixni o'z ichiga olgan tafsilotlarini kiritish orqali bakteriyalar mavjudligini aniqlashdir. Ekspert tizimiga bemor to'g'risidagi umumiy ma'lumotlarni, masalan, jinsi, yoshi va boshqalarni bilish uchun bemor tomonidan to'ldiriladigan so'rovnomaga kerak bo'ladi.

Endi tizim barcha ma'lumotlarni to'pladi, shuning uchun xulosa chiqarish mexanizmidan foydalangan holda va bilimlar bazasi ichida saqlangan faktlardan foydalangan holda agar-then qoidalarini qo'llash orqali muammoning yechimini topadi.

Oxir-oqibat, u foydalanuvchi interfeysi yordamida bemorga javob beradi.

Ekspert tizimini ishlab chiqish ishtirokchilari

Ekspert tizimini qurishda uchta asosiy ishtirokchi mavjud:

1. Mutaxassis. Ekspert tizimining aniqligi ko'p jihatdan inson mutaxassislari tomonidan taqdim etilgan bilimlarga bog'liq. Bu mutaxassislar ma'lum bir sohada ixtisoslashgan shaxslardir.

2. Bilim muhandisi. Bilim muhandisi - bu soha mutaxassislaridan bilimlarni to'playdigan va keyin bu bilimlarni tizimga rasmiylashtirish bo'yicha kodlaydigan shaxs.

3. Yakuniy foydalanuvchi. Bu mutaxassis bo'lmashligi mumkin bo'lgan ma'lum bir shaxs yoki odamlar guruhi va ekspert tizimida ishlash uning murakkab so'rovlari uchun yechim yoki maslahatga muhtoj shaxs.

Har qanday texnologiyadan foydalanishdan oldin, biz ushbu texnologiyadan nima uchun foydalanish kerakligi va shuning uchun Ekspert tizimi uchun ham xuddi shunday fikrga ega bo'lishimiz kerak. Garchi bizda har bir sohada insoniy mutaxassislar mavjud bo'lsada, kompyuterga asoslangan tizimni ishlab chiqishning nima keragi bor.

Shunday qilib, quyida ekspert tizimlariga bo'lgan ehtiyojni tavsiflovchi fikrlar mavjud:

1. Xotirada cheklovlar yo'q- kerakli darajada ko'p ma'lumotlarni saqlashi mumkin va uni qo'llash vaqtida eslab qolishi mumkin. Ammo inson mutaxassislari uchun har doim hamma narsani eslab qolish uchun ba'zi cheklovlar mavjud.

2. Yuqori samaradorlik- agar bilimlar bazasi to'g'ri bilimlar bilan yangilansa, u yuqori samaradorlikni ta'minlaydi, bu esa inson uchun imkoni bo'lmasligi mumkin.

3. Soha bo'yicha mutaxassislik- har bir sohada ko'plab inson mutaxassislari mavjud va ularning barchasi turli malakalarga, turli tajribalarga va turli ko'nikmalarga ega, shuning uchun so'rov uchun yakuniy natijani olish oson emas. Ammo agar biz insoniy mutaxassislardan olingan bilimlarni ekspert tizimiga kiritadigan bo'lsak, u barcha faktlar va bilimlarni aralashtirib, samarali natija beradi.

4. Hissiyotlar ta'sir qilmaydi-bu tizimlar charchoq, g'azab, tushkunlik, tashvish va boshqalar kabi inson his-tuyg'ulariga ta'sir qilmaydi. Shuning uchun ishlash doimiy bo'lib qoladi.

5. Yuqori xavfsizlik- tizimlar har qanday so'rovni hal qilish uchun yuqori xavfsizlikni ta'minlaydi.

6. Barcha faktlarni ko'rib chiqish-har qanday so'rovga javob berish uchun u barcha mavjud faktlarni tekshiradi, ko'rib chiqadi va shunga mos ravishda natija beradi. Ammo inson mutaxassisi biron bir sababga ko'ra ba'zi faktlarni hisobga olmasligi mumkin.

7. Muntazam yangilanishlar unumdorlikni yaxshilash- agar ekspert tizimlari tomonidan taqdim etilgan natijada muammo yuzaga kelsa, bilimlar bazasini yangilash orqali tizim ish faoliyatini yaxshilashimiz mumkin.

Ekspert tizimining imkoniyatlari

Quyida ekspert tizimining ayrim imkoniyatlari keltirilgan:

Maslahat berish - insonga ma'lum ekspert tizimidan istalgan soha so'rovi bo'yicha maslahat berishga qodir.

Qaror qabul qilish imkoniyatlarini taqdim etish-har qanday sohada qaror qabul qilish qobiliyatini ta'minlaydi, masalan, har qanday moliyaviy qarorlarni qabul qilish, tibbiyot fanida qarorlar qabul qilish va hokazo.

Qurilmani namoyish etish - har qanday yangi mahsulotlarni, masalan, uning xususiyatlari, texnik xususiyatlari, ushbu mahsulotdan qanday foydalanish va hokazolarni namoyish etishga qodir.

Muammoni tushuntirish - kirish muammosining batafsil tavsifini taqdim etishga qodir.

Kirishni tashkil qilish - foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlarni sharhlash imkoniyatiga ega.

Natijalarni bashorat qilish - natijani bashorat qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Tashxis-tibbiyot sohasi uchun mo'ljallangan ekspert tizimlari bir nechta komponentlardan foydalanmasdan kasallikni tashxislash imkoniyatiga ega, chunki u allaqachon o'rnatilgan turli xil tibbiy asboblarni o'z ichiga oladi.

Ekspert tizimining cheklovlari:

Agar ma'lumotlar bazasida noto'g'ri ma'lumotlar mavjud bo'lsa, ekspert tizimining javobi noto'g'ri bo'lishi mumkin.

Inson kabi, u turli ssenariylar uchun ijodiy natijani ishlab chiqara olmaydi.

Uni saqlash va rivojlantirish xarajatlari juda yuqori.

Dizayn uchun bilim olish juda qiyin.

U o'z-o'zidan o'rgana olmaydi va shuning uchun qo'lda yangilanishlarni talab qiladi.


Nazorat savollari

1. Ekspert tizimi nima?
2. Bilim darajasi nima ma'no anglatadi ?
3. Foydalanuvchi interfeysi nima ma'no anglatadi?

2.4-bo'lim bo'yicha amaliy qism

2.4-bo'lim bo'yicha amaliy qism quyidagi mavzular bo'yicha keltirilgan. Bunda keltirilgan havola yoki QR kodni skaner qilish orqali GitHubga to'g'ridan to'g'ri murojat qilish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

<https://github.com/TUITAI/>



III BOB. MASHINALI O'QITISHGA KIRISH

Ushbu bobda mashinali o'qitish turlari va tasniflarini nazariy hamda amaliy yoritib o'tamiz. Mashinali o'qitish sun'iy intellektning bir bo'lagi hisoblanib kompyuter ilmining bir qismidir. Bu soha bugungi kunda eng rivojlanayotgan zamonaviy sohalardan bo'lib, ular aqlli tizimlarni ishlab chiqishda qo'llaniladi.

Mashinali o'qitish - ma'lumotlarni tahlil qiluvchi, ushbu ma'lumotlardan o'rganadigan va o'rganganlari asosida qarorlar qabul qila oladigan algoritmlarni o'z ichiga olgan sun'iy intellektning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

3.1. Mashinali o'qitishga kirish

Mashinali o'qitish - sun'iy intellektning bir bo'lagi hisoblanib, kompyuterga ma'lumotlar va oldingi tajribalardan mustaqil ravishda o'rganish imkonini beruvchi algoritmlarni yaratishga qaratilgan.

Yoshligida ta'lim olishga e'tiborsiz bo'lgan kishi, o'tmishini yo'qotib, kelajagini barbod qiladi (o'ldiradi).

Euripides (miloddan avvalgi 484 yil – 406 yil), Phrixus, Frag.

Mashinali o'qitish-kompyuterlarga aniq dasturlovchi algoritmlar yozmagan holda o'rganish imkonini beruvchi ilmiy soha.

Artur Samuel

Mashinali o'qitish algoritmlari sohalarga kirib kelish tarixiga qaraydigan bo'lsak, birinchi dasturiy algoritim 1952-yilda Artur Samuel tomonidan yaratilgan. Bu dastur yordamida shashka o'yinini o'ynash algoritmi yaratilgan bo'lib, IBM kompyuteriga o'rnatilgan va inson bilan to'g'ridan-to'g'ri o'ynash qobiliyatiga ega edi. Shashka o'yini o'ynalgan sari, o'yin yaxshilanib borib, qaysi harakatlar asosida g'alaba qozonish strategiyasini ishlab chiqish va bu harakatlarni saqlab qolish imkoniyatiga

ham ega edi. Keyingi bosqichda 1967-yilga kelib kompyuter yordamida, bir-biriga mos xususiyatlaridan foydalanib, o'xshash narsalarni aniqlash imkonini beruvchi "Eng yaqin qo'shni (k-NN)" algoritmini ishlab chiqish soha uchun muhim qadam bo'ldi. Bu algoritm asosida shaharlarga tashrif buyuruvchi sayohatchilar uchun kerakli manzilga boruvchi eng qisqa masofani aniqlab berishda foydalanish mumkin edi. Oradan o'n ikki yil o'tib 1979-yilda Stenford universiteti talabalari xonadagi to'siqlarni o'zi aylanib o'ta oladigan "Stenford aravachasi"ni ixtiro qilishdi. 1990-yillarda mashinali o'qitish bo'yicha ishlar bilimga asoslangan yondashuvdan ma'lumotlarga asoslangan yondashuvga o'tdi. Olimlar katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalardan xulosa chiqarish uchun dasturlar yaratishni boshladilar. 2014-yilda Facebook DeepFace dasturiy ta'minot algoritmini ishlab chiqdi, u fotosuratlardagi shaxslarni odamlar bilan bir xil darajada tanib olish yoki tekshirish imkoniga ega edi.

Mashinali o'qitishning fanga kirib kelish tarixi quyidagicha, bu soha sun'iy intellekt usullari sinfi bo'lib, uning xarakterli xususiyati muammoni to'g'ridan to'g'ri hal qilish emas, balki ko'plab shunga o'xshash muammolarning yechimlarini qo'llash orqali o'rganishdir. Bunday usullarni qurish uchun matematik statistika vositalari, sonli usullar, matematik tahlil, optimallashtirish usullari, ehtimollar nazariyasi, graflar nazariyasi, raqamli shakldagi ma'lumotlar bilan ishlashning turli usullari qo'llaniladi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, sun'iy intellektning asosiy tarmog'i mashinali o'qitish hisoblanib, uning ham turli toifalari mavjud. Keyingi mavzularda mashinali o'qitish turlari bo'yicha ma'lumotlar keltirib o'tamiz.

3.1.1. Mashinali o'qitish turlari

Ma'lumotlarning qay tarzda foydalanilishiga nisbatan mashinali o'qitishni quyidagi toifalarga ajratishimiz mumkin.


O'qituvchili o'qitish (*Supervised Learning*). Ushbu turdagi o'qitish eng keng tarqalgan usul bo'lib, belgilangan ma'lumotlardan foydalangan holda kompyuter dasturi o'qitiladi. O'qituvchili o'qitishning o'zini ham ikkita toifaga ajratish mumkin:

- Regressiya (Regression)
- Tasniflash (Classification)

O'qituvchisiz o'qitish (*Unsupervised learning*). O'qituvchisiz o'qitish usulidan maqsad, belgilanmagan ma'lumotlar orqali modelni o'rgatish hisoblanadi. Masalan, bizda bir qancha meva rasmlari bor va ular belgilanmagan (ya'ni, qaysi rasmda qanday meva borligi haqida bizda ma'lumot yo'q). Lekin o'qituvchisiz o'qitish usullaridan foydalanib modelni ushbu belgilanmagan rasmlar orqali o'qitamiz, bunda model o'rganish jarayonida ma'lumot birliklarining o'xshashlik alomatlariga qarab (rangi, shakli, mazasi va hk.) tasniflay oladi.

Mustahkamlangan o'qitish (*Reinforcement learning*). Mustahkamlagan o'qitish usuli davom etayotgan jarayondagi maqbul harakatlarni mukofotlash va aksincha, nomaqbul harakatlarni jarimaga tortishga asoslanadi. Bu usulda aqlli agentdan (o'zi mavjud bo'lgan muhitda tajriba, foydalanuvchi kiritgan ma'lumotlar va turli shartlar asosida qaror qabul qila oladigan kompyuter dasturi elementi) foydalanib, kerakli natijaga erishiladi. Hozirgi kunda mashinali o'qitishning ushbu usulini qo'llash barcha sohalarida ham keng tarqalmagan. Asosan, quyidagi sohalar mustahkamlangan o'qitish usulidan keng foydalanishadi:

- o'yin dasturlari
- resurslarni boshqarish
- shaxsga moslashtirilgan tavsiyalar
- robototexnika



3.1.1- rasm. Mashinali o'qitish usullari

Mashinali o'qitishda ma'lumotlarni qayta ishlash uchun ularni har xil masshtabdan bir xil masshtabga o'tkazib olish zarur. Bir xil masshtabga o'tkazib olish uchun asosan Normallashtirish va standartlashtirish funksiyalaridan foydalaniladi.

Normallashtirish - bu mashinali o'qitishning masshtablash usuli bo'lib, umumiy ma'lumotlardan foydalanish uchun, ma'lumotlar to'plamidagi son qiymatlarini bir xil holatga keltirishda qo'llaniladi. Barcha ma'lumotlar bir-biriga mutanosib bo'lsa bu usuldan foydalanish shart emas. Normallashtirish asosan kiruvchi o'zgaruvchilarning farqini kamaytirish maqsadida foydalaniladi va quyidagi formula asosida qo'llaniladi.

$$x_j^{(l)} = \frac{x_j^{(l)} - X_{j,min}}{X_{j,max} - X_{j,min}} \quad (3.1.1)$$

$x_j^{(l)}$ -ma'lum i -qatoridagi va j -ustundagi o'zgaruvchilar, $X_{j,min}$ - j ustundagi o'zgaruvchilarning eng kichik qiymati, $X_{j,max}$ - j ustundagi eng katta qiymati. Normallashtirish funksiyasi yordamida chiziqli regressiya masalalarini yechishda foydalanish mumkin. Misol uchun oylik ish haqqi oshishini bashoratlashni ko'rib chiqamiz. Buning

uchun mavjud bo'lgan "salary_data" dan foydalanamiz va u quyidagi ko'rinishga ega:

3.1-jadval. Yillar davomida ish haqi oshishi

| № | yillar tajribasi, (X_i) | ish haqi oshishi, (Y_i) |
|-----|-----------------------------|-----------------------------|
| 1. | 1.1 | 39343 |
| 2. | 1.3 | 46205 |
| 3. | 1.5 | 37731 |
| : | : | : |
| 29. | 10.3 | 122391 |
| 30. | 10.5 | 121872 |

3.1-jadvaldagi son qiymatlarni normallashtirish funksiyasi yordamida masshtablashni amalga oshiramiz. $i=0$

$$x_i = \frac{X_i - X_{min}}{X_{max} - X_{min}} \quad y_i = \frac{Y_i - Y_{min}}{Y_{max} - Y_{min}}$$

$$x_0 = \frac{1.1 - 1.1}{10.5 - 1.1} = 0 \quad y_0 = \frac{39343 - 37731}{122391 - 37731} = 0,01904$$

$$x_1 = \frac{1.3 - 1.1}{10.5 - 1.1} = 0,02127 \quad y_1 = \frac{46205 - 37731}{122391 - 37731} = 0,10009$$

$$x_2 = \frac{1.5 - 1.1}{10.5 - 1.1} = 0,04255 \quad y_2 = \frac{37731 - 37731}{122391 - 37731} = 0$$

...

$$x_{29} = \frac{10.3 - 1.1}{10.5 - 1.1} = 0,97872 \quad y_{29} = \frac{122391 - 37731}{122391 - 37731} = 1$$

$$x_{30} = \frac{10.5 - 1.1}{10.5 - 1.1} = 1 \quad y_{30} = \frac{121872 - 37731}{122391 - 37731} = 0,99386$$

Yuqoridagi ifoda orqali keltirilgan normallashtirish funksiyasidan foydalanib kiruvchi ma'lumotlar qiymatlarini 0 va 1 oraliqga keltirib olinadi. Bundan maqsad X_i va Y_i qiymatlarning o'rtasidagi tafovutni kamaytirish. Ya'ni: X_0 - kiruvchi ma'lumot qiymati 1.1 ga teng. Shunga mos ustundagi Y_0 - qiymati esa 39343 ga teng va birinchi o'zgaruvchiga nisbatan juda katta tafovut mavjud. Agarda kiruvchi ma'lumotlar (dataset)ni normallashtirmasdan shu holatda o'qitish amalga oshirilsa, o'zgaruvchilar o'rtasidagi tafovut va o'qitish vaqti keskin oshib ketadi. Buning oldini olish uchun normallashtirish funksiyasidan foydalanish

tavsiya etiladi. Shunga asosan, kiruvchi ma'lumotlarni normallashtirishning dasturiy algoritmini tuzib chiqamiz.

```
from numpy import *# hisoblashni teqlashtirish uchun
import matplotlib.pyplot as plt
import numpy as np
n=int(input('n='))# ma'lumotlar sonini kiritish uchun
f= open ('salary_data.csv', 'r')
X = []
Y = []
for i in f:
a = i.split(",")
x.append(float(a[0]))
y.append(float(a[1]))
x_min=min(X)
x_max=max(X)
y_min=min(Y)
y_max=max(Y)
x=[]
y=[]
for i in range(0, n):
x.append(((X[i]-x_min)/(x_max-x_min))
y.append(((Y[i]-y_min)/(y_max-y_min))
print(x[i], y[i])
```

Tuzilgan dasturiy algoritm asosida salary_data.csv dagi o'zgaruvchilarni normallashtirilgan qiymatlarini jadvalga keltirib o'tamiz.

3.2-jadval. Normallashtirish funksiyasi yordamida masshtablashtirilgan qiymatlar

| N _i | yillar tajribasi, (X _i) | ish haqi oshishi, (Y _i) | N _i | (X _i) | (Y _i) |
|----------------|----------------------------------------|----------------------------------------|----------------|-------------------|-------------------|
| 1. | 1.1 | 39343 | 1. | 0 | 0,01904 |
| 2. | 1.3 | 46205 | 2. | 0,02127 | 0,10009 |
| 3. | 1,5 | 37731 | 3. | 0,04255 | 0 |
| : | : | : | : | : | : |
| 29. | 10.3 | 122391 | 29. | 0,97872 | 1 |
| 30. | 10.5 | 121872 | 30. | 1 | 0,99386 |

Yuqoridagi jadvallarda birinchi holatda datasetning asl qiymati keltirilgan. Ikkinchi holatda esa aynan shu datasetning 0 va 1 oraliqda masshtablashtirilgan qiymatlari keltirilgan.

Standartlashtirish – odatda kiruvchi ma'lumotlar (dataset) qiymatalari to'g'ri taqsimlangan bo'lsa, standart xolatga keltirishda ishlatiladi.

$$X_j^{(i)} = \frac{x_j^{(i)} - \mu_i}{S_j} \quad (3.1.2)$$

$x_j^{(i)}$ -ma'lumot i -qatoridagi va j -ustundagi o'zgaruvchilar, μ_i – j -ustundagi o'zgaruvchilarning o'rta arifmetigi, S_j – j -ustundagi o'zgaruvchilarning o'rta kvadratik og'ishi, $X_j^{(i)}$ - standartlashtirilgan ma'lumotlar.

$$S_i = \sqrt{\frac{\sum (x_j^{(i)} - \mu_i)^2}{N_j}} \quad (3.1.3)$$

j -ustun uchun o'rta kvadratik og'ishni hisoblaydi va bunda N_j - j -ustundagi o'zgaruvchilar soni.

$$\mu_i = \frac{\sum_{j=1}^{N_i} x_j^{(i)}}{N_j} \quad (3.1.4)$$

μ_i - j -ustundagi o'zgaruvchilarning o'rta arifmetik qiymati.

3.1.2. Xatoliklarni hisoblash

Mashinali o'qitish modellari yuqori aniqlik darajasiga erishishi uchun real qiymatlarda qanchalik yaxshi yoki yomon ishlashini tekshirish zarur. Buning uchun xatoliklarni baholovchi bir nechta funksiyasidan foydalaniladi. Bu funksiya mashinali o'qitish modellarini aniqligini baholashda muhim parametr hisoblanadi.

Bashorat qiymatlarni baholash xatoliklari. Mashinali o'qitishda *loss*(qiymat/yo'qotish) funksiyalari modelning bashorat qilgan qiymatlari haqiqiy qiymatlarga qanchalik mos kelishini baholash uchun ishlatiladi. Ular bashorat qilingan qiymatlar va haqiqiy qiymatlar o'rtasidagi farqni aniqlaydi va bu modelni optimallashtirish uchun juda muhimdir. Turli

jarayon va hodisalarni bashorat qilish uchun xatoliklarni baholashda ishlatiladigan ba'zi qiymat funksiyalari quyidagilar:

O'rta kvadratik xatolik (Mean Squared Error MSE). Qiymat funksiyasini asosiy vazifasi xatolikni aniqlash. Bu funksiya asosida regressiya koeffitsiyent(lar)i (w_i va b_i) qanchalik to'g'ri topilganini aniqlash, ya'ni ushbu koeffitsiyent(lar) orqali bashorat qilingan va haqiqiy qiymat orasidagi xatolikni topish mumkin. Buning uchun qiymat funksiyasi sifatida asosan o'rta kvadratik xatolik funksiyasidan foydalanish tavsiya etiladi.

$$r(loss) = \frac{1}{N} \sum_{i=0}^N (f(x_i) - y_i)^2 \quad (3.1.5)$$

3.1.5–formulada N -ma'lumotlar to'plami soni y_i –ma'lumotlar to'plami $f(x_i)$ - bashorat qilingan qiymat. Yuqoridagi keltirilgan formuladagi bashorat qiymatini $f(x_i)$ formulasi orqali yoyilsa, quyidagi formula kelib chiqadi.

$$r(kvadratik) = \frac{1}{N} \sum_{i=0}^N ((w_i x_i + b_i) - y_i)^2 \quad (3.1.6)$$

Bu yerda w_i - funksiya koeffitsiyenti (gradiyent), b_i -ozod had (bias) va r -xatolik (loss).


Gradiyent - bu funktsiyaning har bir parametri bo'yicha nisbiy o'sish yoki kamayish tezligini ko'rsatadigan vektor kattalik.

Bias - berilgan funktsiyaning ozod hadi hisoblanadi. Har bir chiqishda bitta ozod had mavjud bo'ladi.

Variance - (farqlanish) ma'lumotlar yetishmasligi tufayli yuzaga kelgan xato.

Shovqin - ma'lumotlarni yaratadigan jarayondan kelib chiqadigan tabiiy xato. Bazi holatlarda model obyektga moslashib qolish oldini olish uchun sun'iy shovqinlar hosil qilinadi.

Yuqoridagi 3.1.6-formuladan foydalanib qiymat funksiyasini hisoblashni amalga oshirib ko'ramiz.



3.1.2-rasm. O'rtacha kvadratik xatolikni hisoblash grafiqi

Yuqoridagi rasmda gradiyent qiymat o'zgarishi bo'yicha xatolikni hisoblash jarayoni keltirib o'tilgan.

O'rtacha absolyut xatolik (Mean Absolute Error MAE). Ko'p holatlarda regressiya masalalarini yechishda qo'llaniladi. U bashoratlar to'plamidagi xatoliklarning o'rtacha kattaligi hisoblanadi.

$$r(\text{absolyut}) = \frac{1}{N} \sum_{i=0}^N (\bar{y} - y_i)$$

(3.1.7)

Bu formulada \bar{y} – bashorat qilingan qiymat. y_i – haqiqiy yorliqlangan qiymat.

Chalkashlik matritsasi (Confusion Matrix) - bu qiymat/yo'qotish funksiyasi mashinali o'qitishning sinflashtirish masalalarini yechishda qo'llaniladi. Bunda bashorat qilingan qiymatlarni haqiqiy qiymat bilan

taqqoslash orqali modelning ishlashi tavsiflanadi. Chalkashlik matritsasining tuzilishi quyidagicha:

- **Haqiqiy ijobiyalar (True Positive TP):** Model ijobiy sinfni to'g'ri bashorat qilgan holatlar soni.

- **Haqiqiy negativlar (True Negative TN):** Model salbiy sinfni to'g'ri bashorat qilgan holatlar soni.

- **Noto'g'ri pozitivlar (False Positive FP):** Model ijobiy sinfni noto'g'ri bashorat qilgan holatlar soni.

- **Noto'g'ri negativlar (False Negative FN):** Model salbiy sinfni noto'g'ri bashorat qilgan holatlar soni.

Chalkashlik matritsasi quyidagi formula yordamida niqlanadi.

$$Accuracy(xatolik) = \frac{TP+TN}{TP+TN+FP+FN} \quad (3.1.8)$$

Misol: chalkashlik matritsasi hisoblash uchun ixtiyoriy bashorat qilingan qiymatlarni olib ko'ramiz. $TP = 5$, $TP = 3$, $FP=1$ va $FN=1$ ga teng qiymatlar ustida hisoblashlarni amalga oshiramiz.

$$Accuracy(xatolik) = \frac{5+3}{5+3+1+1} = 0.8 \quad (3.1.9)$$

Aniqlikni(Precision) hisoblash. Bu modelning ijobiy bashoratlari qanchalik to'g'ri ekanligini hisoblash. U haqiqiy ijobiy bashoratlarning model tomonidan qilingan ijobiy bashoratlarning umumiy soniga nisbati orqali aniqlanadi.


$$Aniqlik(Precision) = \frac{TP}{TP+FP} \quad (3.1.10)$$

Yuqoridagi qiymatlardan foydalanib hisoblashlarni amalga oshiramiz.

$$Aniqlik(Precision) = \frac{5}{5+1} = 0.83 \quad (3.1.11)$$

Bu model bashoratlar asosida aniq va noaniq misollar sonini ko'rsatish vositasidir. U ko'pincha tasniflash modellarining ishlashini o'lchash uchun ishlatiladi, bu esa har bir kirish namunasi uchun toifali yorliqni bashorat qilish uchun xizmat qiladi.

Cross Validation (o'zaro tekshirish) – yangi ma'lumotlar to'plamini, ya'ni u ilgari ko'rmagan ma'lumotlarni qanchalik yaxshi bashorlashini baholash uchun ishlatiladigan mashinali o'qitishning asosiy usuli. Bu xatoliklarni baholash usuli model obyektga haddan tashqari moslashishining oldini olish va modelning ishlashi o'quv(training) ma'lumotlariga ortiqcha moslashish natijasi emasligini ta'minlash uchun ishlatiladi.




3.1.3-rasm. Modelni o'qitish va testlash jarayoni

Yuqoridagi rasmda modelni o'qitish jarayoni keltirib o'tilgan. Bunda dataset(ma'lumotlar to'plami) o'quv(training) to'plami va tekshirish(test) to'plamiga ajratilgan holati ifodalangan.

3.1.3. Gradiyent pastlash

Gradiyent pastlash – bu funksiyaning minimal qiymatini topish uchun iterativ algoritim. Uning maqsadi eng kichik yoki global minimal xato qiymatini topish uchun optimallashtirishni qo'llashdir. U asosan model parametrlarini yangilash uchun ishlatiladi. Gradiyent pastlash funksiyasi grafigi tangensining qiyaligini tavsiflovchi vektor qiymatli funksiya bo'lib, eng muhim pastlash tezligi yo'nalishini ko'rsatadi. Ushbu algoritimning asosiy maqsadi funksiyani kiritish parametrlarini iterativ ravishda sozlash orqali minimallashtirishdir. Quydagi 3.1.5-rasmda Gradiyent pastlash grafigasini ko'rishimiz mumkin.



3.1.5– rasm. Gradiyent pastlash grafigasi

Og'irlik parametrini yangilashda Batch Gradiyent pastlash formulasidan foydalaniladi va u quyidagicha ifodalanadi.

$$w_{i,t+1} = w_i - a * \nabla_w J(w_i) \quad (3.1.12)$$

Bu yerda w - yangilanishi kerak bo'lgan og'irliklarni bildiradi. a -algoritimning o'rganish tezligi. J -qiymat funksiyasi hisoblanadi.

Batch gradiyent-pastlash algoritmi barcha ma'lumotlar to'plami qiymat funksiyasining gradiyentini hisoblash uchun ishlatiladi.

Parametrlar gradiyentning teskari yo'nalishi bo'yicha yangilanib o'rganish tezligi bilan ko'paytiriladi. To'plam gradiyentning tushishi hisoblash uchun murakkab bo'lib, butun ma'lumotlar to'plamini xotiraga yuklashni va har bir misol uchun qiymat funksiyasini baholashni talab qiladi. Batch gradiyent pastlash har bir bosqichda barcha o'quv ma'lumotlaridan foydalangan holda gradiyentni hisoblab chiqadi. Batch Gradiyent pastlash algoritmi har bir iteratsiyada barcha o'qitish misollarini ko'rib chiqadi. Agar ma'lumotlar to'plamida ko'p sonli o'quv misollari va ko'p sonli xususiyatlar mavjud bo'lsa, Batch Gradiyent pastlash algoritmini amalga oshirish kerakli natijaga olib bormaydi.

Stoxastik Gradiyent pastlash-batch gradiyentdan farqli o'laroq, barcha namunalardan o'tmaydi. Buning o'rniga u bitta tasodifiy parametrni tanlaydi va ma'lumotlar to'plamini ma'lumotlar nuqtalarining qayd etilgan qiymatiga muvofiq optimallashtiradi, bu esa har bir yangilanishda o'rganishni amalga oshiradi. Og'irlik parametrini yangilaydigan Stoxastik Gradiyent pastlash formulasi.

$$w_{i+1} = w_i - a * \nabla_{w_i} J(x^i, y^i, w_i) \quad (3.1.13)$$

Bu yerda y - ma'lumotlarning haqiqiy qiymati.

Mini-Batch Gradiyent pastlash-Batch Gradiyent pastlash va Stoxastik Gradiyent pastlash o'rtasidagi kesishish hisoblanadi. Ushbu yondashuvda biz butun ma'lumotlar to'plamini yoki bitta kuzatishni takrorlash o'rniga, ma'lumotlar to'plamini kichik-kichik to'plamlarga ajratamiz va har bir to'plam uchun gradiyentlarni hisoblaymiz. Og'irlik parametrini yangilaydigan Stoxastik Gradiyent pastlash formulasi.

$$w_{i+1} = w_i - a * \nabla_{w_i} J(x^{i+b}, y^{i+b}; w_i) \quad (3.1.14)$$

Belgilar Stoxastik Gradiyent pastlash bilan bir xil, bu yerda b - bitta to'plam hajmini bildiruvchi giperparametr.

Nazorat savollari.

1) Mashinali o'qitish qanday ma'no anglatadi?

- 2) Mashinali o'qitish sohasi qaysi yillarda fanga kirib kelgan?
- 3) Mashinali o'qitishning nechta usuli bor?
- 4) Normallashtirish nima uchun ishlatiladi?
- 5) O'rta kvadratk xatolik qanday ma'no anglatadi?
- 6) Chalkashlik matritsasi yordamida qanday xatoliklar baholanadi?
- 7) Gradiyent tushush yordamida qanday muammolar bartaraf etiladi?
- 8) Batch gradiyent qanday holatlarda ishlatiladi?
- 9) Stoxastik gradiyent qanday holatlarda ishlatiladi?
- 10) Mini-Batch Gradiyent qanday holatlarda ishlatiladi?

3.1-bo'lim bo'yicha amaliy qism

3.1-bo'lim bo'yicha amaliy qism quyidagi mavzular bo'yicha keltirilgan. Bunda keltirilgan havola yoki QR-kodni skaner qilish orqali GitHubga to'g'ridan to'g'ri murojat qilish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

<https://github.com/TUITAI/>




3.2. O'qituvchili o'qitish algoritmlari

O'qituvchili o'qitish - bu mashinali o'qitish turi bo'lib, unda mashinalar "yorliqlangan(labelled)" o'quv ma'lumotlaridan foydalangan holda o'qitiladi va shu ma'lumotlar asosida mashinalar natijani bashorat qiladi.


3.2.1. Chiziqli regressiya

O'qituvchili o'qitishning chiziqli regressiya usuli-mashinali o'qitish usullarining eng boshlang'ich va keng qo'llaniladigan usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu usul yordamida davomiy bo'lgan qiymatlar bashorat qilinadi. Bugungi kunda bu usul yordamida signallarga raqamli ishlash jarayonlarida ham keng qo'llanilmoqda. Buning uchun birinchi navbatda tasodifiy ma'lumotlar hosil qilib olinadi.



3.2.1-rasm. Chiziqli regressiya tasodifiy qiymatlari

Bu yerda line (1, 2 va 3) tasodifiy qiymatlar. Chiziqli regressiya usullarining asosiy muammolaridan biri, tasodifiy qiymatlardan foydalanib haqiqiy qiymatga yaqin qiymatni hosil qilish.



3.2.2-rasm. Bashorat qiymatlar yordamida haqiqiy qiymatlarga eng yaqin qiymatlarni topish

Grafikdagi 1, 2 va 3-chiziq(line) bashorat qiymatlar. 4-chiziq (line) bashorat qiymatlari asosida haqiqiy qiymatga eng yaqin qiymat. Bashorat qilingan qiymat va haqiqiy qiymat o'rtasidagi tafovut imkon qadar kam bo'lishi kerak. Ushbu tafovut xatolik deb qabul qilinib, qiymat funksiyasi hosil qilinadi. Xatolikni kamaytirish uchun gradiyent pastlash usullaridan foydalaniladi. Gradiyent pastlash regressiya koeffitsiyentini yangilash orqali xatolikni kamaytirishga imkon beradi. Odatda o'qitish jarayonida dastlab koeffitsiyent(lar)ga (w_i va b_i) tasodifiy qiymat beriladi. Keyingi bosqichda qiymat funksiyasi hisoblanib (r) xatolik topiladi. Bundan asosiy maqsad xatolikning qiymatiga qarab qiymat funksiyasini (r), chizikli regressiya misolida esa o'rta kvadratik funksiyasini minimallashtirish. Buning uchun gradiyent pastlash (gradiyent descent) amalga oshiriladi.

$$\begin{aligned}
 w_{i+1} &= w_i - a \cdot \frac{2}{N} \sum_{i=0}^N \frac{\partial r(loss)}{\partial w} \\
 w_{i+1} &= w_i - a \cdot \frac{2}{N} \sum_{i=0}^N (f(x_i) - y_i) \cdot x_i, \\
 w_{i+1} &= w_i - a \cdot \frac{2}{N} \sum_{i=0}^N (w_i \cdot x_i + b_i - y_i) \cdot x_i,
 \end{aligned}
 \tag{3.2.1}$$

$$b_{i+1} = b_i - a \cdot \frac{2}{N} \sum_{i=0}^N \frac{\partial r(\text{loss})}{\partial r}$$

$$b_{i+1} = b_i - a \cdot \frac{2}{N} \sum_{i=0}^N (f(x_i) - y_i) \quad (3.2.2)$$

$$b_{i+1} = b_i - a \cdot \frac{2}{N} \sum_{i=0}^N (w_i \cdot x_i + b_i - y_i)$$

Yuqoridagi formulalarda $f(x_i)$ -qurilgan funksiya. w_i -funksiya koeffitsiyenti(gradiyent), b_i -ozod had(bias) va r -qiymat funksiyasi xatolik(loss). (3.2.1) va (3.2.2) formulalar gradiyent pastlash qadamlari qiymatlarini topishning matematik modeli. Bu yerda a -o'rganish qadami (learning rate).

Misol: 3.1-jadvaldan foydalanib yillar davomida ish haqqi oshishini bashoratlashni amalga oshirib ko'ramiz. Buning uchun 3.2(b)-normallashtirilgan jadvaldan foydalanamiz. $w=0.8$, $b=0.4$ va $a=0.01$ qiymatlarini ixtiyoriy tanlab olamiz. 3.2.1-formula yordamida hisoblashni amalga oshiramiz.

3.3-jadval. Masshtablashtirilgan qiymatlar

| N _o | (X _i) | (Y _i) |
|----------------|-------------------|-------------------|
| 1. | 0 | 0,01904 |
| 2. | 0,02127 | 0,10009 |
| 3. | 0,04255 | 0 |
| : | : | : |
| 29. | 0,97872 | 1 |
| 30. | 1 | 0,99386 |

Bu jadvaldan foydalanib gradiyent pastlashni amalga oshiramiz. Bunda datasetning 2/3 qismini o'qitishga(trening) qolgan qismini testlashga ishlatamiz.

$$w_1 = 0,8 - 0,01 \cdot \frac{2}{20} ((0,8 \cdot 0 + 0,4 - 0,01904) \cdot 0 +$$

$$+ (0,8 \cdot 0,02127 + 0,4 - 0,10009) \cdot 0,02127 +$$

$$+ (0,8 \cdot 0,04255 + 0,4 - 0) \cdot 0,04255 +$$

$$\dots$$

$$+ (0,8 \cdot 0,97872 + 0,4 - 1) \cdot 0,02127 +$$

$$+ (0,8 \cdot 1 + 0,4 - 0,99386) \cdot 0,02127)$$

$$b_1 = 0,8 - 0,01 \cdot \frac{2}{20} ((0,8 \cdot 0 + 0,4 - 0,01904) +$$

$$+ (0,8 \cdot 0,02127 + 0,4 - 0,10009) + (0,8 \cdot 0,04255 + 0,4 - 0) +$$

$$\dots$$

$$(0,8 \cdot 0,97872 + 0,4 - 1) + (0,8 \cdot 1 + 0,4 - 0,99386) \cdot 0,02127)$$

Hisoblash amalga oshirilgandan keyin $w_1=0.75905$ va $b_1 0.37350$ ga teng qiymat chiqadi. Bu hisoblash jarayoni bitta iteratsiya(epok) deyiladi. Bunda *gradiyent* va *bias* qiymatlarini o'zgarishini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi iteratsiyalarni hisoblashni osonlashtirish uchun dasturiy algoritmini tuzib chiqamiz.

```

from numpy import *
import matplotlib.pyplot as plt
import numpy as np
n=int(input('n='))
f=open('salary_data.csv','r')
x = []
y = []
for i in f:
    a = i.split(",")
    x.append(float(a[0]))
    y.append(float(a[1]))
print(max(x))
#print(x, y)
x_min=min(x)
x_max=max(x)
y_min=min(y)
y_max=max(y)
#print(x_min,x_max)
#print(y_min,y_max)
z=[]
k=[]
for i in range(0,n):
    z.append(((x[i]-x_min)/(x_max-x_min)))
    k.append(((y[i]-y_min)/(y_max-y_min)))

```

```

print(z[i], k[i])
w = []
w.append(0.8)
w_sum = 0
b_sum = 0
b = []
b.append(0.4)
for i in range(1, 20):
    w.append(w[i-1] - 0.001 * (w[i-1] * z[i-1] + b[i-1] - k[i-1]) * z[i-1])
    b.append(b[i-1] - 0.001 * (w[i-1] * z[i-1] + b[i-1] - k[i-1]))
    w_sum += w[i-1]
    b_sum += b[i-1]
new_w = w_sum/20
new_b = b_sum/20
print(new_w, new_b)

```

Natija:

new_w=0.75905 new_b=0.37350

Keyingi bosqichda hisoblab topilgan w_i va b_i qiymatlarini optimalligini tekshirish uchun xatolik funksiyasida tekshirib ko'ramiz. Xatolik aniqligini dataset qiymatlariga nisbatan 0.001 dan katta 0.01 kichik qilib ixtiyoriy tanlab olamiz. Birinchi navbatda r_i xatolikni hisoblab chiqamiz.

$$r_i(loss) = (w_i \cdot x_i + b_i - y_i)^2$$

$$r_1(loss) = (0,75905 \cdot 0 + 0,3735 - 0,01904)^2 = 0,12564$$

Yuqoridagi ketma-ketlikni davom ettirib datasetning o'qitish uchun ajratilgan barcha qiymatlari uchun xatoliklarni(r) hisoblaymiz va o'rtacha qiymatini 0,001 dan katta 0,01 oraliqda tekshirib ko'ramiz.

$$0,001 \leq r(loss) \leq 0,01$$

$$0,001 \leq \frac{1}{N} \sum_{i=0}^N (w_i \cdot x_i + b_i - y_i)^2 \leq 0,01$$

Hisoblab chiqilgan xatolikning o'rtacha qiymati belgilab olingan oraliqqa tushsa iteratsiya jarayoni tugaydi aks holda xatolik shu oraliqqa tushguncha, ya'ni xatolik qiymati minimal qiymatga erishguncha iteratsiya davom etadi. Bu hisoblashlarning dasturiy algoritmini tuzib chiqamiz.

```

r = []
r_sum = 0
for i in range(0, 20):
    r.append(new_w * z[i] + new_b - k[i])
    r_sum += r[i]
r_new = r_sum/20
if 0.001 < r_new and r_new < 0.01:
    t = new_w
    f = new_b

```

Tuzib chiqilgan dasturiy algoritm asosida, xatolik qiymatini belgilab olingan oraliqqa tushguncha iteratsiyani davom ettiramiz. Belgilangan oraliqqa mos kelganda shart operatori yordamida shu qiymatga mos keluvchi gradiyent va biasning qiymatini boshqa o‘zgaruvchiga o‘zlashtiramiz. Topilgan gradiyent va biasning yangi qiymatlaridan foydalanib datasetning 1/3 qismini testlashni amalga oshiramiz va xatoligini baholaymiz. Yuqoridagi dasturiy algoritmlarni birlashtirib dinamik holatga keltiramiz.

```

import matplotlib.pyplot as plt
import numpy as np

n=int(input("epoklar soni n="))
m=int(input("o'qitish sarflanadigan dataset soni m="))
count = 0
w0 = 2
b0 = 1
while True:
    if count == n:
        break
    w = []
    w.append(w0)
    w_sum = 0
    b_sum = 0
    b = []
    b.append(b0)
    for i in range(1, m):
        w.append(w[i-1] - 0.001 * (w[i-1] * z[i-1] + b[i-1] - k[i-1]) * z[i-1])
        b.append(b[i-1] - 0.001 * (w[i-1] * z[i-1] + b[i-1] - k[i-1]))
        w_sum += w[i-1]
        b_sum += b[i-1]
    new_w = w_sum/20

```


```

new_b = b_sum/20
w0 = new_w
b0 = new_b
r = []
r_sum = 0
for i in range(0, 20):
    r.append(new_w * z[i] + new_b - k[i])
    r_sum += r[i]
r_new = r_sum/20
if 0.001 < abs(r_new) and abs(r_new) < 0.01:
    t = new_w
    f = new_b
    print(t, f)
count += 1
Natija: epoklar soni n=35
o'qitish sarflanadigan dataset soni m=20
new_w1=0.36167 new_b1=0.13979
new_w2=0.34357 new_b2=0.13230

```

3.2.2. Polinomial regressiya

Polinomial regressiya-kiruvchi ma'lumotlari xotik ko'rinishda bo'ladi. Ma'lumotlar to'plamini taxminan ifoda etadigan chiziq o'z-o'zidan to'g'ri chiziq bo'la olmaydi. Bunday murakkab ma'lumotlar to'plamini ifoda etish uchun hadlari murakkab kombinatsiyaga ega funksiyalardan foydalanish talab etiladi.



3.2.3-rasm. Polinomial regressiyaning tasodifiy qiymatlar grafiği

Kiruvchi qiymatlar murakkab xususiyatga ega ma'lumotlar to'plami bo'lsa, unda kvadratik, kubik va boshqa yuqori darajali funksiyalardan foydalanib murakkab model tuzib olinadi.

$$f(x) = w_0 + w_1 \cdot x_1 + w_1^{(2)} \cdot x_1^{(2)} + w_2 \cdot x_2^{(3)} + w_3 \cdot x_3^{(4)} \dots + w_n \cdot x_n^{(n)} \quad (3.2.3)$$

Murakkab jarayonni osonlashtirish maqsadida darajaga oshirilgan ifodalarga belgilash kiritib olish kerak.

$$x_2 = x_1^2; \quad x_3 = x_1^3 \dots x_n = x_1^n \quad (3.2.4)$$

Belgilash amalga oshirilgandan keyin ko'p o'zgaruvchili chiziqli regressiya formulasiga mos tushadi va shu kabi yechiladi.

$$f(x) = w_0 + w_1 \cdot x_1 + w_2 \cdot x_2 + \dots + w_n \cdot x_n \quad (3.2.5)$$


Ikkinchi darajali polinomial funksiyalarning noma'lum koeffitsiyentlari 3.2.3-formuladan foydalanib topilganda, ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni aniqligi oshadi ammo tezligi kamayib ketadi. Shunga asosan xususiyatlari ikki va undan ortiq masalalarni yechishda, o'qituvchili o'qitish usulning ikkinchi va undan yuqori darajali polinomial modellaridan foydalanish maqbul yechim hisoblanadi.

3.2.3. Logistik regressiya

Logistik regressiya - Sigmoid funksiya logistika funksiyasi deb ham ataladi va uning asosiy vazifasi kiruvchi qiymatlarning (0 va 1) oraliqdagi qiymatini aniqlashdir. Mashinali o'qitishda asosiy sigmoid funksiya yordamida bashorat qilingan qiymatlarni ehtimoliysini aniqlashda foydalanilsa, neyron tarmoqlarda bu funksiyadan faollashtiruvchi funksiya sifatida foydalaniladi.

$$\sigma(z) = \frac{1}{1+e^{-z}} \quad (3.2.6)$$

Bu formulada $\sigma(z)$ - sigmoid funksiya. Z - sigmoid funksiyaga kiruvchi qiymatlar. Sigmoid funksiya grafik ko'rinishida quyidagicha tasvirlanadi.



3.2.4 – rasm. Sigmoid funksiya grafik ko‘rinishi

Grafikdan ko‘rinib turibdiki sigmoid funksiyaning minimal qiymati 0 ga cheksiz yaqinlashsa maksimal qiymati 1 ga cheksiz yaqinlashadi. Ya’ni ushbu funksiya (0,1) oraliqda yotadi.

Agar kiruvchi qiymatlar musbat sonlardan tashkil topgan bo‘lsa funksiyaning qiymati 1 ga intiladi, manfiy sonlardan tashkil topgan bo‘lsa 0 ga intiladi.

Bu funksiya neyron tarmoqlarga tadbiiq qilinsa quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi. (3.2.7- formula)

$$\sigma(z) = \sigma(X \cdot A^T) \quad (3.2.7)$$

To‘liqroq ko‘rinishda quyidagicha yozish mumkin.

$$\sigma(z) = \frac{1}{1 + e^{-(X \cdot A^T)}} \quad (3.2.8)$$

Bu yerda $Z = X \cdot A^T$ qabul qilingan.

Misol: Ijtimoiy tarmoq saytlaridan olingan turli foydalanuvchilarning ma’lumotlarini o‘z ichiga olgan ma’lumotlar to‘plami mavjud. Bunda yaqinda yangi avtomobilini ishlab chiqargan avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyaning sotuv ma’lumotlari bor. Ma’lumotlar to‘plamidan qancha foydalanuvchi mashinani sotib olishni xohlayotganini oldindan bashoratlashni amalga oshiramiz.

Ushbu masalani yechish uchun Logistik regressiya algoritmidan foydalanamiz.

3.4-jadval. Avtomobil sotuvi to'g'risida olingan dataset

| User ID | Gender | Age | EstimatedSalary | Purchased |
|----------|--------|-----|-----------------|-----------|
| 15624510 | Male | 19 | 15000 | 0 |
| 15810944 | Male | 35 | 20000 | 0 |
| 15668575 | Female | 26 | 43000 | 0 |
| 15603246 | Female | 27 | 57000 | 0 |
| 15804002 | Male | 19 | 76000 | 0 |
| 15728773 | Male | 27 | 58000 | 0 |
| 15598044 | Female | 27 | 84000 | 0 |
| 15694829 | Female | 32 | 150000 | 1 |
| 15600575 | Male | 25 | 33000 | 0 |
| 15727311 | Female | 35 | 65000 | 0 |
| 15570769 | Female | 26 | 80000 | 0 |
| 15606274 | Female | 26 | 52000 | 0 |
| 15746139 | Male | 20 | 86000 | 0 |
| 15704987 | Male | 32 | 18000 | 0 |
| 15628972 | Male | 18 | 82000 | 0 |
| 15697686 | Male | 29 | 80000 | 0 |
| 15733883 | Male | 47 | 25000 | 1 |
| 15617482 | Male | 45 | 26000 | 1 |
| 15704583 | Male | 46 | 28000 | 1 |
| 15621083 | Female | 48 | 29000 | 1 |
| 15649487 | Male | 45 | 22000 | 1 |
| 15736760 | Female | 47 | 49000 | 1 |

Ma'lumotlar to'plami quyidagi 3.4-jadvalda keltirilgan. Ushbu masalada biz sotib olingan avtomobil (bog'liq o'zgaruvchi), yosh va ish haqi (mustaqil o'zgaruvchilar) yordamida bashorat qilamiz.


```
import numpy as np
import pandas as pd
import matplotlib.pyplot as plt
import seaborn as sns
from sklearn.model_selection import train_test_split
from sklearn.preprocessing import StandardScaler
from sklearn.linear_model import LogisticRegression
from sklearn.metrics import confusion_matrix, accuracy_score, precision_score, recall_score,
roc_curve, auc
# Ma'lumotlarni yuklash
df = pd.read_csv("./User_Data.csv")
# X va Y ni tanlash
x = df.iloc[:, [2, 3]].values
y = df.iloc[:, 4].values
```



```


# Datasetni o'qish va sinov qatorlarga bo'lish
x_train, x_test, y_train, y_test = train_test_split(x, y, test_size=0.2)
# X larni standartlash
standard_x = StandardScaler()
x_train = standard_x.fit_transform(x_train)
x_test = standard_x.transform(x_test)
# Logistik regressiya modelini yaratish
model = LogisticRegression()
# Modelni o'qitish
model.fit(x_train, y_train)
# Test qatorida bashorat qilish
y_pred = model.predict(x_test)
# Bashorat qiymatlarini ko'rsatish
print("y_pred:", y_pred)
# Confusion matrixni hisoblash
cfm = confusion_matrix(y_test, y_pred)
# Confusion matrixni ko'rsatish
print("Confusion Matrix:")
print(cfm)
# Qo'shimcha metrikalarni hisoblash
accuracy = accuracy_score(y_test, y_pred)
precision = precision_score(y_test, y_pred)
recall = recall_score(y_test, y_pred)
# Qo'shimcha metrikalarni ko'rsatish
print("Accuracy:", accuracy)
print("Precision:", precision)
print("Recall:", recall)
# Confusion matrixni chizish
sns.heatmap(cfm, annot=True, fmt="d", cmap="Blues", cbar=False)
plt.xlabel('Predicted')
plt.ylabel('True')
plt.title('Confusion Matrix')
plt.show()
# ROC kurvani chizish
y_prob = model.predict_proba(x_test)[: , 1]
fpr, tpr, thresholds = roc_curve(y_test, y_prob)
roc_auc = auc(fpr, tpr)
# Scatter plot chizish
plt.figure(figsize=(10, 6))
plt.scatter(X_test[: , 1], Y_test, label='Test qiymatlar', color='red')
plt.scatter(X_test[: , 1], Y_pred, label='Bashorat qiymatlar', color='green')
plt.xlabel('Taxminiy ish haqi')
plt.ylabel('Haqiqiy')
plt.title('Test va Bashorat Qilingan Qiymatlar')
plt.legend()
plt.show()

```



3.2.5 Logistik regressiya algoritmi uchun chalkashlik matritsasi.

Chalkashlik matritsasiidan ko'rishimiz mumkin, modelimiz 0 sinfga tegishli jami 52 ta qiymatdan 50 tasini to'g'ri aniqlagan, 2 tasini 1 sinfga tegishli deb adashgan. Hamda 1-sinfga tegishli 28 ta qiymatimizdan 19 tasini to'g'ri aniqlagan va 9 tasini 0 sinf deb adashganligini ko'rishimiz mumkin.




3.2.6 –rasm. Test va boshorat nuqtalar

Bu grafikdan test qiymatlari va bashorat qiymatlari qanchalik aniq topilganligini ko'rishimiz mumkin.


3.2.4. K-NN algoritmi

Bu algoritim mavjud ma'lumotlar yordamida eng yaqin masofani aniqlab oladi va o'xshashlik asosida yangi ma'lumotlarni tasniflaydi. K-NN algoritmi regressiya uchun ham, tasniflash uchun ham qo'llanilishi mumkin, lekin u asosan tasniflash muammolarini hal qilishda ishlatiladi. Misol uchun kiruvchi tasvirlardan aylana yoki aylana emasligini ajratish mumkin.



3.2.7-rasm. Ma'lumotlarni tasniflash

Tasniflashni amalga oshirish uchun birinchi qo'shnilar soni tanlab olinadi, odatda $k=5$ olinadi. Keyinchalik, ma'lumotlar nuqtalari orasidagi *Evklid masofasi* hisoblanadi.




3.2.8-rasm. Eng qisqa masofani topish grafigi

Evklid masofasi ikki nuqta orasidagi masofa bo'lib, uni quyidagicha hisoblash mumkin.

$$d = \sqrt{(X_2 - X_1)^2 + (Y_2 - Y_1)^2} \quad (3.2.9)$$

Yuqoridagi formulada d-evklid masofasi. Agarda xususiyatlar soni ikki va undan yuqori bo'lsa, kiruvchi parametr qiymatlari soni o'zgaradi.



3.2.9-rasm. Uch o'lchovli fazo

Analistik geometriyada uch o'lchamli fazodagi har bir nuqta uchta kattalik koordinatalar to'plami sifatida ifodalanadi. Koordinata tekisligida kesishuvchi uchta o'zaro perpendikulyar koordinata o'qi beriladi. Nuqtaning o'rni shu uch o'qqa nisbatan tartiblangan uchlik sonlarni ko'rsatish orqali beriladi. Ushbu raqamlarning har biri tegishli o'q bo'ylab o'lchanadigan boshlang'ich nuqtadan keyingi nuqttagacha bo'lgan masofani ko'rsatadi, bu nuqtadan boshqa ikkita o'q hosil qilgan tekislikkacha bo'lgan masofaga teng bo'ladi.

$$d = \sqrt{(X_2 - X_1)^2 + (Y_2 - Y_1)^2 + (Z_2 - Z_1)^2} \quad (3.2.10)$$


Yuqoridagi formulada d-evklid masofasini uch xil parametr asosida aniqlash keltirilgan.

Misol: Ushbu misolda ma'lumot sifatida 3.4-jadvaldagi datasetdan foydalanib sotib oluvchilarning xarid qobiliyatini bashorat qilish uchun KNN algoritmidan foydalanamiz va aniqlik darajasini tekshiramiz.

```


import pandas as pd
from sklearn.model_selection import train_test_split
from sklearn.neighbors import KNeighborsClassifier
from sklearn.metrics import accuracy_score, confusion_matrix, recall_score, precision_score,
f1_score
import matplotlib.pyplot as plt
import seaborn as sns
# Ma'lumotlarni yuklab olish.
data = pd.read_csv('./User_Data.csv')
X = data[['Age', 'EstimatedSalary']]
y = data['Purchased']
# Ma'lumotlarni trenirovkasi va test qismiga bo'lib ajratib olish
X_train, X_test, y_train, y_test = train_test_split(X, y, test_size=0.2, random_state=42)
# KNN modelini yaratib, ma'lumotlarni o'qitish
knn = KNeighborsClassifier(n_neighbors=3)
knn.fit(X_train, y_train)
# Test ma'lumotlarini o'qib, natijalarni bashorat qilish
y_pred = knn.predict(X_test)
# Anqlik darajasi (accuracy)ni hisoblash
accuracy = accuracy_score(y_test, y_pred)
f1 = f1_score(y_test, y_pred)
ps = precision_score(y_test, y_pred)
rs = recall_score(y_test, y_pred)
print(f"Anqlik darajasi: {accuracy:.2f}")
print(f"f1_score: {f1:.2f}")
print(f"precision_score: {ps:.2f}")
print(f"recall_score: {rs:.2f}")
# Confusion matrixni hisoblash
cm = confusion_matrix(y_test, y_pred)
print("Confusion matrix:")
print(cm)
# Confusion matrixni vizualizatsiya qilish
plt.figure(figsize=(8, 6))
sns.heatmap(cm, annot=True, fmt='g', cmap='Blues', xticklabels=data['Purchased'].unique(),
yticklabels=data['Purchased'].unique())
plt.title('Confusion matrix')
plt.xlabel('Bashorat qilingan natijalar')
plt.ylabel('Haqiqiy natijalar')
plt.show()
plt.figure(figsize=(10, 6))
plt.scatter(X_test[:, 1], Y_test, label='Test qiymatlar', color='red')
plt.scatter(X_test[:, 1], Y_pred, label='Bashorat qiymatlar', color='green')
plt.xlabel('Tahminiy ish haqi')
plt.ylabel('Haqiqiy')
plt.title('Test va Bashorat Qilingan Qiymatlar')
plt.legend()
plt.show()

```




3.2.10 – KNN algoritmi uchun chalkashlik matritsasi

Chalkashlik matritsasiidan ko‘rishimiz mumkinki, algoritmimiz 0 sinfga tegishli jami 52 ta qiymatdan 46 tasini to‘g‘ri aniqlagan 6 tasini 1 sinf deb xato qilgan. Hamda 28 ta 1-sinfga tegishli qiymatlarimizning 18 tasini to‘g‘ri aniqlagan va 10 tasida xato qilgan.



3.2.11 – KNN modeli qaror chegarasi va test qiymatlari

Bu grafikdan ko‘rishimiz mumkin, taxminiy maosh va yoshning bog‘liqlik grafigini ko‘rishimiz mumkin.




3.2.12 – Test va boshorat qiymatlar.

Bu grafikdan ko‘rishimiz mumkin, test qiymatlar va boshorat qiymatlarinig bog‘liqligini va aniq topilgan qiymatlarimizning ustma-ust tushganini ko‘rishimiz mumkin.

3.2.5. Support vektor mashinasi (SVM)

Support vektor mashinasi yoki SVM mashinali o‘qitish algoritmlaridan biri bo‘lib, u tasniflash va regressiya muammolari uchun ishlatiladi. Bugungi kunda asosan tasniflash muammolarini yechish uchun ishlatilmoqda. SVM algoritmi yordamida n o‘lchovli fazoda ma’lumotlarni sinflarga ajrata oladigan eng yaxshi chiziq yoki qaror chegarasini aniqlash mumkin. Bunda eng yaxshi qaror chegarasi giperplan deb ataladi. SVM giperplanni yaratishda yordam beradigan ekstremal nuqtalarni/vektorlarni tanlaydi. Quyidagi diagrammada qaror chegarasi yoki giperplan yordamida tasniflangan ikki xil toifa ko‘rsatilgan.



3.2.13-rasm. SVM qaror chegarasi va geparplan

SVM algoritmi ikkala sinfdagi chiziqning eng yaqin nuqtasini topadi. Ushbu nuqtalar qo'llab-quvvatlash vektorlari deb ataladi. Vektorlar va giper tekislik orasidagi masofa *chekka chegara* deb ataladi. SVM ning maqsadi bu farqni (marge)ni maksimal darajada oshirishdir.

Misol: $A \cdot x + B \cdot y + C = 0$ chiziqli tenglamaga qaraydigan bo'lsak tenglamani quyidagi holatga keltirib olamiz.

$$\frac{A \cdot x}{A} + \frac{B \cdot y}{A} + \frac{C}{A} = 0 \quad (3.2.11)$$

Yuqoridagi tenglama asosida


$$y = m \cdot x + 1 \quad (3.2.12)$$

Hisoblashni amalga oshirish uchun quyidagi jadvaldan foydalanamiz.

3.5-jadval

| guruh | x | y |
|-------|---|---|
| A | 1 | 4 |
| A | 2 | 5 |
| A | 3 | 5 |
| A | 3 | 4 |
| A | 4 | 2 |
| B | 6 | 1 |
| B | 4 | 0 |
| B | 5 | 2 |
| B | 3 | 1 |
| B | 3 | 2 |

Yuqoridagi jadval asosida quyidagi grafikni hosil qilib olamiz



4.2.14-rasm. SVM qaror chegarasi va geparplan

- 1) Grafikdagi 1-to'g'ri chiziq tenglamasini quyidagi ko'rinishga keltirib olamiz $w^T \cdot x_i + b = +1$
- 2) Grafikdagi 2-to'g'ri chiziq tenglamasini quyidagi ko'rinishga keltirib olamiz $w^T \cdot x_i + b = 0$
- 3) Grafikdagi 3-to'g'ri chiziq tenglamasini quyidagi ko'rinishga keltirib olamiz $w^T \cdot x_i + b = -1$. Tenglamalardan A va B sinflar uchun chegraviy shartlarni hosil qilamiz

$$y_i = \begin{cases} -1, & w^T \cdot x_i + b \leq -1 \\ -1, & w^T \cdot x_i + b \geq 1 \end{cases} \quad (3.2.12)$$

Misol: Yuqoridagi ma'lumotlar uchun SVM algoritmini ishlatib ko'ramiz va aniqlik darajalarni solishtiramiz.

```
import pandas as pd
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt
from sklearn.model_selection import train_test_split
from sklearn.svm import SVC
from sklearn.metrics import accuracy_score, precision_score, f1_score, recall_score
from sklearn.preprocessing import StandardScaler
# CSV faylini Pandas DataFrame ga o'qish
df = pd.read_csv("User_Data.csv") # "User_Data.csv" faylini o'z manzilingiz bilan
almashtiring
```

Xususiyatlar (X) va maqsad o'zgaruvchisi (y) ni ajratish

```

X = df[['Age', 'EstimatedSalary']]
y = df['Purchased']

# Ma'lumotlarni o'qish va test qismi uchun ajratish
X_train, X_test, y_train, y_test = train_test_split(X, y, test_size=0.2,
random_state=42)
# Xususiyatlar miqdorini tekshirish - Xususiyatlar o'zgaruvchilarini standartlash


scaler = StandardScaler()
X_train_scaled = scaler.fit_transform(X_train)
X_test_scaled = scaler.transform(X_test)
# Linear kernel'li SVM model yaratish
model = SVC(kernel='linear')
# Modelni standartlangan o'qish ma'lumotlari bilan o'qitish
model.fit(X_train_scaled, y_train)
# Standartlangan test ma'lumotlariga qarab bashorat qilish
y_pred = model.predict(X_test_scaled)
# Bashoratni chiqarish
print("Aniqlik:", accuracy_score(y_test, y_pred))
print("f1_score:", f1_score(y_test, y_pred))
print("recall_score:", recall_score(y_test, y_pred))
print("precision_score:", precision_score(y_test, y_pred))
# Qabul qilingan qaror chegarasini chizish
h = .02 # chiziqlik

x_min, x_max = X_train_scaled[:, 0].min() - 1, X_train_scaled[:, 0].max() + 1
y_min, y_max = X_train_scaled[:, 1].min() - 1, X_train_scaled[:, 1].max() + 1
xx, yy = np.meshgrid(np.arange(x_min, x_max, h), np.arange(y_min, y_max, h))
Z = model.predict(np.c_[xx.ravel(), yy.ravel()])
# Natijani rangli grafikga joylash
Z = Z.reshape(xx.shape)
plt.contourf(xx, yy, Z, cmap=plt.cm.coolwarm, alpha=0.3)
# O'qish nuqtalarini chizish
plt.scatter(X_train_scaled[:, 0], X_train_scaled[:, 1], c=y_train,
cmap=plt.cm.coolwarm, edgecolors='k')
plt.xlabel('Yosh (standartlashtirilgan)')
plt.ylabel('Baho (standartlashtirilgan)')
plt.title("SVM Qabul Qilingan Chegara va O'qish Ma'lumotlari")
plt.show()

```

Ishlab chiqilgan dasturiy algoritmdan olingan natija quyidagi

3.2.15-rasmda keltirilgan.



3.2.15-rasm. SVM algoritmi asosida sinflashtirish

Bu grafikdan ko'rishimiz mumkin, yoshning uni bahosiga bog'liqligini va shunday to'g'ri chiziq o'tkazilganki, u nuqtalarni 2 ta sinfga ajratadi.

3.2.5. Regulyarizatsiya

Ockhamning ustarasi murakkabroq bo'lgan modellardan ko'ra oddiyroq farazlarni afzal ko'rish kerakligini ko'rsatadi.

Ingliz olimi Uilyam Ockham taxminan 1285 yilda tug'ilgan va
1349 yilda vafot etgan faylasuf.

Regulyarizatsiya-mashinali o'qitishning eng muhim tushunchalaridan biridir. Bu usul, modelga qo'shimcha ma'lumot qo'shish orqali bir xil ma'lumotga haddan tashqari moslashib qolishining oldini oladi. Ko'p holatlarda mashinali o'qitish modellari yordamida ma'lumotlarni o'qitganda o'quv xatolik natijasi past chiqadi, ammo test

ma'lumotlarini o'qitganda xatolik yuqori chiqadi. Modelning ko'rmagan ma'lumotlar bilan testlanganda xatolik yuqori chiqishi model haddan tashqari moslashib qolganligini anglatadi. Ushbu muammoni regularizatsiya usuli yordamida hal qilish mumkin. Bu usuldan shunday foydalanish mumkinki, u o'zgaruvchilarning kattaligini kamaytirish orqali modeldagi barcha o'zgaruvchilar yoki xususiyatlarni saqlab qolishga imkon beradi. Demak, u modelni umumlashtirish bilan bir qatorda aniqlikni ham saqlaydi. U asosan xususiyatlar koeffitsiyentini nolga tenglashtiradi yoki kamaytiradi. Oddiy so'zlar bilan aytganda, *“Normallashtirish usulida biz bir xil sonli xususiyatlarni saqlab, xususiyatlarning hajmini kamaytirar edik”* normallashtirish usulining vazifasini bajaradi.

Regularizatsiya ishlash prinsipi. Regularizatsiya murakkab modelni optimallashtirish uchun qo'shimcha ma'lumot qo'shish orqali ishlaydi. Asosan u ikki turga bo'linadi.

- o **Ridge regressiyasi**
- o **Lasso regressiyasi**

Ridge regressiya - bu chiziqli regressiya turlaridan biri bo'lib, unda biz uzoq muddatli bashoratlarni yaxshiroq olishimiz uchun oz miqdordagi tarfakashlik(bias) kiritiladi. Ridge regressiyasi modelning murakkabligini kamaytirish uchun ishlatiladigan tartibga solish usuli. U **L2 regularizatsiyasi** deb ham ataladi. Ushbu usul xarajat funksiyasiga jarima muddatini qo'shish orqali o'zgartiriladi. Modelga qo'shilgan qiymat miqdori **Ridge Regression penalty(Ridge regressiya uchun jarima)** deb ataladi. Biz uni gamma bilan belgilab alohida xususiyatning kvadrat og'irligiga ko'paytirish orqali hisoblashimiz mumkin. Ridge regressiyasi uchun qiymat funktsiya tenglamasi quyidagicha hisoblanadi.

$$\sum_{i=1}^M (y_i - \bar{y}_i)^2 = \sum_{i=1}^M (y_i - \sum_{j=0}^n w_j \cdot x_{ij})^2 + \gamma \sum_{j=0}^n w_j^2 \quad (3.2.13)$$

(3.2.13)-formulada γ -gamma regularizatsiya koeffitsiyenti. Yuqoridagi tenglamada jarima muddati modelning koeffitsiyentlarini tartibga soladi va shuning uchun regressiyasi koeffitsiyentlarning amplitudalarini kamaytiradi, bu esa modelning murakkabligiga ta'sir qiladi. Yuqoridagi tenglamadan ko'rinib turibdiki, agar γ ning qiymatlari nolga yaqin bo'lsa, tenglama chiziqli regressiya modelining qiymat funksiyasiga aylanadi. Demak, γ ning minimal qiymatida model chiziqli regressiya modeliga o'xshaydi. Agar qat'iy o'zgaruvchilar o'rtasida yuqori kollinearlik mavjud bo'lsa, chiziqli yoki polinomli regressiya modellari obyektga moslashib qolish ehtimolligi yuqori bo'ladi, shuning uchun bunday muammolarni hal qilishda **Ridge regressiyasidan** foydalanish mumkin. Namunalardan ko'ra ko'proq parametrlarga ega bo'lsak, muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Lasso regressiyasi - bu modelning murakkabligini kamaytirish uchun yana bir tartibga solish usuli. Bu eng kam mutlaq va tanlash operatori degan ma'noni anglatadi. Bu Ridge regressiyasiga o'xshaydi, faqat jarima atamasi og'irliklar kvadrati o'rniga faqat og'irliklarni o'z ichiga oladi. Mutlaq qiymatlarni qabul qilganligi sababli, uni 0 ga tenglashtirish mumkin, Ridge regressiyasini esa faqat 0 ga yaqinlashtirishi mumkin. U **L1 tartibga solish** deb ham ataladi. Lasso regressiyasining qiymat funksiyasi uchun tenglama quyidagicha bo'ladi.

$$\sum_{i=1}^M (y_i - \bar{y}_i)^2 = \sum_{i=1}^M (y_i - \sum_{j=0}^n w_j \cdot x_{ij})^2 + \gamma \sum_{j=0}^n |w_j| \quad (3.2.13)$$

Shunday qilib, Lasso regressiyasi bizga modeldagi haddan tashqari moslashish va xususiyatlarni tanlashni kamaytirishga yordam beradi.

Ridge regressiyasi va Lasso regressiyasi o'rtasidagi asosiy farq

- **Ridge regressiyasi** asosan modeldagi ortiqcha moslashishni kamaytirish uchun ishlatiladi va u modeldagi barcha xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Koeffitsiyentlarni qisqartirish orqali modelning murakkabligini kamaytiradi.
- **Lasso regressiyasi** modeldagi haddan tashqari moslashishni, shuningdek xususiyatlarni tanlashni kamaytirishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtga kelib bir nechta modellar birlashmasi orqali ma'lumotlarni qayta ishlash va ular asosida sinflashtirish hamda bashoratlash masalalari yechilmoqda. Bu modellardan biri Ensemble learning:

Ensemble learning - bu bir nechta modellarini birlashtirish orqali ularning bashorat qobiliyatlarini yaxshilashga asoslangan yondashuv. Masalan, Random Forests va Gradient Boosting Machines (GBM) **ensemble learningga** misol bo'la oladi. Ensemble learning usullari, alohida modellarga qaraganda ko'pincha yaxshiroq natijalar beradi, chunki ular bir nechta bashoratchilarning "o'rtacha fikri"ni olishadi, bu esa haddan tashqari moslashuv (overfitting) va boshqa muammolarni kamaytiradi.

Ansamblni o'rganish - mashinali o'qitishda kuchli texnika sifatida ajralib turadi, bu modelning ishlashi va bashorat qilish aniqligini yaxshilash uchun xizmat qiladi. Bir nechta modellarning kuchli tomonlarini birlashtirgan holda, ansambl usullari ko'pincha har qanday bitta modeldan ustun bo'lib, ularni mashinali o'qitishda samarali hisoblanadi.

Nazorat savollari.

- 1) Chiziqli regressiya va logistik regressiya o'rtasidagi farqni amaliy misollar bilan tushuntiring?
- 2) O'rta kvadratik xatolik funksiyasi qanday ishlaydi va vazifasini tushuntiring?
- 3) Gradiyent tushish algoritmining asosiy vazifasi nimada to'liqroq yoritib bering?
- 4) Regulyarizatsiyaning nechta turi mavjud?

3.2 bo'lim bo'yicha amaliy qism

3.2 bo'lim bo'yicha amaliy qism quyidagi mavzular bo'yicha keltirilgan. Bunda keltirilgan havola yoki QR-kodni skaner qilish orqali GitHubga to'g'ridan to'g'ri murojat qilib dasturiy kodidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

<https://github.com/TUITAI/>




3.3. O'qituvchisiz o'qitish algoritmlari

O'qituvchili o'qitish mashinali o'qitish algoritmlarining keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Bu usulda mashinani o'qitish uchun yorliqlangan ma'lumotlar to'plamiga asoslanadi. Ammo yorliqlanmagan ma'lumotlar to'plami asosida sinflashtirish masalalarini yechish uchun, o'qituvchisiz o'qitish algoritmlaridan foydalaniladi.

3.3.1. K-Means Clustering

K-Means Clustering - bu o'qituvchisiz o'qitish algoritmi bo'lib, yorliqsiz ma'lumotlar to'plamini turli klasterlarga ajratish. Bu yerda K jarayonda yaratilishi kerak bo'lgan oldindan belgilangan klasterlar yoki guruhlar sonini belgilaydi, agar $K=5$ bo'lsa, klasterlar soni beshta, $K=10$ uchun esa klasterlar soni o'nta bo'ladi va hokazo.



3.3.1-rasm. Klasterlash grafigi

K-means klasterlash algoritmi asosan ikkita vazifani bajaradi:

- K markaz nuqtalari uchun eng yaxshi qiymatni aniqlaydi.
- Har bir ma'lumot nuqtasini eng yaqin k-markaziga bog'laydi.

Guruhlar K nuqta va ma'lumot nuqtalari orasidagi masofani o'lchash orqali K markaz nuqtalari asosida aniqlanadi.

K-Means Clusteringni qanday amalga oshirishni ko'rib chiqamiz.

K-means klasterlash algoritmi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1-qadam: K (Klasterlar) sonini hisoblash.

2-qadam: Klaster markazi sifatida tasodifiy ravishda K ma'lumotlar nuqtalarini tanlash.

3-qadam: Evklid masofa formulasidan foydalanib, har bir ma'lumot nuqtasi va har bir klaster markazi orasidagi masofani o'lchash amalga oshiriladi.

$$D_{masofa} = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2}$$

4-qadam: Har bir ma'lumot nuqtasini markazi ushbu ma'lumotlar nuqtasiga eng yaqin bo'lgan klasterga birlashtiradi.

5-qadam: Yangi tuzilgan klasterlar markazlari qayta hisoblanadi. Klaster markazi ushbu klasterdagi barcha ma'lumotlar nuqtalarining o'rtacha qiymatini olish orqali hisoblanadi.

6-qadam: Quyidagi yakunlash mezonlaridan birortasi bajarilmaguncha protsedurani 3-bosqichdan 5-bosqichgacha takrorlashni davom eting:

- Agar ma'lumotlar nuqtalari bir xil klasterga tushsa
- Maksimal takrorlanishga erishguncha
- Yangi tashkil etilgan klaster markaz nuqtalarida o'zgarmaydi

Misol: Quyidagi berilgan A nuqtalar to'plamini $K=2$ ga teng bo'lgan xol uchun klasterlashni ko'rib chiqamiz;

3.6-jadval. Klasterlash uchun ma'lumotlar to'plami

| A | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| x | 1 | 2 | 5 | 8 | 3 | 1 | 3 | 9 |
| y | 3 | 2 | 8 | 5 | 9 | 7 | 3 | 4 |

Dastlab boshlang'ich klaster markazlarimizni $C_1=(3,3)$; $C_2=(9,4)$ sifatida qabul qilsak. Yuqoridagi ma'lumotlar nuqtalari uchun 1-iteratsiyadan so'ng yangi markazlarni topamiz.

1-qadam. Ma'lumot nuqtalari va Centroid (markas)lar orasidagi masofani toping. Qaysi ma'lumotlar nuqtalari eng yaqin klaster markaziga ko'chiriladigan minimal masofaga ega.

$$D_{j,(masofa)} = \sqrt{(x - x_j)^2 + (y - y_j)^2}$$

1-iteratsiya.

Ma'lumot (A) nuqtalari va K (C₁, C₂) orasidagi masofani hisoblaymiz.

C₁ uchun:

$$\begin{aligned} D_1(C_1) &= \sqrt{(3-1)^2 + (3-3)^2} = 2; & D_2(C_1) &= \sqrt{(3-2)^2 + (3-2)^2} \approx 1,41; \\ D_3(C_1) &= \sqrt{(3-5)^2 + (3-8)^2} \approx 5,38; & D_4(C_1) &= \sqrt{(3-8)^2 + (3-5)^2} \approx 5,38; \\ D_5(C_1) &= \sqrt{(3-3)^2 + (3-9)^2} = 6; & D_6(C_1) &= \sqrt{(3-10)^2 + (3-7)^2} \approx 8,06; \\ D_7(C_1) &= \sqrt{(3-3)^2 + (3-3)^2} = 0; & D_8(C_1) &= \sqrt{(3-9)^2 + (3-4)^2} \approx 6,08. \end{aligned}$$

C₂ uchun:

$$\begin{aligned} D_1(C_2) &= \sqrt{(9-1)^2 + (4-3)^2} \approx 8,06; & D_2(C_2) &= \sqrt{(9-2)^2 + (4-2)^2} \approx 7,28; \\ D_3(C_2) &= \sqrt{(9-5)^2 + (4-8)^2} \approx 5,65; & D_4(C_2) &= \sqrt{(9-8)^2 + (4-5)^2} \approx 1,41; \\ D_5(C_2) &= \sqrt{(9-3)^2 + (4-9)^2} \approx 7,81; & D_6(C_2) &= \sqrt{(9-10)^2 + (4-7)^2} \approx 3,16; \\ D_7(C_2) &= \sqrt{(9-3)^2 + (4-3)^2} \approx 6,08; & D_8(C_2) &= \sqrt{(9-9)^2 + (4-4)^2} = 0. \end{aligned}$$

3.7-jadval. Klaster markazlarini hisoblash

| Nuqtalar | 1-markaz (3,3) masofasi | 2-markaz (9,4) masofasi | Klasterlash |
|----------|----------------------------|----------------------------|----------------|
| A(1,3) | 2 | 8,06 | C ₁ |
| A(2,2) | 1,41 | 7,28 | C ₁ |
| A(5,8) | 5,38 | 6,65 | C ₁ |
| A(8,5) | 5,38 | 1,41 | C ₂ |
| A(3,9) | 6 | 7,81 | C ₁ |
| A(10,7) | 8,06 | 3,16 | C ₂ |
| A(3,3) | 0 | 6,08 | C ₁ |
| A(9,4) | 6,08 | 0 | C ₂ |

1-klaster (C₁) => C₁(1,3), C₁(2,2), C₁(5,8), C₁(3,9), C₁(3,3)

2-klaster (C₂) => C₂(8,5), C₁(10,7), C₁(9,4)

Endi biz yangi klasterlarni qayta hisoblaymiz va yangi klaster markazi ushbu klasterdagi barcha nuqtalarning o'rtacha qiymatini olish orqali hisoblanadi.

1-klasterning yangi markazi =>

$$C_1 = \frac{1}{5}[(1+2+5+3+3), (3+2+8+9+3)] = \frac{1}{5}(13, 25) = (2.6; 5)$$

2-klasterning yangi markazi =>

$$C_2 = \frac{1}{3}[(8+10+9), (5+7+4)] = \frac{1}{3}(27, 16) = (9; 5.3)$$

1-iteratsiya tugadi. Keyingi jarayon ham xuddi 1-iteratsiya jarayoni singari davom etadi va yangi markaz nuqtalarimizni Evklid formulasi yordamida ma'lumotlar nuqtalari va yangi markaz nuqtalari orasidagi masofani hisoblash va klaster guruhlarini topish uchun takrorlaymiz.

Nazorat savollari

- 1) Boshlang'ich klaster markazlari qanday hisoblanadi?
- 2) K-Means Clustering qaysi turdagi algoritm?
- 3) Support Vector Machine (SVM) algoritmi logistik regressiya chiziqli regressiyadan qanday farq qiladi amaliy misollar bilan tushuntiring?

3.3-bo'lim bo'yicha amaliy qism

3.3-bo'lim bo'yicha amaliy qism quyidagi mavzular bo'yicha keltirilgan. Bunda keltirilgan havola yoki QR kodni skaner qilish orqali GitHubga to'g'ridan to'g'ri murojat qilib dasturiy kodidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

<https://github.com/TUITAI/>




IV.BOB. SUN'IY NEYRON TARMOQLAR

Sun'iy neyron biologik neyronlardan ilhomlanib ishlab chiqilgan matematik model va algoritmlar to'plamidir. Sun'iy neyron bir nechta kiruvchi qiymatlarni qabul qilish, ushbu kiruvchi qiymatlarga mos chiquvchi qiymatlarni ishlab chiqish uchun ularni jamlaydigan funksiyadir.

4.1. Sun'iy neyron tarmoqlarga kirish


Neyron tarmoqlar - mashinali o'qitish algoritmlarining bir turi bo'lib, kiruvchi qiymatlar ustida turli xil hisoblashlarni va funksiyalar kombinatsiyasini qo'llab, kerakli natijani hisoblaydi. Neyron tarmoqlar matematik modeli inson miyasidagi asab tolalarining ishlashidan ilhomlanib ishlab chiqilgan bo'lib, bir necha qatlamlardan iborat bo'ladi. Neyron tarmoq va neyrokompyuter texnologiyalari asoschilari strukturaviy va funksional jihatdan inson miyasiga mos keladigan elektron qurilmalarni yaratishni maqsad qilgan. Neyron deb ataladigan elementlardan tashkil topgan inson asab tizimi nihoyatda murakkab. Taxminan 10^{11} ta neyron bo'lib, bir metr yoki undan ortiq uzunlikdagi 10^{15} ta uzatish va ulanishlarida ishtirok etadi. Har bir neyronning o'ziga xos qobiliyati va xususiyatlari bor bo'lib ularda qabul qilish, qayta ishlash va uzatish imkoniyatlari mavjud. Xususan, 4.1.1 - rasmda inson miyasidagi asab tolalarining bir - biriga ma'lumot almashishi ifodalovchi grafik keltirilgan.



4.1.1 - rasm. Inson asab tolalari ishlashi

Neyron uch qismdan iborat: **hujayra tanasi(nucleus)**, **dendritlar(dendrites)** va **akson(axon)**. Dendritlar nerv hujayrasi tanasidan boshqa neyronlarga o'tadi va u yerda (sinapsislar) ulanish nuqtalarida kiruvchi qiymatlarni qabul qiladilar. Qabul qilingan kiruvchi qiymatlar neyron tanasiga uzatiladi. Bu yerda ular umumlashtiriladi va ba'zi kirishlar neyronni qo'zg'atishga intiladi, boshqalari uning qo'zg'alishini oldini olish uchun harakat qiladi. Neyron tanasidagi umumiy qo'zg'alish ma'lum chegaradan oshib ketganda, neyron qo'zg'aladi va akson bo'ylab boshqa neyronlarga signal yuboradi.

Neyron kirish o'zgaruvchilarning ustida matematik amallar bajaradi va natijani chiqaradi, bu neyron elementi deb ataladi.



4.1.2 – rasm. Neyron elementi

Ko'rinib turibdiki neyronga o'zgaruvchilari (x_1, x_2 va x_3) ko'rinishda kiritiladi va ular ustida turli matematik amallar bajariladi. Keyin esa natija neyron tarmog'ining boshqa qatlamlariga uzatiladi (ushbu element oxirgi qatlam bo'lsa, u holda natija bashorat qilingan natija sifatida tanlanadi). Neyronning kirishi ma'lum bir ma'lumot to'plamini oladi, ularning har biri boshqa neyronning chiqishidir. Har bir kirish sinaptik quvvatga o'xshash mos keladigan og'irlik bilan ko'paytiriladi va barcha ma'lumotlar yig'iladi hamda faollashuv darajasi aniqlanadi. Kirish o'zgaruvchilari tegishli "og'irlik" w_1, w_2, \dots, w_n bilan ko'paytiriladi. O'zgaruvchilari ustida

matematik amallar, chiziqli regressiyada bo'lganidek $f(x)$ funksiya hisoblab olinadi.


$$f(x) = w_1 \cdot x_1 + w_2 \cdot x_2 + w_3 \cdot x_3 \dots w_n \cdot x_n + b \quad (4.1.1)$$

w_0 va x_0 o'rniga b ya'ni bias qo'llanilmoqda, chunki amallarni bajarish jarayoni uzluksiz. Hisob kitoblarda, ayniqsa, gradiyent tushish amalida ushbu usul qulayroq bo'ladi. Formulaning vektor ko'rinishi

$$Z = f(x) = X \cdot A^T \quad (4.1.2)$$

w_1, w_2, \dots, w_n va b - neyronning parametrlari bo'lib, n - kiruvchi elementlar soniga bog'liqdir. $f(x)$ funksiyani hisoblab olganimizdan so'ng aktivlashtirish ($h_{a_i}(x)$) funksiyasini tanlab olishimiz zarur. Aktivlashtirish funksiyasi sifatida Sigmoid, Relu, Softmax, Radial bazis va boshqa funksiyalar ishlatiladi.

Neyron tarmoqlar arxitekturasi – bir nechta neyronning o'zaro tartiblangan holda bir – biri bilan bog'lanishi *neyron tarmoq* deb ataladi. Neyron tarmoqning kirish qatlamida kirish o'zgaruvchilari joylashadi, yashirin qatlamda esa bir qancha neyron qatlamlari bo'ladi. Yashirin qatlamning o'zi ham bir nechta qatlamlardan iborat bo'lishi mumkin. Chiqish qatlamida esa tarmoqdan chiquvchi natijalarni hisoblovchi neyronlar joylashadi.



4.1.3-rasm. Eng sodda neyron tarmoq arxitekturasi

Yuqoridagi rasmda 3 ta qatlamdan iborat bo‘lgan neyron tasvirlangan. Birinchi qatlam *kirish qatlami*, ikkinchi qatlam *yashirin qatlam* va uchinchi qatlam *chiqish qatlami*. Bu yerda x_i - kiuvchi o‘zgaruvchilar. $C_i^{(2)}$ - yashirin qatlam natijalari. $C_i^{(3)}$ – chiqish qatlami natijalari. Neyron tarmoqlarda oldinga va orqaga siljish alohida ahamiyat kasb etadi. Ikki holat uchun ham alohida algoritmlar ishlab chiqilgan.

4.1.1. Eng sodda perseptron

Eng sodda perseptron — bu sun’iy neyronlarning eng oddiy va asosiy turi bo‘lib, u binar (ikkilik holat) tasniflash vazifalarini bajarish uchun mo‘ljallangan. Perseptron 1943-yilda Uorren Makkaloch va Uolter Pits tomonidan ixtiro qilingan .


$$W_i = \{W_1, W_2, W_3, \dots, W_N\} \quad (4.1.3)$$

$$x(t) = \{x_1, x_2, \dots, x_N\} \quad (4.1.4)$$

Boshqacha qilib aytganda $x(t)$ vektor komponentlari w_i vazn koeffitsiyentlari bilan quyidagi keltirilgan 4.1.5-formula asosida hisoblanadi.

$$u_i = \sum_{i=1}^N W_i \cdot x_i \quad (4.1.5)$$

Bu yerda: u_i - bashoratlashdan hosil bo‘lgan qiymatlar yig‘indisi.



4.1.4-rasm. Eng sodda neyron modeli

Neyrondan chiquvchi o'zgaruvchilar qiymati quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$y_i = f(u_i) \quad (4.1.6)$$

Bu yerda y_i - neyronning aktivlash funksiyasi. Odatda aktivlash funksiyasi sifatida uzluksiz funksiyalar ishlatiladi.

Misol: Eng sodda perseptron tarmog'idan foydalanib hisoblashlarni amalga oshiramiz. Model tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat.

1. Input - x_i
2. Vazn - w_i
3. Bias - b
4. Aktivlash funksiyasi $y_i = \frac{1}{1+e^{-f(u_i)}}$
5. Sigmoid funksiya
6. Chiziqli model $u_i = w_i \cdot x_i + b$
7. Kiruvchi qiymatlar:

$x_0=2$, $w=0.5$, $b=1$ bu qiymatlar ixtiyoriy tanlab olingan.

1-qadam. Chiziqli modelni hisoblash.

$$u_0 = w_0 \cdot x_0 + b$$

$$u_0 = 0.5 \cdot 2 + 1 = 2$$

2- qadam. Aktivlash funksiyasini hisoblash.

$$y_0 = \frac{1}{1 + e^{-f(u_0)}}$$

$$y_0 = \frac{1}{1 + e^{-2}} \approx 0.8808$$

Yuqoridagi neyron tarmoq qatlamidan birinchi chiquvchi qiymat natijasini hisoblashni amalga oshirdik.

Neyron tarmoqni o'rganish, vaqt o'tishi bilan tuzilishiga tuzatishlar kiritish qobiliyati uni mashinani o'rganish sohasida juda foydali qiladi. Bu atamani 1959-yilda chop etilgan "Shashka o'yinidan foydalangan holda mashinani o'rganish bo'yicha ba'zi tadqiqotlar" nomli maqoladan kelib chiqish mumkin, unda kompyuter olimi Artur Samuel shashka o'ynash uchun "o'z-o'zini o'rganish" dasturini tavsiflaydi. Kompyuterga aniq dasturlashsiz o'rganish imkonini beruvchi algoritm tushunchasi mashinali o'qitishning asosidir.

4.2. Chuqur o'qitish algoritmlari

Chuqur o'qitish - sun'iy neyron tarmoqlarga asoslangan mashinali o'qitish va sun'iy intellektning kichik bir bo'lagi hisoblanadi. Chuqur o'qitishda *chuqur* so'zi neyron tarmog'idagi qatlamlar sonini anglatadi.

Chuqur o'qitish (Deep Learning)-bu inson miyasining tuzilishi va funksiyasi asosida ishlab chiqilgan algoritmlar to'plami. U mashinani o'rgatish va aniq natijalarni bashorat qilish uchun juda ko'p tuzilgan ma'lumotlardan foydalanadi. Mashinali o'qitish va chuqur o'qitish texnologiyalari o'rtasidagi asosiy farq ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni hisoblanadi. Mashinali o'qitishda o'rganish uchun saralangan va saralanmagan ma'lumotlardan foydalaniladi, chuqur o'qitishda esa modellarni o'rgatish uchun neyron tarmoqlardan foydalaniladi. Mashinali

o'qitishda, agar model noto'g'ri natijalarni bashorat qilsa, biz uni nazorat ostida to'g'irlashimiz mumkin. Chuqur o'qitish usullarida esa bu muammolar avtomatik ravishda hal qilinadi va biror o'zgartirish kiritish shart emas. O'z-o'zidan boshqariladigan avtomobillar chuqur o'qitish tushunchasiga eng yaxshi misol bo'la oladi. *Chuqur o'qitish algoritmlari yordamida tasvirni tanish, ovozni aniqlash, mahsulotni tavsiya qilish tizimlari, tabiiy tilni qayta ishlash* va aniqroq bashoratlash muammolarini hal qilish mumkin. Chuqur o'qitish kirish qatlamlari, yashirin qatlamlar va chiqish qatlamlari kabi turli qatlamlarga ega bo'lgan neyron tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Kirish qatlami kiritilgan ma'lumotlarni qabul qiladi. Yashirin qatlamlar ma'lumotlardan har qanday yashirin shakl va xususiyatni ajratib olish uchun ishlatiladi va chiqish qatlamlari kutilgan natijalarni chiqarib beradi. Chuqur o'qitish tarmoqlarining bir nechta turlari mavjud. Bular quyidagilar:

Oldinga harakatlanuvchi neyron tarmoqlar(Feedforward Neural Networks)

Ko'p qatlamli perseptron

Konvolyutsion neyron tarmoq (CNN)


Takroriy neyron tarmoq(RNN)

Neyron tarmoqlarining ko'plab turlari mavjud ulardan biri **Oldinga harakatlanuvchi(feedforward)** neyron tarmoq berilgan x kirishlari bo'yicha bashoratlash funksiyasini quyidagicha amalga oshiradi:

$$f(x) = f_n(f_{n-1}(\dots f_2(f_1(x)))) \quad 4.1.7$$

Har bir f_i funksiya qiymatlar vektorini (massiv yoki ro'yxat) boshqa qiymatlar vektoriga biriktiradi. f_i funksiya i - qatlam bo'lib, kompozitsiyaga kiritilgan funksiyalar soni, n neyron tarmog'ining chuqurligini bildiradi. f_n oxirgi qatlam **chiqish qatlami** hisoblanadi. Boshqa qatlamlar esa **yashirin qatlamlar** deb ataladi. Ba'zida x **kirish qatlami** deb ataladi. Qatlamning chiqish vektorining har bir komponenti

birlik deb ataladi. “Chuqurlik” (deep) atamasi chuqur oʻrganishda tarmoq chuqurligini koʻrsatadi. Oldinga harakatlanuvchi neyron tarmoqlar har bir f_i qatlam kirishi berilgan holda chiqariladigan qiymatlarning oʻrganiladigan parametrlari bilan chiziqli funktsiya boʻlib, keyin chiziqli boʻlmagan aktivatsiya funktsiyasi qoʻllaniladi.




4.1.5-rasm.Uchtalik chuqurlikka ega oldinga harakatlanuvchi neyron tarmoq

Pastda kirish xususiyatlari berilgan kirish qatlami joylashgan. Yuqorida esa kerakli xususiyatlar uchun bashoratlar qiladigan chiqish qatlami mavjud. Har bir zich chiziqli funktsiyada chap tomondagi kirish qiymati 1 ga teng boʻlib, har bir yoy uchun parametr mavjud. Har bir qiymatga aktivatsiya funktsiyasi qoʻllaniladi. Neyron tarmoqlar vaznli summalarini hisoblab chiqadi. Ogʻirliklarning hisoblangan yigʻindisi yashirin qatlamlarda faollashtirish funktsiyasiga kirish sifatida uzatiladi. Faollashtirish funktsiyasi kirishlarni kerakli chiqishga moslashtirish funktsiyasidir. Bu funktsiyaga kirish sifatida “kirishning vaznli yigʻindisi” ni oladi, egilish qoʻshadi va neyronni

yoqish kerakmi yoki yo'qligini hal qiladi. Chiqish qatlami prognoz qilingan natijani beradi va model chiqishi haqiqiy chiqish bilan taqqoslanadi. Neyron tarmoqni o'rgatgandan so'ng, model tarmoqning ishlashini yaxshilash uchun orqaga tarqalish usulidan foydalanadi. Qiymat funksiyasi xatolik darajasini kamaytirishga yordam beradi. Kirish qatlamidagi neyronlar soni ma'lumotlardagi xususiyatlar soniga teng va juda kam hollarda, tarafkashlik uchun bitta kirish qatlami bo'ladi. Holbuki, chiqishdagi neyronlar soni modelning regressor yoki tasniflagich sifatida ishlatilishiga bog'liq. Agar model regressor bo'lsa, chiqish qatlami faqat bitta neyronga ega bo'ladi, lekin agar model klassifikator bo'lsa, u modelning sinf yorlig'iga qarab bitta neyron yoki bir nechta neyronga ega bo'ladi.

4.2.1. Ko'p qatlamli perseptron

Eng ko'p tarqalgan neyron tarmoq modeliga misol qilib ko'p qatlamli perseptronni (KQP) keltirish mumkin. KQP ning strukturasi sxemasi quyidagi 4.2.1-rasmda keltirilgan.



4.2.1 – rasmda. Uch qatlamli perseptron

Neyron tarmoq optimal bashoratlashni amalga oshirish uchun o'qitish (Back Propagation Error (BP)) ni amalga oshirish zarur. BP -- algoritmi talab qilingan va chiquvchi tarmoq tomonidan generatsiyalangan qiymat

funksiyasini minimallashtirilgan optimizatsiyalashning gradiyentga asoslangan algoritmi sanaladi.

O'qitish (Trening)ning maqsadi-neyronlar orasidagi bog'lanishlarning vaznlarini to'g'irlash orqali chiqish va kirishning kerakli funksional nisbatlarini aniqlashdir. Ko'p qatlamli perseptronidan foydalanishda asosiy maqsad omillari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. Ko'p o'zgaruvchili ma'lumotlarni sinflashtirishda perseptronning chiquvchi sinflarida taqdim etishni amalga oshiradi va unga tegishli har bir sinf ma'lumotlari uchun parametrlarini optimallashtiradi. Perseptron sinflashtirish uchun cheklovlarining optimal kombinatsiyasini topishi mumkin. Buning uchun kirish belgilarini taqsimlash to'g'risida qat'iy taxminlarga hojat yo'q.

Perseptron—bu parallel tizimlardan foydalanishga imkon beradigan yuqori darajadagi tezkorlikka ega struktura.

Ko'p qatlamli perseptronning kamchiligi vaqt o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan ketma-ketliklar uchun emas, balki statik ma'lumotlarni tanish uchun ishlab chiqilgan.

4.2.2. ReLU funksiyasi

Faollashtirish funksiyalari neyron tarmoqlarida (NN) ajralmas rol o'ynaydi, chunki ular tarmoqqa chiziqli regressiyadan ko'ra murakkabroq xususiyatlar va funksiyalarni o'rganish imkonini beruvchi chiziqli bo'lmagan jarayonni hosil qiladi. Eng ko'p qo'llaniladigan faollashtirish funksiyalaridan biri bu Rectified Linear Unit (ReLU) bo'lib, u nazariy jihatdan NN larga keng ko'lamli uzluksiz funksiyalarni yaqinlashtirish imkonini beradi.


ReLU neyron tarmoqlarni o'qitishda keng tarqalgan muammolardan biri bo'lgan, gradiyent yo'qolish muammosining oldini olish qobiliyati tufayli boshqa aktivlash funksiyalaridan ajralib turadi. Yo'qolgan gradiyent muammosi, yo'qotish funksiyasining gradiyentlari

juda kichik bo'lib, o'qitish jarayonini sekinlashtirganda yoki uning butunlay to'xtab qolishiga olib kelganda paydo bo'ladi. ReLU musbat kirishlar uchun doimiy gradiyent 1 ga ega bo'lgani uchun bu muammoni bartaraf etishga yordam beradi.

Matematik jihatdan u

$$f(x) = x^+ = \max(0, x) = \frac{x + |x|}{2} = \begin{cases} x & \text{if } x > 0, \\ 0 & \text{otherwise,} \end{cases} \quad (4.2.1.)$$

sifatida aniqlanadi. Vizual ravishda, u quyidagicha ko'rinadi:




4.2.2-rasm. ReLU aktivlash funksiyasining grafik ko'rinishi

ReLU neyron tarmoqlarda, ayniqsa CNNlarda eng ko'p ishlatiladigan faollashtirish funksiyasidir. Uning quyidagi ikkita turi mavjud.

Leaky ReLU va Parametrik ReLU (PReLU)

Leaky ReLU umuman nol o'rniga manfiy qiymatlar uchun kichik nishabga ega. Masalan, Leaky ReLU $x < 0$ bo'lganda $y = 0,01 * x$ bo'lishi mumkin.



4.2.3-rasm. Leaky ReLU va Parametrik ReLU (PReLU) aktivlash funksiyasining grafik ko'rinishi

Parametrik ReLU (PReLU) Leaky ReLU ning bir turi bo'lib, u 0,01 kabi oldindan belgilangan og'ishga ega bo'lish o'rniga, uni neyron tarmoq uchun o'zini aniqlash parametriga aylantiradi: $x < 0$ bo'lganda $y=ax$.

Leaky ReLU

$$f(x) = \begin{cases} x & \text{if } x > 0, \\ 0.01x & \text{otherwise.} \end{cases} \quad f'(x) = \begin{cases} 1 & \text{if } x > 0, \\ 0.01 & \text{otherwise.} \end{cases} \quad (4.2.2)$$

Parametrik ReLU (PReLU)

$$f(x) = \begin{cases} x & \text{if } x > 0, \\ a \cdot x & \text{otherwise.} \end{cases} \quad f'(x) = \begin{cases} 1 & \text{if } x > 0, \\ a & \text{otherwise.} \end{cases} \quad (4.2.3)$$

$a \leq 1$ uchun bu

$$f(x) = \max(x, ax)$$

ga ekvivalent ekanligini unutmaslik kerak va shuning uchun "maxout" tarmoqlari bilan aloqasi bor.

Biroq, ReLU kamchiliklardan xoli emas. Sezilarli muammolardan biri bu "Dying ReLU" muammosi. Trening jarayonida ba'zi neyronlar faqat nolga teng bo'lgan holatda qolishi mumkin. Neyron bu holatga tushgandan so'ng, uning qiymatini tiklash imkoniyati mavjud emas va bu holat modelning imkoniyatlarini sezilarli ravishda kamaytiradi.

4.2.3. Softmax funksiyasi

Softmax aktivlash funksiyasi neyron tarmoqlarda ko'p turdagi ma'lumotlarni tasniflash uchun qo'llaniladi. Softmax funksiyasi berilgan sonlar to'plamidagi har bir elementlarni (0, 1) oraliqda yotuvchi qiymatlarni ifoda etuvchi sonlar to'plamiga aylantiradi. Masalan, tasavvur qilaylik, bizda sonlar to'plami mavjud:

$$Y = \begin{bmatrix} 2 \\ 1 \\ 0 \end{bmatrix} \quad (4.2.4)$$

Yuqoridagi to'plamni ma'lum bir element bilan bog'laydi. Asosiy, e-mail xabarlarini kategoriyalarga ajratish muammosini olsak, asosiy kategoriyaning 1-sinf elementi (qiymati 2), ijtimoiy tarmoqlar kategoriyasining 2-sinf elementi (qiymati 1) va nihoyat, reklama kategoriyasining 3-sinf elementi sifatida (qiymati 0). Ushbu sonlar to'plamiga softmax funksiyasini tadbiiq qilganimizdan so'ng natija sifatida biz quyidagi ehtimolliklar to'plamini olamiz.

$$Y = \begin{bmatrix} 2 \\ 1 \\ 0 \end{bmatrix} \quad (4.2.5)$$

Yuqoridagi ifodada sonlar to'plami ustida matematik amallarni bajarish ancha qulay. Sababi softmax funksiyasi tatbiiq etilgan sonlar to'plami ma'lum bir oraliqda yotadi (ya'ni $[0,1]$). Bu esa bizga ushbu to'plamning elementlari qiymatlarini klasslar ehtimolliqi sifatida qabul qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, ma'lum bir qaror qabul qilish chegarasini tanlashda qulaylik yaratadi. Masalan, qaror qabul qilish chegarasi sifatida 0,5 qiymat olingan bo'lsa, u holda ushbu qabul qilingan chegaradan yuqori qiymat elementni ushbu to'plamning asosiy sinfi sifatida e'tirof etish mumkin.

Ushbu to'plam 70% ehtimollik bilan asosiy kategoriyani, 20% ehtimollik bilan ijtimoiy tarmoqlar kategoriyasini va 10% ehtimollik bilan reklama kategoriyasini anglatadi. Qaror qabul qilish chegarasini (ya'ni 0.5) inobatga olib aytganda, ushbu to'plam asosiy kategoriyasini anglatadi.

$$\text{softmax}(Z)_i = \frac{e^{z_i}}{\sum_{j=1}^k e^{z_j}} \quad (4.2.6)$$

Yuqoridagi formulada $i=[1\dots K]$ hamda $z=[z_1,\dots,z_k]$ oraliqlarida joylashadi va K sinfi sonini, z_i (yoki z_i) esa oxirgi qatlamning neyronlaridan chiquvchi qiymatlarini ifoda etadi (bunda $z=a_1*x_1+a_2*x_2+a_3*x_3$) ifodasining natijasidir.

4.2.4. Oldinga va ortga siljish algoritmi

Oldinga siljish algoritmi - neyron tarmoqdagi har bir qatlam neyronlarining chiqish qiymatlarini hisoblab, ushbu qiymatlarni keyingi qatlamga uzatish jarayoniga aytiladi. Hisob-kitoblar 2 - qatlamdan boshlanadi: 1 - qatlam - kirish qatlami, ya'ni kiruvchi o'zgaruvchilar bo'lgani uchun 1 - qatlamning qiymati bevosita 2 - qatlamga uzatiladi. Hisob-kitoblarni tezlashtirish uchun asosan vektorlangan hisob - kitoblardan foydalaniladi, ya'ni bir qadamning o'zida o'qitish to'plamining bir - nechta qatori birdaniga neyron tarmoqqa kiritiladi. Ammo odatda o'qitish to'plamlari katta hajmdagi ma'lumotlardan iborat bo'lganligi sababli hisob - kitoblar juda katta xotira talab qilishi mumkin. Shuning uchun ma'lumotlar to'plami qatorlarini bir nechta bo'lakka bo'lib, neyron tarmoqqa uzatiladi. Ushbu bo'laklar **batch**, deb ataladi hamda giperparametr hisoblanib, neyron tarmoq amallarini bajarishdan oldin tanlanadi. Aytaylik, mashq to'plamida 1250 ta qator mavjud va biz **batch** hajmida (`batch_size`) 100 ni tanladik (ya'ni `batch_size = 100`). Bunda neyron tarmoqqa birinchi 100 ta qatorni (1-100-

qatorlarni) kiritamiz va neyron tarmoqni mashq qildiramiz (o'qitish jarayoni). Keyin 100 talikni (101-200 - qatorlarni) neyron tarmoqqa kiritamiz va mashq jarayonini amalga oshiramiz. Ushbu sikl oxirida ma'lumotlar to'plamining oxirida 50 ta qatorini (1201-1250 -qatorlarni) neyron tarmoqqa kiritamiz va mashqni amalga oshiramiz. Ushbu jarayon o'z navbatida davrlar sonicha (ya'ni epochs) takrorlanadi. Shunda biz har bir davrda 13 ta batches yoki bo'laklardan iborat bo'lgan ichki siklga ega bo'lamiz. Ma'lumotlar to'plamini bo'laklarga bo'lib, ya'ni batchlar orqali neyronni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega.

Neyron tarmog'i optimal parametrlarga tezroq ega bo'ladi chunki har bir batch siklida neyron tarmoqning parametrlarini o'zgartirish amali bajariladi. Albatta, bu batch_size parametri, ya'ni har bir bo'lak soni **giperparametr** hisoblanadi va uning qiymati vaziyatdan kelib chiqib tanlanadi. Buning sababi qiymat sifatida juda kichik son tanlansa, neyron tarmoqning tezligini va aniqligini tushirib yuboradi.

Endi oldinga siljish algoritmiga qaytsak, birinchi navbatda yashirin qatlamning chiqish qiymatlari hisoblab olinadi.

$$\begin{aligned}
 c_1^2 &:= f(w_{1,1}^{(2)} \cdot x_1 + w_{1,2}^{(2)} \cdot x_2 + \dots + b_1^{(2)}) \\
 c_2^2 &:= f(w_{2,1}^{(2)} \cdot x_1 + w_{2,2}^{(2)} \cdot x_2 + \dots + b_2^{(2)}) \\
 &\vdots \\
 c_n^2 &:= f(w_{n,1}^{(2)} \cdot x_1 + w_{n,2}^{(2)} \cdot x_2 + \dots + b_n^{(2)})
 \end{aligned}
 \tag{4.2.7}$$

4.2.7-formula yashirin qatlamdagi hisoblashlarni amalga oshirishni ifodalaydi. $f(x)$ – aktivlash funksiyasi bo'lib, obyekt muammosidan kelib chiqib tanlanadi. Keyingi bosqichda 3-qatlamdagi neyronlarning chiqish qiymati hisoblanadi va bu oxirgi natija.

$$\begin{aligned}
 z_1^3 &:= w_{1,1}^{(3)} \cdot c_1^{(2)} + w_{1,2}^{(3)} \cdot c_2^{(2)} + w_{1,3}^{(3)} \cdot c_3^{(2)} + \dots + b_1^{(2)} \\
 z_2^3 &:= w_{2,1}^{(3)} \cdot c_1^{(2)} + w_{2,2}^{(3)} \cdot c_2^{(2)} + w_{2,3}^{(3)} \cdot c_3^{(2)} + \dots + b_2^{(2)}
 \end{aligned}
 \tag{4.2.8}$$

$$\vdots$$

$$z_n^3 = w_{n,1}^{(3)} \cdot c_1^{(2)} + w_{n,2}^{(3)} \cdot c_2^{(2)} + w_{n,3}^{(3)} \cdot c_3^{(2)} + \dots + b_n^{(2)}$$

Oxirgi qatlamda natija hisoblanadi. z_i^3 -natijani hisoblash formulasi. Hisoblash jarayonlari nihoyasiga yetgach qiymat funksiyasi yordamida neyronlarning qanchalik to'g'ri natija berganini baholash talab etiladi. Qiymat funksiyasi neyron tarmoq qo'llanilayotgan muammoga qarab tanlanadi. Masalan neyron tarmoq chiziqli regressiya muammosiga o'xshab davomiy qiymatlarni bashorat qilsa, unda o'rta kvadratik xatolik funksiyadan foydalanish mumkin.

$$J = \frac{1}{2N} \sum_{i=1}^N (f(x^{(i)}) - y^{(i)})^2 \quad (4.2.9)$$

Bu yerda J – qiymat funksiyasi.

Agarda neyron tarmoqlari 2 ta sinfdan iborat bo'lgan tasniflash muammosiga tadbiiq etilayotgan bo'lsa, binar-logarifmik xatolik funksiyasini tadbiiq etishimiz mumkin.

$$J = - \sum_{i=1}^N [y_i \cdot \log(f(x_i))] \quad (4.2.10)$$

Yuqoridagi formulada y_i - sinfnng haqiqiy qiymati va $\log(f(x_i))$ - neyron tarmoqning oxirgi qatlamidagi chiqish qiymati.

Ortga siljish algoritmi – Neyron tarmoqlarning samaradorligini oshirish uchun qiymat funksiyasini minimallashtirish, ya'ni optimal koeffitsiyentlarini topishimiz kerak. Bunda biz ortga siljish algoritmidan foydalanamiz. Ortga siljish algoritmining asosiy maqsadi – bu neyron tarmog'idagi har bir koeffitsiyentning o'zgarishi qiymat funksiyasiga qanday ta'sir qilishini topishdir. Ushbu ta'sirni topganimizdan so'ng koeffitsiyentni qiymat funksiyasini kamaytiradigan tarzda yangilashimiz mumkin. Ushbu ta'sirni topish uchun avvaliga oldinga siljish algoritmini amalga oshirib, so'ngra ortga siljish algoritmini hisoblab topiladi. Bunda

harakat oldinga siljishga nisbatan teskari, ya'ni oxirgi qatlamdan boshlanadi. Ortga siljish algoritmi koeffitsiyentlarning qiymat funksiyasiga tasirini o'rganadi, yani barcha qatlamlaridagi neyron koeffitsiyentlari uchun

$$\frac{\partial J}{\partial a_{i,j}^{(l)}} \text{ va } \frac{\partial J}{\partial b_i^{(l)}} \quad (4.2.11)$$

(4.1.10) formula ko'rinishdagi hisoblashlar amalga oshiriladi. Ushbu ifodalarni hisoblashdan oldin har bir qatlamdagi neyron uchun yordamchi parametr - δ_i^l ni hisoblab olishimiz kerak bo'ladi. Ushbu parametr odatda neyron xatoligi deb ataladi.

$$\delta_i^l = \frac{\partial J}{\partial z_i^{(l)}} \quad (4.2.12)$$

4.2.12-formulada δ_i^l -qiymati sifatida chiqish qatlamdagi z_i^l o'zgaruvchisining qiymati (J) funksiyasiga ta'siri hisoblanadi. Ushbu ta'sirni topish, albatta, oxirgi qatlamdagi chiqish funksiyasiga hamda foydalanilayotgan qiymat funksiyasiga bevosita bog'liqdir.

Neyron tarmoqlarni faollashtirish funksiyalari, neyron og'irligi, ma'lumotlar oqimi va boshqalar asosida bir nechta turlarga bo'lish mumkin. Neyron tarmoqlarining turlari quyidagilardan iborat:


- Perceptron
- Recurrent Neural Networks
- Bidirectional Recurrent Neural Networks
- Convolutional Neural Networks

Nazorat savollari

1. Neyron tarmoq nima va uning afzaliklari va kamchiliklari nimada?
2. Neyron tarmoqlar qanday muammolarni hal qila oladi?
3. Neyron tarmoqda aktivlash funksiyalarining asosiy vazifasi nimada?

4.2.5.CNN arxitekturasi va ishlash strukturasi

Convolutional neyron tarmoqlari(CNN) - ko'p qatlamli neyron tarmoqlarining bir turi sanaladi. U kichik qadamlar bilan masshtabni va buzilishlarni o'zgartirish asosida tarmoqning invariantligini ta'minlaydigan ikkita asosiy g'oyani o'zida birlashtiradi bular: lokal reseptiv maydonlar(local receptive fields) va umumiy vazn (shared weights). CNN ikki o'lachovli ma'lumotlarni tanish uchun mo'ljallangan, shuning uchun ham neyron tarmoqning har bir qatlamida tekisliklarni hosil qiladi. Bu kiruvchi ma'lumotlarning topologiyasini saqlab qolish uchun amalga oshiradi. Kiritish qatlami bitta tekislikdan iborat bo'lib, uning o'lchami kirish ma'lumotlarining o'lchamiga to'g'ri keladi. Keyingi qatlamlar svyortkali hisoblanadi va belgilar kartasi deb nomlangan (feature maps) bir nechta neyronlar tekisliklaridan tashkil topgan. Convilation qatlamning har bir neyroni o'zidan oldingi qatlamning lokal reseptivli maydoniga ulangan. Tarmoqning oxirgi ikkita qatlami amaliy jihatdan oddiy to'g'ri tarqalgan tarmoqni o'zida aks ettiradi.



4.2.4- rasm. CNN arxitekturasi

CNN tarmoqlari ikki o'lachamli ma'lumotlarga asoslanganligi sababli, ma'lumotlarni tasvir ko'rinishiga (spektrogramma) keltiradi. CNN tarmoqlarining aksariyati tasvirdagi timsollarni tanishning samarali usuli sanaladi va ular spektrogrammadagi timsollarni tanish uchun ishlatilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

CNN ni quyidagi afzalliklari sababli tasvirlarni tanish tizimida samarali foydalanilmoqda.

1) To'liq bog'lanishli neyron tarmoqlari bilan solishtirganda o'qitish tezligi yuqori va o'qitish parametrlari soni kamligi.

2) Grafik prosessorlarda (GPU) o'qitish algoritmini parallel amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi.

3) Vizual tanib olish imkoniyatiga ega.

CNN arxitekturasi ko'p qatlamlardan tashkil topgan inson vizual tizimidagi neyronlarning tuzilishini taqlid qilishga harakat qiladi. Yuqoridagi 4.2.4-rasmda ko'rsatilganidek, odatiy CNN to'rtta asosiy qatlamning kombinatsiyasidan iborat:

- Konvolyutsion qatlamlar
- Rektifikatsiya qilingan chiziqli birlik (qisqacha ReLU)
- Birlashtiruvchi qatlamlar
- To'liq bog'langan qatlamlar

Konvolyutsiya qatlamining ishlash prinsipi. Tasvirlardan obyektning shakli va qirralarini aniqlashda Konvolyutsion neyron tarmoq piksel qiymatlarini solishtirish orqali amalga oshiradi. Quyidagi 4.2.5-rasmda bizga 8 raqamining tasviri va ushbu tasvirga to'liq mos keluvchi piksel qiymatlari keltirilgan. Demak, bu yerda shaklni aniqlashning oddiy usuli qo'shni piksel qiymatini solishtirishdan iborat.



4.2.5-rasm. CNN orqali rasmi tanib olish

Bu jarayonda biz qanday yo‘l tutishimiz kerak? Pikel bo‘ylab harakat qilishimiz va bu qiymatlarni solishtirishimiz kerakmi? Yo‘q! Ushbu ma‘lumotni olish uchun tasvir filtri bilan (shuningdek, bu jarayonda qatnashayotgan filtri tushunchasi matematik modelda “yadro” sifatida ham ataladi va shu nomda yuritiladi) konvolutsiya (svyortka) qilinadi.

Konvolutsiya ko‘pincha matematik tarzda yulduzcha * belgisi bilan ifodalanadi. Agar bizda kiruvchi tasvir qiymati X sifatida ifodalangan bo‘lsa va f harfi bilan ifodalangan filtri (yadro) mavjud bo‘lsa, u holda ifoda quyidagicha bo‘ladi.

$$Z = X * f \tag{4.2.13}$$


Keling, biz oddiy misol yordamida konvolutsiya jarayonini tushuntirib o‘tishga harakat qilamiz. Bizga 3 x 3 o‘lchamdagi rasm va 2 x 2 o‘lchamdagi filtri berilgan deb faraz qilaylik (4.2.6-rasm).

$$\begin{array}{ccc} 1 & 7 & 2 \\ 11 & 1 & 23 \\ 2 & 2 & 2 \end{array} \cdot \begin{array}{cc} 1 & 1 \\ 0 & 1 \end{array}$$

4.2.6-rasm. 3 x 3 o‘lchamdagi rasm va 2 x 2 o‘lchamdagi filtri


Bu jarayonning matematik amallar ketma-ketligini quyidagicha tushuntirish mumkin. Filtri tasvirlarning ma‘lum katakchalarini o‘z ichiga olgan bo‘lakchalardan o‘tadi, mos katakchalardagi elementlar bo‘yicha ko‘paytirishlar amalga oshiriladi hamda qiymatlar umumlashtiriladi:

$$\begin{aligned} (1*1 + 7*1 + 11*0 + 1*1) &= 9 \\ (7*1 + 2*1 + 1*0 + 23*1) &= 32 \\ (11*1 + 1*1 + 2*0 + 2*1) &= 14 \\ (1*1 + 23*1 + 2*0 + 2*1) &= 26 \end{aligned}$$



4.2.7-rasm. Feture Maps

Bu jarayonni yanada soddaroq tushuntirish uchun diqqat bilan ko‘rib chiqamiz. Bunda filtr bir vaqtning o‘zida tasvirning bir nechta kichik qismlarini ko‘rib chiqayotganini sezishimiz mumkin. Biz buni har biri filtr bilan birlashtirilgan kichikroq bo‘lakchalarga bo‘lingan bitta rasm sifatida ham tasavvur qilishimiz mumkin .



4.2.8-rasm. Feture Maps hisoblash jarayoni

Yuqoridagi misolda bizda kiruvchi qiymat matritsasi (3x3) va filtr matritsasi (2x2) o‘lchamli edi. Bu rasm va filtrning o‘lchamlari juda kichik bo‘lgani uchun, chiqish matritsasining o‘lchami ham (2x2) ekanligini tushunish oson. Ammo real hayotda CNN ni qo‘llash uchun bizga qo‘yiladigan masalalarda ancha murakkab kiruvchi qiymatlar, ya’ni, tasvirlarning matritsaviy o‘lchamlari juda katta bo‘ladi. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi filtr o‘lchamlari va chiquvchi qiymat uchun natijaviy o‘lchamlarini qanday topishimiz mumkin. Buning uchun quyidagi oddiy formuladan foydalanishimiz mumkin:

$$\text{Rasm o'Ichami} = (n, n)$$

$$\text{Filtrning o'Ichami} = (m, m)$$

Chiquvchi natija o‘lchami $((n - m + 1), (n - m + 1))$ bo‘ladi.

Konvolyutsion qatlam qanday ishlashini yaxshi tushunishimiz uchun keling, CNN arxitekturasiining keyingi qismiga o‘tamiz.

To‘liq bog‘langan qatlam. Yuqorida bajarilgan matematik amallar yordamida konvolyutsiya qatlami ma’lumotlardan ba’zi kerakli

xususiyatlarni ajratib olish imkonini berdi. Keyingi qadamda biz ushbu xususiyatlarga ega bo'lgan ma'lumotlarni yakuniy natijalarni yaratadigan to'liq bog'langan qatlamga yuboramiz.

$$\begin{array}{cc} & 9 \\ 9 & 32 \\ 14 & 26 \end{array} \longrightarrow \begin{array}{c} 9 \\ 32 \\ 14 \\ 26 \end{array}$$

4.2.9-rasm. Birluk matritsa hosil qilish


Konvolyutsiya qatlamining natijaviy qiymati 2D (ikki o'lchamli) matritsa edi. Ideal holda, biz har bir satr bitta kiruvchi qiymat tasvirini ko'rsatishini istashimiz tabiiy. Biroq, to'liq bog'langan qatlam faqat 1D (bir o'lchamli) ma'lumotlar bilan ishlaydi. Shu o'rinda bizga yangi vazifa yuklanadi ya'ni, oldingi operatsiyadan olingan qiymatlarni birinchi navbatda biz 1D (bir o'lchamli) formatiga aylantirishimiz lozim bo'ladi.

Chiziqli transformatsiya. Ma'lumotlar 1D massivga aylantirilgach, u to'liq bog'langan qatlamga yuboriladi. Bu individual bog'lanishlarning barchasi tasvirni ifodalovchi alohida xususiyatlar sifatida qaraladi. To'liq bog'langan qatlam kiruvchi ma'lumotlar bo'yicha ikkita operatsiyani bajaradi. Chiziqli transformatsiya va chiziqli bo'lmagan transformatsiya.

Biz birinchi navbatda ushbu ma'lumotlarga chiziqli o'zgartirishni amalga oshiramiz. Chiziqli transformatsiya tenglamasi:

$$Z = W^T * X + b \quad (4.2.14)$$


Bu yerda: X – kiruvchi qiymat, W - og'irlik (gradiyent), b – o'zgarmas kattalik (bias deb ataladi). Shu o'rinda e'tibor berishimiz lozim bo'lgan jihat bor, bu yerda w (tasodifiy ishga tushirilgan) sonlar matritsasi bo'ladi.



4.2.10-rasm. Neyron qatlamini hisoblash(Full connekt)

Biz buning uchun avvalo matritsaning o'lchamini hisobga olgan holda (m, n) o'lchamli matritsa deb qarash bo'ladi. Bu yerda m - ushbu qatlam uchun xususiyatlar yoki kiruvchi qiymatlar soniga teng bo'ladi. Bu qiymatlarning sonini esa biz konvolyutsiya qatlamidan 4 ta xususiyatga ega bo'lgan natijamiz hosil bo'lgani uchun bu yerda $m = 4$ bo'ladi. n - qiymati esa qatlamdagi neyronlar soniga bog'liq bo'lgan holda aniqlanadi. Masalan, agar bizda ikkita neyron bo'lsa, unda vazn (gradiyent) matritsasi o'lchami $(4, 2)$ bo'ladi:

Ushbu bog'liqlik orqali qurilgan neyron tarmoqning strukturaviy ko'rinishi misol tariqasida 4.2.11-rasmda ko'rsatib o'tilgan.



4.2.11-rasm. Neyron tarmoq og'irliklarini hisoblash

Og'irlik va bias matritsasini aniqlagandan so'ng, keyingi vazifamiz vazn matritsasini transportatsiya qilgan holda (2) – formulaga qo'yamiz,

natijani chiziqli o'zgartirish tenglamasiga qo'ygach quyidagi 9-rasmdagidek ko'rinish hosil bo'ladi:

$$Z = W^T \cdot X + b$$

$$Z = \begin{pmatrix} w_{11} & w_{12} & w_{13} & w_{14} \\ w_{21} & w_{22} & w_{23} & w_{24} \end{pmatrix} \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \\ x_4 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \end{pmatrix}$$

$$Z_{22} = \begin{pmatrix} w_{11}x_1 + w_{12}x_2 + w_{13}x_3 + w_{14}x_4 \\ w_{21}x_1 + w_{22}x_2 + w_{23}x_3 + w_{24}x_4 \end{pmatrix}$$

4.2.12-rasm. Neyron tarmoq og'irliklarini transformatsiya qilish

Oldinga tarqalish jarayonida bitta yakuniy qadam bor bu ham bo'lsa chiziqli bo'lmagan o'zgartirishlar. Keling, chiziqli bo'lmagan transformatsiya tushunchasini va uning oldinga siljish jarayoniga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Oldinga tarqalishning matematik modeli. Bu bo'limda biz yuqorida keltirib o'tilgan tushuncha va ifodalardan foydalangan holda jarayonning to'liq matematik modelini ishga tushiramiz hamda aniq ma'lumotlar asosida amaliy jihatdan qo'llab ko'ramiz. Buning uchun quyidagi ketma-ketlikda ishni boshlaymiz.

1-qadam: Kiruvchi qiymat ma'lumotlarini (rasmlarini) o'zgaruvchiga yuklab olamiz (aytaylik, X ga)

2-qadam: Filtr matritsasini aniqlaymiz (tasodifiy ishga tushiriladi random orqali). Tasvirlar filtr bilan birlashtiriladi (1).

$$Z_1 = X * f$$

3-qadam: hosil bo'lan natijaga Sigmoid faollashtirish funksiyasini qo'llaymiz (3).

$$A = sigmoid(Z_1)$$

4-qadam: Og'irlik (tasodifiy ishga tushiriladigan gradiyent) va bias matritsasini aniqlaymiz. Hosil bo'lgan qiymatlarga chiziqli o'zgartirishni qo'llaymiz.

$$Z_2 = W^T * A + b$$

5-qadam: Ma'lumotlarga sigmoid funksiyasini qo'llaymiz va yakuniy natijani hosil qilamiz.

$$B = \text{sigmoid}(Z_2)$$

CNN modelining yakuniy arxitekturaviy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi



$$\text{Input} = X \quad Z_1 = X * f \quad A = \text{sigmoid}(Z_1) \quad Z_2 = W^T * A + b \quad \text{Output} = \text{sigmoid}(Z_2)$$

4.2.13-rasm. CNN modelining yakuniy arxitekturaviy ko'rinishi

CNN modeli bu qiymatlarni o'quv jarayonida tasodifiy ishga tushiriladigan va o'rganiladigan parametrlar sifatida ko'radi va yuqoridagi ketma ketlikda hisoblashlarni amalga oshiradi.

Misol: Bu misolda biz CNN algoritmidan foydalanib avtomobil, samolyot va kemalarni sinflashtiruvchi model yaratdik. Bu modelni yaratishda Google kompaniyasining ma'lumotlaridan foydalandik. Har bir sinfni o'qitish uchun 200 ta dan ortiq rasmlardan foydalanildi. Jami 600 ta rasmdan foydalanildi.


```

from fastai.vision.all import *
from ipywidgets import widgets
#path
path = Path('train')
# fls = get_image_files(path)
# failed = verify_images(path)
transports = DataBlock(
    blocks=(ImageBlock, CategoryBlock),
    get_items = get_image_files,
    splitter = RandomSplitter(valid_pct=0.2, seed=42),
    get_y = parent_label,
    item_tfms=Resize(224))
#Dataloader yaratami:
  
```

```

dls = transports.dataloaders(path)
#datasetni tekshirish
# dls.train.show_batch(max_n=32,nrows=4)
#O'qitish
learn = cnn_learner(dls,resnet34, metrics=accuracy)
learn.fine_tune(4)
interp = ClassificationInterpretation.from_learner(learn)
interp.plot_confusion_matrix()

```



4.2.13-rasm. CNN modelining aniqligini chalkashlik matritsasi orqali baholash

Bu chalkashlik matritsasidan ko'rishimiz mumkinki, samolyot sinfiga tegishli 42 ta test qiymatimizdan 38 tasini to'g'ri aniqladi, 2 tasini kema va 2 tasini avtomobil deb bashorat qildi. Hamda 45 ta kema sinfiga tegishli test qiymatlarimizni 42 tasini to'g'ri aniqladi, 2 tasini samolyot va 1 tasini avtomobil deb bashorat qildi. Avtomobil sinfiga tegishli 33 ta test qiymatdan hammasini to'g'ri aniqladi.

4.2.5. RNN arxitekturasi va ishlash strukturasi


Recurrent neyron tarmoq (RNN). To'g'ridan to'g'ri bog'langan ananaviy neyron tarmoqlari, masalan KQP lar atrofidagi kontekstdan mustaqil, o'rnatilgan o'lchamdagi kirishlarini hisobga oladigan statik klassifikator sifatida qaraladi. Bir yoki bir nechta yashirin qatlamlar bilan o'zaro bog'langan RNN bashoratlash uchun yanada samarali ekanligini ko'rish mumkin. RNN teskari aloqa vaznini sozlash orqali o'tgan

hodisalarni modellashtirishni o'rganishi mumkin. Bu esa unga avvalgi kontekstdan foydalanish imkonini beradi. Berilgan kiruvchi ketma-ketlikdagi $x = (x_1, \dots, x_T)$ uchun standart rekurrent tarmoq $t=1, \dots, T$ gacha bo'lgan iteratsiya asosida yashirin vektor ketma-ketlik $h = h_1, \dots, h_T$ va chiquvchi vektor ketma-ketlik $y = (y_1, \dots, y_T)$ larni hisoblaydi. Bunda h_1 va y_1 quyidagicha ifodalanadi:

$$h_i = \delta(w_i \cdot x_i + w_i \cdot h_{i-1}, \dots, b_i) \quad (4.2.15)$$

$$y_i = \text{softmax}(w_{ky} \cdot h_i, \dots, b_i) \quad (4.2.16)$$

Bunda w -vazn matritsasi, b -bias vektor.



4.2.14-rasm. Recurrent neyron tarmoq

Recurrent neyron tarmoq RNN ning bir nechta amalga oshirish variantlari mavjud va bular:

Ikki tomonga yo'naltirilgan recurrent tarmoq (Bidirectional RNN - BRNN) ;

Uzun, qisqa muddatli xotiraga ega tarmoq(Long Short Term Memory networks LSTM). LSTM ga asoslangan ikki tomonga yo'naltirilgan rekkurent tarmoq (Bidirectional LSTM based RNN - BLSTM). Ushbu RNN tarmog'i va uning modifikatsiyalangan turlari boshqa neyron tarmoq algoritmlariga nisbatan quyidagi afzalliklarga va kamchiliklarga ega.

Yutuqlari:

- RNN model xar bir ma'lumotni vaqt davomida yodda saqlab qolish uchun modellashtiriladi, bu har qanday vaqtli qatorlarni bashoratlash uchun

juda samarali. Hatto kiruvchi o'lcham katta bo'lganda ham model o'lchami oshmaydi;

-RNN ixtiyoriy kiruvchi ma'lumotlarga ishlov berish uchun o'zining ichki xotirasidan foydalanishi mumkin.


Kamchiliklari :

- Uning takrorlanuvchi tabiati hisobiga hisoblash sekin amalga oshiriladi.

-RNN modelini o'qitish murakkab sanaladi.


-RNN ixtiyoriy kiruvchi ma'lumotlarga ishlov berish uchun o'zining ichki xotirasidan foydalanish mumkin.

RNN lar o'zgaruvchan hodisalar ketma-ketligini yoki obyektlardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun ishlatiladi. Ularning arxitekturasi quyidagi ko'rinishda shakllanadi.



4.2.15-rasm. Recurrent neyron tarmoq arxitekturasi

Yuqoridagi arxitekturada ko'k rangdagi RNN ning yadro bloki hisoblanadi. Uning kirish vektoriga va oldingi holatiga takrorlanish algoritmi qo'llaniladi. Bunday holda, birinchi kiruvchi qiymatdan (x_{t-1}) oldin hech qanday qiymat mavjud emas. Shuning uchun ikkinchi kirish x_t , qiymatidan takrorlanish algoritmini qo'llashni boshlaymiz. Bular kirishning turli vaqt bosqichlari deb nomlanadi. Shunday qilib, agar t vaqtida kirish x_t bo'lsa, $t-1$ vaqtida kirish x_{t-1} ga teng bo'ladi. Takrorlanish qoidasi x_t va x_{t-1} uchun ham qo'llanilib yangi holatga ega bo'ladi.



4.2.16- rasm. Recurrent neyronning yadro qatlami arxitekturası

Yadro qatlamidagi matematik modelni hisoblash jarayoni quyidagi ko‘rinishda amalga oshiriladi.

$$h_t = f(h_{t-1}, x_t) \quad (4.2.17)$$

h_t - hozirgi holat, h_{t-1} - oldingi holat, x_t -kirish holati. Endi bizda kirishning o‘rniga oldingi kirish holati mavjud, chunki kirish neyroni avvalgi kiritishimizda o‘zgarishlarni qabul qila oladi. Shunday qilib, har bir keyingi kirish vaqt bosqichi deb ataladi. Bunday holda, bizda tarmoqqa berilishi kerak bo‘lgan uchta kirish mavjud, takrorlanish paytida har bir vaqt bosqichida tarmoqqa bir xil funksiya va bir xil og‘irliklar qo‘llaniladi. Keyingi holatda aktivlashtirish funksiyasining qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Bunda geperpologik tangens funksiyasidan foydalaniladi.

$$h_t = \tanh(W_{hh} \cdot h_{t-1} + W_{xh} \cdot x_t) \quad (4.2.18)$$

W_{hh} - takrorlanuvchi neyronidagi og‘irlik, W_{xh} -neyron kirish qiymatidagi og‘irlik. Har bir siklda takroriy neyron tarmoq ma’lum bir qiymatga erishadi. y_t chiqish qiymatini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz.

$$y_t = W_{hy} \cdot h_t \quad (4.2.19)$$

y_t - chiqish, W_{hy} – chiqish og‘irligi. Kirishning birinchi qiymati, x_t tarmoqqa beriladi. Keyin joriy kirish va oldingi holat kombinatsiyasidan foydalanib, uning joriy holati hisoblanadi, ya’ni h_t hisoblab chiqiladi. Barcha holat bosqichlari bajarilgandan so‘ng, yakuniy holat y_t chiqishini hisoblash amalga oshiriladi. Keyin chiqish natijalarini softmax aktivlash funksiyasi yordamida aniqligi tekshiriladi.

$$\delta(y)_i = \frac{e^{y_i}}{\sum_{i=0}^N e^{y_i}} \quad (4.2.20)$$

$\delta(y)_i$ -softmax aktivlash funksiyasi. Softmax funksiyasida hisoblangan natijalarning xatoligini baholash uchun Cross entropy funksiyasidan foydalaniladi.

$$L_i = -\frac{1}{N} \left[\sum_{i=0}^N [x_i \cdot \log(\delta_i) + (1 - x_i) \cdot \log(1 - \delta_i)] \right] \quad (4.2.21)$$

L_i -Cross entropy. Ushbu funksiya, ma'lumotlar tizimining ishonchliligi va aniqliligi haqida ma'lumot beradi. Cross entropy tarmoqning qatlamlaridagi hisoblash natijalarini haqiqiy chiqish bilan taqqoslaydi va buning natijasida xatolikni baholaydi. Agar xatolik yuqori bo'lsa xatolikni kamaytirish va og'irliklarni yangilash uchun qiymat yana tarmoqqa qaytariladi (Backpropagation). Orqaga tarqalishni tushunish va vizualizatsiya qilish uchun, tarmoqni har doim bosqichma-bosqich ishlash jarayonini tushunish zarur. RNN da har bir vaqt bosqichida chiqishga ega bo'lishimiz yoki bo'lmasligimiz mumkin. Yo'nalish bo'yicha tarqalish holatida kirishlar har bir vaqt bosqichida kirib boradi va oldinga siljiydi.

Yuqoridagi ketma-ketliklardan foydalanib ma'lumotlarni qayta ishlash va tiklashni amalga oshirib ko'ramiz. Buning uchun birinchi navbatda o'quv tanlanmani sozlash amalga oshiriladi.

4.1-jadval. Kiruvchi ma'lumotlarni birlik matritsa ko'rinishiga keltirib olish

| xi- signal qiymati | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 |
|--------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|
| | 0.381 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| | 0 | 0.428 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| Birlik | 0 | 0 | 0.341 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| matritsa | 0 | 0 | 0 | 0.432 | 0 | 0 | 0 | 0 |
| | 0 | 0 | 0 | 0 | 0.468 | 0 | 0 | 0 |
| | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0.456 | 0 | 0 |
| | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0.443 | 0 |
| | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | | 0.525 |

O'quv tanlanma sifatida eksperimental signalning 8 ta qiymati olingan. Bu jadvaldan foydalanib hisoblashlarni amalga oshiramiz. Keyingi bosqichda W_{xh} - neyron kirish qiymatidagi og'irliklarning qiymatini hosil qilamiz.

4.2-jadval. Neyron kirish qiymatidagi og'irliklar

| π_{xh}^* | | | |
|--------------|----------|----------|----------|
| 0.297023 | 0.865608 | 0.623425 | 0.426832 |
| 0.890287 | 0.891523 | 0.712345 | 0.188837 |
| 0.567523 | 0.082246 | 0.655678 | 0.511448 |

Yuqoridagi 4.2.17-formula yordamida hisoblash amalga oshiriladi. Keyingi bosqichda W_{hh} - takrorlanuvchi neyronidagi og'irlikni hosil qilamiz.

4.3-jadval. Takrorlanuvchi qatlamdagi og'irlik qiymati

| $\pi_{hh}^* + b_r$ | |
|--------------------|----------|
| π_{hh}^* | b_r |
| 0.527023 | 0.575608 |
| 0.627021 | 0.475602 |
| 0.727022 | 0.675703 |
| 0.587024 | 0.585651 |

Jadvaldagi qiymatlardan foydalanib 4.2.18-formulani hisoblashni amalga oshiramiz. Buning uchun esa chiqish og'irliklarini hosil qilamiz.

4.4-jadval. Chiqish qatlamdagi og'irlik qiymati

| π_n | | |
|----------|------------|-----------|
| 0.377023 | 0.986561 | 0.823425 |
| 0.377023 | 0.986561 | 0.823425 |
| 0.390287 | 0.2891523 | 0.6712345 |
| 0.667523 | 0.092246 | 0.355678 |
| 0.912663 | 0.32581642 | 0.144631 |

Bu jadvaldan foydalanib 4.2.20-formula qiymatlarini hisoblab chiqamiz. Hisoblash natijalarining qiymatlarini 4.2.21-formula yordamida eng katta qiymatini aniqlab olamiz. Aniqlash xatoligini esa Cross entropy yordamida baholashni amalga oshiramiz.

4.5-jadval. Xatoliklarni baholash

| x_i | $\delta(x_i)$ | L_i |
|----------|---------------|-------|
| 0.381234 | 0.498748 | 0.69 |
| 0.428452 | 0.194682 | 1.66 |
| 0.341234 | 0.162429 | 1.83 |
| 0.432123 | 0.223141 | 1.51 |

Jadvaldagi natijalardan ko'rinib turibdiki kiruvchi ma'lumot qiymatini boshqalariga nisbatan aniqroq topdi. Ammo xatolik ancha yuqori, bu xatoliklarni kamaytirish uchun backpropagation amalga oshiriladi.

4.2-bo'lim bo'yicha amaliy qism

4.2-bo'lim bo'yicha amaliy qism quyidagi mavzular bo'yicha keltirilgan. Bunda keltirilgan havola yoki QR kodni skaner qilish orqali GitHubga murojat qilib dasturiy kodidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

<https://github.com/TUITAI/>




4.3. Tabiiy tilga qayta ishlov berish

Sun'iy intellekt sohasi bo'lgan NLP tabiiy tildan foydalangan holda kompyuterlar va odamlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni bog'lashga yordam beradigan algoritmlar to'plamidir. NLP inson va kompyuterning o'zaro ta'siri bilan bog'liq bo'lgan sohadir. NLP usullari ko'plab turli xil ilovalarda qo'llaniladi, masalan, avtomatik umumlashtirish, mashina tarjimai, savollarga javob berish, ma'lumot qidirish, matn tasnifi, matn klasteri, hissiyotlarni tahlil qilish, dialog tizimlari va boshqalar.

Tabiiy tilga avtomatik ishlov berish muammosi keyingi yarim asrdan ortiq davr mobaynida dolzarb bo'lib qolmoqda. Muammoning murakkabligi va aniq g'oyaning yo'qligi uni hal qilish yo'llarining qiyinligini bildiradi. Lingvistik analizatorlar esa gapga avtomatik ishlov berish vositalari sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Lingvistik analizatorni quyidagi turlarga bo'lib o'rganish mumkin:


1. Morfologik analizator.
2. Sintaktik analizator.
3. Semantik analizator.

Gap tahlili *lemmatizator*, *morfoanalizator*, *stemmer*, *parser* va *orfokorrektorlar* kabi analizatorlarni o'z ichiga oladi. Bu analizatorlarning har biri o'zining ishlash prinsipi, maqsadi, vazifasiga ega. Umuman olganda, har bir analizator o'z maqsadiga erishishda qator qadamlarni bosib o'tishi talab qilinadi.



4.3.1-rasm. Gap tahlili

Tabiiy tillarga ishov berish jarayonida morfologik, sintaktik va semantik tahlil ketma-ketlik bilan amalga oshiriladi. Kirish tilidagi matnlarni semantik tahlil qiluvchi tizimning natijasi morfologik va sintaktik tahlilga asoslanadi. Bunday tizimlarning tahlil jarayonini 4.3.2-rasmda ko'rishimiz mumkin:



4.3.2 -rasm. Tabiiy tillarga ishlav berish

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, avtomatik semantik tahlil va qidiruv kompyuter lingvistikasining dolzarb hamda murakkab vazifalaridan biri sifatida baholanadi.

4.3.1. Morfologik tahlil

NLP ning birinchi bosqichi morfologik tahlil hisoblanadi. Bu bosqich dastlabki ma'lumotlarni belgilar oqimi sifatida qabul qiladi va uni mazmunli leksemalarga aylantiradi. U butun matnni tokenlarga ajratib olish bosqichlarini amalga oshiradi. Shuningdek, NLP algoritmlari so'zlarni so'z turkumlariga ajratadi va leksemalarni morfemalarga ajratadi.

Tabiiy tilga ishlav berish sohasida morfologik (leksik) tahlil matndagi so'z va iboralarning lemmasini va o'zagini aniqlash jarayonidir. Buni turli usullar, jumladan, so'zlar qo'llanilayotgan kontekstni ko'rib chiqish, gaplar tuzilishini tekshirish va murakkab algoritmlardan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin. Leksik tahlilda so'zlarning tuzilishi tahlil qilinadi. Asosan so'zning lemmasiga, ildiziga, qo'shimchalarga va so'z turkumiga qaraladi. Biz ushbu so'zning kontekstda qanday ishlatilishini tahlil qilib chiqamiz. Bu so'zning

ma'nosini tushunishimizga yordam beradi. Leksik tahlil tilni birliklarga yoki leksemalarga - paragraflar, jumlar, iboralar va so'zlarga ajratadi.

Morfemalarning 2 turi mavjud:

- **Erkin morfemalar** mustaqil ravishda so'z vazifasini bajaradi ("mushuk" va "uy" kabi).
- **Bog'langan morfemalar** kattaroq so'zlarni hosil qiladi. "Tasavvur qilib bo'lmaydigan" so'zida " - emas" (inkor kontekstni bildiruvchi bog'langan morfema), "tasavvur" (butun so'zning erkin morfema ildizi) va "mavjud" (o'zak morfema qobiliyatini bildiruvchi bog'langan morfema) morfemalari mavjud.

Morfologik tahlil tabiiy tilni qayta ishlashning asosiy jihati bo'lib, so'zlarning tuzilishi, shakllanishi va o'zgarishini o'rganishni o'z ichiga oladi. U stemming, lemmatization va nutq qismlarini teglash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar so'zlarni o'z ildiz shakllariga ajratish va gaplardagi grammatik rolini tushunishga yordam beradi. Pythonda NLTK, spaCy va TextBlob kabi bir nechta kutubxonalar yordamida morfologik tahlil qilish uchun foydalaniladi. Bu yerda biz amaliy kod misollari bilan ushbu kutubxonalar yordamida morfologik tahlilni qanday amalga oshirishni ko'rib chiqamiz.

1. Stemming va lemmatizatsiya. NLTK kutubxonasi yordamida tahlil qilish. O'zaklash - so'zni asos yoki ildiz shakliga keltirish jarayoni. NLTK kutubxonasi Porter Stemmer kabi bir nechta stemmerlarni taqdim etadi.

Misol. Matndagi so'zlarni o'zagini bo'laklarga ajratish.

```
import nltk
from nltk.stem import PorterStemmer
# Kerakli resurslarni yuklab olish
nltk.download('punkt')
# Stemmerni ishga tushirish
stemmer = PorterStemmer()
```

```

# Misol uchun matn
text = "running runners ran easily"
# Tokenize (matni belgilash)
tokens = nltk.word_tokenize(text)
# Har bir so'zni asos qilib olish
stems = [stemmer.stem(token) for token in tokens]
print("Original Text:", text)
print("Stemmed Text:", stems)
Natija: running; runners; ran; easily;

```

